

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**



MUSIQA TA'LIMI

**Musiqa ta'limi fanlarini o'qitishning
innovatsion muhitini loyihalash**

MODULI BO'YICHA

O'QUV-USLUBIY MAJMUUA



TOSHKENT-2022



Mazkur o'quv-uslubiy majmua Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrda 648-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv reja va dastur asosida tayyorlandi.

Tuzuvchi: dost. D.Karimova

Taqrizchi: PhD doktori Frank Laper - Ponter de Parij №10 universiteti (Parij).

O'quv-uslubiy majmua TDPU Kengashining 2020 yil 27 avgustdagi 1/3.6- sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.



MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR	4
II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI.....	10
III. NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI.....	24
IV. AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI	74
V. KEYSLAR BANKI	96
VI. GLOSSARIY	102
VII. ADABIYOTLAR RO'YXATI	109



I. ISHCHI DASTUR

Kirish

Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimini islox qilish, xodimlarning yangi avlodini yuqori kasbiy madaniyat, ijodiy va ijtimoiy faollik, xayotga mustaqil moslashish ko'nikmalarini hamda istiqbol rejalarini belgilash va xal etish qobiliyatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan. Mazkur vazifalarni bajarishda "Musiqqa ta'limi" darslari alohida ahamiyat kasb etadi.¹

Ta'lim tarbiya ishlarini olib borishda endigina hayotga qadam qo'yib kelayotgan yoshlar o'z oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishishi o'zlariga bog'liq ekanligini anglab etishlari kerak.

Ta'lim to'g'risidagi qonunda fikrlar berishdan maqsad shuki, umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim olayotgan har bir bola uquvni o'sishi, qobiliyati, tafakkur, iste'dodi, qanday bo'lishidan qat'iy nazar ta'lim tarbiya beruvchi muallimni, ustozni e'tiborida bo'lishi lozimdir.

O'qituvchi– o'quv jarayonini tashkil etishda barcha shakllarini eng qulay va samarali holatda tashkil etishi, ularni shaxs kamoloti maqsadlari tomon yo'naltirishi, talaba- o'quvchilar dunyoqarashini qobiliyatini shakllantirishi, jamiyat uchun zarur bo'lgan faoliyatga moyillik uyg'otish asosiy vazifalardan hisoblaniladi.

Pedagogik maqsadning o'ziga xosligini quyidagilarda bilish mumkin:

Pedagogik faoliyatning maqsadi jamiyat tomonidan belgilanadi, ya'ni pedagogik faoliyatning natijasi jamiyat manfaatlari bilan bog'liqdir. Uning mehnati yoshlar shaxsini har tomonlama kamol toptirishga yo'naltirilgan. Pedagogik faoliyat avlodning ijtimoiy uzviyligi (ketma-ketligi)ni ta'minlaydi. Bir avlod tajribasini, ikkinchi avlodga o'tkazadi, ijtimoiy tajriba orttirish uchun insondagi tabiiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqaradi.

Pedagog faoliyati doimo shaxs faoliyatini boshqarish bilan bog'liq. Bunda pedagogik maqsad o'quvchi maqsadiga aylanishi muhimdir. Pedagog o'z faoliyati maqsadini va unga erishish yo'llarini aniq tasavvur qilishi hamda bu maqsadga erishish o'quvchilar uchun ham ahamiyatli ekanligini ularga anglata olishi zarur. Pedagogik ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchi faoliyatini boshqarish shuning uchun ham murakkabki, pedagog maqsadi doimo o'quvchi kelajagi tomon yo'naltirilgan bo'ladi. Buni anglagan holda moxir pedagoglar o'z faoliyatining mantiqini o'quvchilar ehtiyojlariga muvofiq holda loyihalaydilar. Hamkorlik pedagogikasining tub mohiyati ham ana shundan iborat.

¹ O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi qonunni



Shunday qilib, pedagogik faoliyat maqsadining o'ziga xosligi o'qituvchidan quyidagilarni talab qiladi:

- jamiyatning ijtimoiy vazifalarini to'la anglab, o'z shaxsiga qabul qilishi. Jamiyat maqsadlarining «o'sib», uning pedagogik nuqtai nazariga aylanishi;
- muayyan harakat va vazifalarga ijobiy yondashishi;
- o'quvchilar qiziqishlarini e'tiborga olish, ularni pedagogik faoliyatning belgilangan maqsadlariga aylantirish.

Pedagogik faoliyatning o'ziga xosligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Inson o'zining alohida xususiyatlariga ega bo'lgan, ro'y berayotgan voqealarni idrok qila oladigan va ularga o'zicha baho beradigan takrorlanmaydigan faol mavjudotdir. Psixologiyada ta'kidlanganidek, har bir shaxs takrorlanmasdir. U pedagogik jarayonning o'z maqsadi, ishtiyoqi va shaxsiy xulqqa ega bo'lgan ishtirokchisi hamdir.

Pedagog doimo o'sib-o'zgarib boradigan inson bilan ishlaydi. Ularga yondashishda bir xil qolip, shakllanib qolgan hatti-harakatlardan foydalanish mumkin emas. Bu esa pedagogdan doimo ijodiy izlanib turishni talab qiladi.

Modulning maqsadi va vazifalari

“Musiqqa ta'limi fanlarini o'qitishning innovatsion muhitini loyihalash” modulning maqsadi: tinglovchilarni Oliy ta'limda musiqqa ta'limi fanlarini o'qitish metodikasiga nazariy va kasbiy tayyorgarlikni ta'minlash va yangilash, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish asosida ta'lim tarbiya jarayonlarini samarali tashkil etish va boshqarish bo'yicha bilim ko'nikma va malakalarni takomillashtirishga qaratilgan. Tinglovchilarni musiqqa ta'limi bo'yicha mutaxassis kadrlar tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar musiqqa ta'limi fanining dolzarb muammolari va zamonaviy konsepsiyalari fandagi an'anaviy yangi yo'nalishlar ilmiy –amaliy xorijiy tajribalar kabi ishlari mazmunini o'rganishga yo'naltirishdan iborat.

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

“Musiqqa ta'limi fanlarining taraqqiyot tendensiyalari va innovatsiyalari” kursini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida

Tinglovchi

- “Metod”, “metodika” va “usul” tushunchalarining mohiyati;
- musiqqa o'qitish metodikasining maqsadi, vazifalari, ob'ekti va predmeti;
- musiqqa ta'limini o'qitish metodlari, usullari, vositalari, shakllari;
- musiqqa ta'limini o'qitish metodikasining ilmiy tadqiqot metodlari;
- talabalar bilimi, ko'nikma va malakalarini baholash va nazorat turlari;



- musiqqa ta'limi fanidan mustaqil ta'limni tashkil etish shakllari to'g'risidagi bilimlarga ega bo'lishi;

Tinglovchi:

- nazariy va amaliy mashg'ulotlar uchun materiallarni to'plash va ularni saralash;

- musiqqa ta'limi uchun ma'lumotlarni samarali izlash;

- nazariy va amaliy mashg'ulotlar uchun didaktik ishlanmalar tayyorlash;

- nazariy va amaliy mashg'ulotlar uchun o'quv topshiriqlari turlarini belgilash;

- musiqqa ta'limi fanidan o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish;

- o'quv topshiriqlari uchun ish qog'ozlarini hamma o'quv fanlari bo'yicha joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar uchun sinov topshiriqlarini tayyorlash;

- musiqqa ta'limidan ilmiy va amaliy qiymatga ega o'quv materialini tayyorlay olish;

- ma'ruza mashg'uloti uchun mo'ljallangan matnning vizual xususiyat kasb etishi (o'quv axborotining grafik (sxema, jadval, diagramma, tasvir va b.) ko'rinishda bo'lishiga erishish **ko'nikmalarini egallashi.**

Tinglovchi:

- ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar, shuningdek, reyting nazorati uchun keyslar va darajali testlar to'plamini shakllantirish;

- musiqqa ta'limi bo'yicha to'garaklar, konferensiya va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni o'tkazish

- ovoz va uning imkoniyatlaridan foydalana bilish;

- badiiy ijrochilikning asosiy va har xil shakl, janr yo'nalishlari ijrosini bilish;

- xorga dirijyorlik qila olish **malakalarini egallashi;**

Tinglovchi:

- metodik bilim asosida o'quv mashg'ulotlarini muvaffaqiyatli ta'lim jarayoniga qo'llashi;

- talabalarining ilmiy-tadqiqot faoliyatini samarali yo'lga qo'yish **kompetensiyalarni egallashi lozim.**

Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar

“Musiqqa ta'limi fanlarini o'qitishning innovatsion muhitini loyihalash” modulini o'qitish jarayonida:

- ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;

- o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so'rovlar, test so'rovlari, kichik guruhlarda ishlash, interaktiv ta'lim metodlarini qo'llash nazarda tutiladi.



Modulning o'quv rejasidagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi

Mazkur kurs fanlari o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, musiqa tarixi, cholg'u ijrochiligi va ansambl, vokal ijrochiligi, musiqa o'qitish metodikasi va maktab repertuari, an'anaviy va xalq qo'shiqchiligi, xor va xorshunoslik, dirijyorlik kabi fanlar bilan uzviy bog'liqdir. Uning amaldagi qo'llanish talabalarning vokal asoslari, xor dirijyorligi, maqom asoslari cholg'u ijrochiligi va boshqa musiqiy fanlardan olgan bilim ko'nikmalariga asoslanadi.

Modulning oliy ta'limdagi o'rni

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar ta'lim sifatini oshirish, o'quv-tarbiya jarayonini modernizatsiyalashda innovatsiyalarning o'rni va ularni maqsadli yo'naltirishga oid zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtiradilar hamda oliy ta'lim muassasasi amaliyotiga keng tatbiq etadilar.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Jami auditoriya soati	Jumladan	
			nazariy	amaliy
1.	Innovasion ta'lim muhitining nazariy asoslari va Oliy ta'lim musiqa o'qituvchisining innovasion pedagogik faoliyati bosqichlari.	4	2	2
2.	Musiqiy fanlarni o'qitishning mohiyati, mazmuni, maqsadi va vazifalari.	6	2	4
3.	Musiqa fanlarni o'qitishda xorijiy mamlakatlar tajribalari	6	2	4
4.	Musiqa ta'limi fanlarini o'qitishda innovasion texnologiyalar asosida ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulot-larini loyihalash	4	2	2
5.	Iqtidorli talabalarni aniqlash, tanlash va ular bilan maqsadli ishlash metodlari	2		2
Jami		22	8	14



NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. Innovatsion ta'lim muhitining nazariy asoslari va Oliy ta'lim musiqqa o'qituvchisining innovatsion pedagogik faoliyati bosqichlari.

Texnologiyalar tarixi va pedagogik texnologiya ta'riflari. Pedagogik texnologiya tushunchasi. O'quv ish jarayoni faoliyatini loyihalash. Pedagogik texnologiyalarning asosiy jarayonlari.

2-mavzu. Musiqiy fanlarni o'qitishning mohiyati, mazmuni, maqsadi va vazifalari.

Musiqqa o'qitish metodikasi, musiqqa o'qitishning qonun –qoidalari, talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash, bilish jarayonida izlanishga undovchi metodlar, emotsional dramaturgiya metodi, xususiy metod, turlari, musiqqa ta'limida illyustratsiya metodi, deferensial guruhlar, shaxsni rivojlantirishda musiqaning o'rni, bola shaxsini shakllantirish, estetik shakllantirish, bolaning jismoniy tarbiyalanishida musiqaning roli, musiqiy ta'limda musiqiy faoliyatlar, idrok haqida ma'lumot berish.

3 -mavzu. Musiqqa fanlarni o'qitishda xorijiy mamlakatlar tajribalari.

Musiqqa tarbiyasini g'oyaviy-siyosiy jihatdan xalqning ijtimoiy tuzumiga xizmat qilishi, xorijiy mamlakatlarning o'quv me'yoriy hujjatlari, AQSh va Angliyadagi musiqqa ta'limi tizimi.

Bolgariya, Rossiya, Estoniyada musiqqa talimi tizimi.

Bolgariyada musiqqa darslari,

4 –mavzu Musiqqa ta'limi fanlarini o'qitishda innovatsion texnologiyalar asosida ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlarini loyihalash

Musiqqa ta'limi fanlarini o'qitishda ma'ruza mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish. Musiqqa ta'limi fanlari bo'yicha seminar mashg'ulotlarini tashkil etish. Musiqqa ta'limi fanlari bo'yicha amaliy mashg'ulotlarini loyihalash va rejalashtirish.

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-Amaliy mashg'ulot: Innovatsion ta'lim muhitining nazariy asoslari va Oliy ta'lim musiqqa o'qituvchisining innovatsion pedagogik faoliyati bosqichlari.

Musiqqa ta'limi va tarbiyasida tizimlilik, ilmiylik va davomiylik, rivojlantiruvchi ta'lim, turlari, tabaqalashtirilgan yondashuv, falsafiy-estetik



yo'nalish, musiqashunoslik yo'nalish, umumiy musiqqa ta'limi tuzilishi. Nostandart testlar va topshiriqlar yordamida pedagoglarning Musiqqa o'qitish metodikasi fanlari mazmunini takomillashtirish.

2- amaliy mashg'ulot. Musiqqa ta'lim jarayonining qonuniyatlari. Musiqqa ta'limning tashkil etish shakl, metod va vositalari

Musiqqa ta'lim jarayonining qonuniyatlari. Musiqqa ta'limning tashkil etish shakl, metod va vositalari. Musiqqa ta'limni fanlarini o'qitishning mos keladigan metodlarini tanlash. Musiqqa ta'limi fanlarini o'qitish-ning vositalarini tanlash.

3-amaliy mashg'ulot. Musiqqa fanlarni o'qitishda xorijiy mamlakatlar tajribalari

O'quv fani bo'yicha aniq mavzularda keyslar to'plamini shakllantirish. O'quv fani bo'yicha aniq mavzularda darajali testlar to'plamini shakllantirish.

4-Amaliy topshiriq. Musiqqa ta'limi fanlarni o'qitishda innovasion texnologiyalarga asoslangan ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini loyihalash. (2 soat)

O'quv fani bo'yicha aniq mavzularda rebus va testlarni tayyorlash. O'quv fani bo'yicha aniq mavzularda topshiriqlarni tayyorlash. Muayyan mavzu bo'yicha nazariy yoki amaliy mashg'ulot uchun o'quv topshiriqlarini shakllantirish. Nazariy yoki amaliy mashg'ulot uchun mo'ljallangan o'quv topshiriqlarining ish qog'ozlarini tayyorlash.

5-amaliy mashg'ulot. Iqtidorli talabalarni qidirib topish, tanlash va ular bilan maqsadli ishlash metodlari.

Iqtidorli talabalar bilan ishlash tizimi. Ustoz -shogird" tizimi asosida faoliyat yo'lga qo'yiladi. Iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'limining vazifalari. Iqtidorli talabalar bilan ishlashning shakl va uslublari.

O'QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko'rilayotgan loyiha echimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar echimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar echimini topish qobiliyatini rivojlantirish).



II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda jahon ta'lim maydoniga kirishga yo'naltirilgan yangi ta'lim tizimi qaror topdi. Bu jarayon bilan bir vaqtda pedagogik o'quv-tarbiya jarayonining nazariyasi va amaliyotida sezilarli o'zgarishlar sodir bo'lmoqda.

Pedagogik texnologiya - bu ta'lim shakllarini optimizatsiyasini o'ziga maqsad qilib olgan inson va texnik resurslari va ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda o'qitish jarayonini tashkil etish, qo'llash va aniqlashning hamda bilimlarni o'zlashtirishning uslublaridir.

Pedagogik texnologiya paydo bo'lgunga qadar ta'lim tizimi doirasida ta'lim jarayonini etarli samarali loyihalash qoidasi ishlab chiqilmagan. Pedagogik texnologiyaning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda o'quv maqsadlariga erishishda o'quv jarayoni loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi. Texnologik yondashuv, eng avvalo, yuzalikda emas, balki rejalashtirilgan natija olish imkonini beruvchi konstruktiv, ko'rsatmali sxemada o'z ifodasini topadi.

Maqsadga yo'naltirilganlik, jarayon natijalarini tashxisli tekshirish, ta'limni alohida o'rgatuvchi qismlarga bo'lib tashlash o'quv jarayonining qirralarini bugungi kunda ta'limni qayta ishlab chiqish sikli g'oyasiga birlashtirish imkonini beradi. U asosan o'z ichiga quyidagilarni oladi.

- ta'limda umumiy maqsadning qo'yilishi;
- tuzilgan umumiy maqsaddan aniq maqsadga o'tish;
- pedagoglarning bilim darajalarini dastlabki baholash;
- bajariladigan o'quv ishlarni majmuasi;
- natijani baholash.

Innovasiya masalasiga alohida e'tibor berishimizning bir necha muhim sabablari bor. Birinchidan, birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning O'zbekistonni mustaqillikka olib chiqish va mustaqil taraqqiy toptirish yo'li – “o'zbek modeli” behad katta va ulkan, uzoq muddatli, eng ustuvor va olamshumul umummilliy innovasion loyiha va dasturilamal bo'ldi. Ikkinchidan, innovasiya, innovasion faoliyat hamda innovasion tizim O'zbekistonning o'z mustaqilligi uchun kurashda va taraqqiyot yo'li – “o'zbek modeli”ning tarkibiy qismi yo'nalishlaridan biri sifatida mustaqillik yillarida paydo bo'ldi. Uchinchidan, ma'lum bo'lganidek, bularning har ikkalasi – “o'zbek modeli” va innovasiya o'zaro uzviy bog'liqlikda dunyoga keldi. Ularning biri ikkinchisini mazmunan boyitdi, jamiyatga ta'sirchanligini oshirdi. To'rtinchidan, “o'zbek modeli” ham, innovasiya ham faqat bir buyuk maqsadga hizmat qildi va qilmoqda. Bu Vatan va millatni mustaqil qilib, takomillashtirish, jamiyat rivoji, ilm-fani va texnika



taraqqiyotini tezlashtirishdan iborat bo'ldi. Bularni to'la to'kis anglash, masalaning mazmuni va mohiyatini yanada chuqurroq his qilish uchun eng avvalo, innovasiya haqida alohida to'xtalishiga ehtiyoj tug'ilmoqda. Chunki, bu mutlaqo yangi tushuncha va soha bo'lib, hali to'la-to'kis anglanilganicha yo'q.

“O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”da ko‘rsatilishicha, innovasiya quyidagicha mazmun va tushunchalarga ega: “Innovasiya (inglizcha *innovation* – kiritilgan yangilik, ixtiro) 1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta'minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag'lar; 2) ilmiy-texnika yutuqlari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalaridagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo'llanishi”.

Bu ensiklopedik qisqa ma'lumotda innovasiyaga umumiy ta'rif-tavsif berilgan. Asosan tabiiy fanlar, texnika, texnologiya, ishlab chiqarishlarga oid yangiliklar yoki umuman insoniy mehnat faoliyatlari, yangilanishlariga sababchi bo'ladigan yangiliklar, yangi intellektual bilim, g'oya, nazariya va ta'limotlar nazarda tutilgan.

Innovatsiya tushunchasi va uning mazmuni ham xuddi fan metodologiyasi kabi keng – umumiy va tor, hususiy xarakterga ega.

Metodologiya bilan innovasiya o'rtasida o'zaro umumjihatlik va maqsad birligi mavjud. Ularning har ikkalasi ham insoniy bilimlar takomil topishi, ishlab chiqarish va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi. Shuni ham aytish kerakki, har qanday innovasiya va innovasion loyihalar amalga oshirilishi, hayotga tadbiiq etilishida aniq bir metodologik ilmiy g'oya, ta'limot, nazariya, usul va tamoyillarga amal qilinsagina, ular ro'yobga chiqadi. Aks holda, u quruq, natijasiz harakat bo'lib, qoladi. Albatta, har yangilik, ya'ni innovasiya ostida yangi g'oya va texnologiya yotadi. Mana shu ishlab chiqarish yoki biror bir fan uchun ilmiy metodologik asos ya'ni yo'l ko'rsatuvchi, da'vat etuvchi kuch-quvvat bo'ladi.

Metodologik asos va usullar qanchalik ilmiy haqiqatga yaqin bo'lsa, innovasion loyiha shunchalik muvaffaqiyat va samara bilan yakun topadi.

Ta'lim-tarbiya jarayoniga innovasion texnologiyalarni kiritish orqali o'qituvchi o'zini yangi yaratilayotgan sharoitga tayyorlashi kerak bo'ladi. Tajribali pedagog olimlarimiz o'z vaqtini respublikamizda jamlangan boy tajribalarga suyanib yangi texnologiyalar yaratishga, ularga innovasion texnologiyalarni singdirib, o'zimizning zamonaviy pedagogik texnologiyamizni yaratish ustida hamjihatlik bilan ilmiy va metodik ish olib borishga sarflashi maqsadga muvofiq bo'lar edi. Yaratilgan o'zimizning zamonaviy inovasion pedagogik texnologiyalar asosida “Innovasion maktab”lar tizimini yaratishga o'tish zarur.



Bunday maktablarda barcha predmetlarni o'qitishda axborot-kommunikasion texnologiyalardan foydalaniladi. Shunda "o'qituvchi-o'quvchi" o'rnida "o'qituvchi-kompyuter-o'quvchi" tizimi hosil bo'ladi.

Ta'lim-tarbiya jarayoniga innovatsion yondashish o'quvchilarda yangi tajriba egallashga intilishni rivojlantirish, ijodkorlik va tanqidiy fikrlash, kelajakka umid bilan qarash kabi xislatlarni tarbiyalaydi.

Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanib borayotganligi va o'z ortidan yangi imkoniyatlar ochib, ta'lim muassasalari o'quv jarayoniga ham yangi yondashuv talab etilishiga sabab bo'layotganligini guvohi bo'lmoqdamiz.

Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarining bir qator didaktik imkoniyatlari mavjud. Davrimiz talab ehtiyojiga ko'ra axborot texnologiyalarini ta'lim muassasalari o'quv jarayonini sistemalashtiruvchi, bog'lovchi, amaliy tashkiliy omil sifatida qaralishi mumkin. Axborot texnologiyalari kutubxonalar, hujjatlar va o'quvchilarning ijodiy ishlari kabi axborotlar jamlanmasi, ma'lumotlar bazasini tuzish, ta'lim jarayonini sistemalashtirish, o'quvchilarning amaliy ijodiy ishlarini tashkil qilish imkonini beradi.

Bu barcha vositalarni o'quvchilar o'qituvchining nazorati ostida, darsda shakllantirgan amaliy ko'nikma, malakalarini amalga oshirish imkoni beradi.

Internet tarmog'i o'quvchilarga juda ko'p imkoniyatlarni yaratadi. Internet tarmog'iga chiqish orqali nazorat ishlari tarqatilishi va mahalliy elektron pochtdan qabul qilinishi mumkin. Bunday ko'rinishdagi ishlar darsda masofaviy ta'limning tarmoq shakllarini modellashtirishga yordam beradi.

Kundan-kunga masofaviy tarmoq kurslari va tanlovlari ommalashib bormoqda. O'qituvchi endi bilim axborotlarini etkazuvchi yagona markaz emas, kompyuter texnologiyalarini qo'llash bilan masofaviy ta'lim berish va olish imkoniyatiga ega bo'lib bormoqda.

Talabalar ko'pincha Internet tarmog'i orqali o'z-o'zini o'qitish bilan qiziqib shug'ullanmoqdalar, o'z tengdoshlari bilan muloqotda bo'ladilar, umumiy qiziqishlarni topadilar. Bunday ishlar tarmoqdagi o'zaro munosabatlarni shakllantiradi, Internet tarmog'i talabaga telekommunikatsiya imkoniyatlarini his qilishni, boshqa mamlakatdagi tengdoshlari bilan tanishish va birga ishlash vositasiga aylanmoqda.

Axborot texnologiya vositalari talabaga o'z tasavvurlarini "elektron ko'rinish"da namoyon etish va o'z mahsulotining raqobatbardoshligini, o'z g'oyalarini ommaviylikini tekshirish imkonini beradi. Talabaga haqiqiy qiziqarli va o'ziga xos resurs yaratish uchun u birinchi navbatda, barcha ma'lumotlarni o'rganib chiqishi, uning talablari ruhiyatining xususiyatlarini sezishi, resursning yangiligini belgilashi va amaliy ahamiyatini anglab etishi zarur. Bularning barchasi



talabanning o'z bilimdonliklarini shakllantirishga, uning hayotdagi amaliy yo'nalishini belgilashga sabab bo'ladi.

“Aqliy hujum” metodi

Aqliy hujum usuli

Aqliy hujum (breynstroming - aqlar to'zoni) – amaliy yoki ilmiy muammolar yechish g'oyasini javoaviy yuzaga keltirish.

Aqliy hujum va masalani yechish bosqichlari

1. Mustaqil fikrlang xayolingizga kelgan barcha g'oya, fikrlarni qog'ozga yozing.
2. Barcha g'oya va fikrlarni yozing, agar ular takrorlanayotgan bo'lsa, maxsus belgi qo'ying.
3. G'oyalarni baholang.
4. Eng maqbul g'oya guruh g'oyasi sifatida shakllantiradi.
5. Barcha yozilgan g'oyalar guruh muammosini yechish
6. Guruhning umumiy javobi shakllantiriladi.

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

“SWOT-ТАХЛИЛ” metodi.

S – (strength)

W – (weakness)

• zaif, kuchsiz tomonlari

O – (opportunity)

• imkniyatlari

T – (threat)

• to'siqlar

Namuna: Rassom ijodkorlar uchun SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.


S	Rassom kim ? Badiy asar yaratuvchi.	Rassom bu tinmay izlanuvchi ijodkor inson.
W	Umumbashariy ahamiyatga	Zamonaviy yunalishda ijod etayotgan taniqli




	ega bo'lgan rassomlar.	rassom A.Nuridinov asarlarida sevgi, oila, sadoqatlik, tarbiya va jamiyatdagi falsafiy tamoyillar asosida ijod etayotgan ijokorlardandir.
O	Rassomlar chiziqlar, shakllar, ranglar, tasviriy san'at vositalari yordamida badiy obrazli asar yarata oladigan insonlar. (ichki)	Ular tasviriy san'at vositalardan, chiziqlar, shakllar, tasviriy san'at vositalari bilan tasvir orqali o'z g'oyasini, fikrini bayon eta oladilar.
T	To'siqlar (tashqi)	Rassomlarga erkinlik bo'lmasa chiziqlar, shakllar, tasviriy san'at vositalari bilan o'z asarlarida tasvir orqali bayon eta olmaydilar.

“Baliq skeleti”

Naturmort kompozitsiyasini “Baliq skeleti” chizmasi Bir qator muammolarni tasvirlash va uni echish imkonini beradi. Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.





Misol: “Rassom ijodkorlar” mavzusidagi matn.
Bilamiz. Bilishni istaymiz? Bilib oldik. (BBB)

Bilamiz	Bilishni istaymiz	Bilib oldik
1. Rassom yangi g'oyada asar yaratadigan inson.	1. Har bir izlanuvchi insonni rassom deb atash mumkinmi?	Ilmiy amaliy izlanishlarni olib boruvchi, yangi usul va vositalarni qo'llay oladigan insonni rassom deymiz.
2. Rassomlar tasviriy vositalardan, chiziqlar shakllar, vositalarni o'z asarlarida tasvir orqali bayon eta oladigan insonlar. Ma'naviy estetik tarbiyalovchi	2. Dunyodagi g'oyaviy kompozitsilarni tasvirla oladigan rassomlar qatoriga kimlarni kiritisa bo'ladi.	R.Ahmedov tasvirlagan asarlar hozirgi rassomlar uchun amaliy metodik o'quv jarayonidagi rivojlanishida foydalanilmoqda.
3. Rassomlar asarida insonlarni ma'na-viy-ma'rifiy estetik tarbiyalovchi insonlardir.	3. Rassom bo'lish uchun nima qilish kerak?	O'ral Tansiqboev manzaralarini butun O'zbekistondagina emas balki Yevropa davlatlrida xam maroq bilan tomosha qiladilar.
4. Rassom bu tinmay izlanuvchi inson	4. Ijodiy asarlarni tasvirlashni payoni bormi?	Abdulhaq Abdullaev por-tret janrida ijod etgan taniqli rassomlardandur.
5. Umumbashariy aha-	5. Kompyuterda ijo-diy	Zamonaviy yunalishda ijod



miyatga ega bo'lgan rassomlar.	asar yaratsa bo'ladimi ?	etayotgan taniqli rassom A.Nuridinov asarlarida sevgi, oila, sadoqatlik, tarbiya va jamiyatdagi falsafiy tamoyillar asosida ijod etayotgan ijokorlardandir.
6. O'zbekistonlik rassomlar	6. O'zbekistonda taniqli metodik qo'llanmalar, uslubiy qo'llanmalar ustida ishlab kelayotgan taniqli rassom va pedagoglardan kimlarni bilasiz?	O'zbekistonda taniqli metodik qo'llanmalar, uslubiy qo'llanmalar ustida ishlab kelayotgan taniqli rassom va pedagoglardan: R. Xasanov, M. Nabiev, X. Egamov, R. Xudayberganov, N.Oripov va boshq.

Inter'erda natyurmortni aks etirish

Inter'er -

xonani ichki ko'rinishini perespektivada aks etiriladi. Tasviriy san'at janrlaridan: natyurmort, portret, tarixiy, maishi animal ko'rinishlarda fon vazifasini o'taydi.

Inter'erda uyni eshik derazalarning shakli, hajmi, devor va shift, polni bezagi va uy jihozlarning bezagi tasviri orqali qaysi davrga mansubligini bilib olishimiz mumkin. Inter'er - ichki me'moriy muxit xolati orqali xonadon sohibasining didi haqida yoki zavod sexning jihozlanishiga qarab ilmiy, taraqqiyot holati haqida xulosa chiqarish mumkin. Inter'erda natyurmortni perespektivada aks etirish, tasvirlash jarayonlari ko'rsatilgan.

Inter'er, kompozitsiyasi mavzusidatasviriy san'at o'qitishning zamonaviy texnologiyasini qo'llash.

Keys-stadi" metodi



«**Keys-stadi**» - inglizcha so'z bo'lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o'rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil qilish asosida o'qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o'rganishda foydalanish tartibida qo'llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim? (Who), Qachon? (When), Qaerda? (Where), Nima uchun? (Why), Qanday? Qanaqa? (How), Nima-natija? (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	yakka tartibdagi audio-vizual ish; keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); axborotni umumlashtirish; axborot tahlili; muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ni belgilash	individual va guruhda ishlash; muammolarni dolzarblik ierarxiasini aniqlash; asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining echimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	individual va guruhda ishlash; muqobil echim yo'llarini ishlab chiqish; har bir echimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish; muqobil echimlarni tanlash
4-bosqich: Keys echimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	yakka va guruhda ishlash; muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash; ijodiy-loyiha taqdimotini tayyor-lash; yakuniy xulosa va vaziyat echimining amaliy aspektlarini yoritish

“Insert” metodi.

Metodning maqsadi: Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o'zlashtirilishini engillashtirish maqsadida




qo'llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o'taydi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- o'qituvchi mashg'ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko'rinishida tayyorlaydi;
- “Tasviriy san’at” bo'yicha yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta'lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko'rinishida namoyish etiladi;
- ta'lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, rangtasvir bo'yicha o'z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda tinglovchilar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

Belgilar	1-matn	2-matn	3-matn
“V” – tanish ma'lumot.			
“?” – mazkur ma'lumotni tushunmadim, izoh kerak.			
“+” bu ma'lumot men uchun yangilik.			
“– ” bu fikr yoki mazkur ma'lumotga qarshiman?			

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta'lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo'lgan ma'lumotlar professor - o'qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to'liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg'ulot yakunlanadi.



“Brifing” - (ing. Briefing - qisqa) Rangtasvir bo'yicha biror – bir masala yoki savolning muhokamasiga bag'ishlangan qisqa press - konferensiya.

**O'tkazish bosqichlari:**

1. Taqdimot qismi.

2. Muhokama jarayoni
(savol-javoblar
asosida).

Brifinglardan trening yakunlarini tahlil qilishda foydalanish mumkin. Shuningdek, biror bir asarni chizishdan oldin bir shakl sifatida oldin chizilgan bior asar masalan: “Monaliza” portretini olaylik tinglovchilar bilan birga shu asar qachon va kim tomonidan yaratilganligi muhokama qilinadi va boshqa rassomlarni chizgan portretitahlil qilinadi. Talabalar yoki tinglovchilar tomonidan yaratilgan yangi asar taqdimoti o'tkaziladi.

“Portfolio” metodi.

“Portfolio” – (ital. Portfolio - portfel, ingl. hujjatlar uchun papka) ta'limiy va kasbiy faoliyat natijalarini autentik baholashga xizmat qiluvchi zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan hisoblanadi. Portfolio mutaxassisning saralangan o'quv-metodik ishlari, kasbiy yutuqlari yig'indisi sifatida aks etadi. Jumladan, har bir tinglovchilarning modul yuzasidan o'zlashtirish natijasini elektron portfoliolar orqali tekshirish mumkin bo'ladi. Oliy ta'lim muassasalarida portfolioning quyidagi turlari mavjud:

Faoliyat turi	Ish shakli	
	Individual	Guruhiy
Ta'limiy faoliyat	Talabalar portfoliosi, bitiruvchi, doktorant, tinglovchi portfoliosi va boshq.	Talabalar guruhi, tinglovchilar guruhi portfoliosi va boshq.
Pedagogik faoliyat	O'qituvchi portfoliosi, rahbar xodim portfoliosi	Kafedra, fakultet, markaz, OTM portfoliosi va boshq.

Har bir tinglovchi kurs mobaynida o'zining shaxsiy portfoliosini kiritib boradilar.

O'qitishning to'rt pog'onali usuli


Bu usul AQSh da paydo bo'lib sanoat korxonalarida konveerli ishlab chiqarish ko'paygan sari shunday o'rgatish usullari zarur bo'lib qoldiki, ishchilar bir xilda qaytariladigan qo'l ko'nikmalarini iloji boricha tez va mukammal ravishda o'rganib olishlari kerak edi.



Bu usulda amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayoni 4 pog'ona doirasida kechadi. Bu pog'onalar nomi: «Tushuntirish», «Nima qilish kerakligini ko'rsatib berish», «Ko'rsatilgan tarzda qaytarish», «Mashq qilish». Ya'ni amaliyot o'qituvchisi talabalarga avval kichikroq bir ish bosqichini tushuntirib beradi, keyin nima qilish kerakligini qilib ko'rsatadi. So'ng talaba shu ish bosqichini ko'rsatilgan tarzda qaytarishi (imitatsiya qilishi) kerak. Talaba qaytarib qilayotgan paytida amaliyot o'qituvchisi xatolarini to'g'rilab turadi (maqtaydi yoki tanqid qiladi).

Unday keyin esa shu ish bosqichi mashq tarzida talaba uni mukammal o'zlashtirgunicha ko'p marotaba qaytariladi.

Bu usul psixologiyada asoslangan bo'lib, bixeviorizm (ya'ni inson o'zini tuta olishiga oid) nazariyalardan olingan.



To'rt pog'ona usuli doirasidagi harakatlar

4 pog'ona deb quyidagi pog'onalar ataladi. Ular davomida bir amaliyot o'qituvchisi bir talaba harakat qiladi:

1-pog'ona: Amaliyot o'qituvchisi nima qilish kerakligini tushuntiradi. U talabalarga ma'lum bir ish bosqichi yoki bir ko'nikmani qo'llash uchun kerakli barcha ma'lumotlarni beradi. Talabalar esa amaliyot o'qituvchisi og'zaki tushuntirishlarini tinglashadi.

2-pog'ona: Amaliyot o'qituvchisi tushuntirilgan ish bosqichi qanday qilinishi kerakligini qilib ko'rsatadi, talabalar esa qarab turishadi. Odatda amaliyot o'qituvchisi nima qilayotgani haqida talabalarga izohlar berib boradi. Ya'ni bu erda demonstratsiya (namoyish etish) tushunchasi ham ishlatilishi mumkin.

3-pog'ona: Amaliyot o'qituvchisi ko'rsatib bergan ish bosqichini ko'rsatilgan tarzda qaytaradilar. Amaliyot o'qituvchisi ular qilayotgan ish yuzasidan o'z fikrini bildirib, xatolarni to'g'rilab turadi.

4-pog'ona: Har bir talaba ish bosqichini ko'rsatilgan tarzda qaytarib, ko'rganidan va ish bosqichini to'g'ri bajarish bo'yicha amaliyot o'qituvchisining izohlarni tushunganidan keyin, bu ish bosqichi ko'p marotaba mashq qilinadi va kerakligicha, ya'ni maqbul natijaga erishilmagunicha takrorlanadi.

Bundan keyin amaliyot o'qituvchisi keyingi ish bosqichiga o'tadi. Bu bosqich ham 4 pog'onadan iborat.



Bu 4 pog'ona usulining asosiy belgisi shuki :

- amaliyot o'qituvchisi tomonidan boshqarilgan nazariy va amaliy ma'lumot berish davrlari (fazalari) eng boshida turadi so'ng esa talabalarning harakatlari bilan almashinadi;
- talabalarning harakatlari amaliyot o'qituvchisi ko'rsatib bergan harakatlar doirasi bilan cheklangan;
- talabalar individual o'rganishga (o'zlashtirishga) yo'naltiriladilar lekin mustaqil fikrlashga haqlari yo'q;
- ish tashkillashtirishi (ish tartibi) odatda hech qanday yangicha yondashuvlarga yo'l qo'ymaydi.

Yo'naltiruvchi matn usuli

Yo'naltiruvchi matn usuli o'tgan asrning 70 yillarida Germaniyada, «Daimler Benz» korxonasi Gaggenu shahridagi (Daimler Benz AG (Gaggenu) o'quv ustaxonasi tomonidan ishlab chiqarilgan. Bu usul tovush va tasvirli prezentatsiyalar bilan jihozlangan mustaqil o'rganish dasturlari shaklidagi loyihaviy kasb-hunar ta'limiga qo'shimcha sifatida ishlab chiqarilgan.

Boshlang'ich shaklida bu usul kasb-hunar ta'limi amaliyotchilari tomonidan ishlab chiqarilgan, keyinchalik esa nazariy jihatdan asoslanib ilmiy asosda takomillashtirilib oliy ta'limda qo'llanila boshlangan.


Yo'naltiruvchi matn usulida quyidagi 6 bosqich farqlanadi; ular doirasimon harakatda almashishadi:

- ma'lumot yig'ish;
- rejalashtirish;
- qaror qabul qilish;
- amalga oshirish;
- tekshirish;



- xulosa chiqarish.

Yo'naltiruvchi matn usuli bosqichlari



Bu bosqichlar hammasi talaba tomonidan amalga oshiriladi. Bu usulni ishlab chiqarilishiga sabab loyihalar ustida ish bilan bog'liq tashkiliy muammolar edi, chunki o'quvchilar har xil tezlikda ishlashlari tufayli butun guruh uchun instruktaj o'tkazishga qulay vaqtni topish qiyin edi. Bir talaba hammadan tez ishlab yangi ko'nikmani o'rganishga tayyor bo'lgan bo'lsa, sekinroq ishlagan talabalar uchun esa yangi instruktajning foydasi juda kam edi. Qaytaga yangi instruktaj ularning



ishlariga xalal berganday yoki keragi yo'q to'xtalish kabi tuyular edi. Ya'ni talabalar qiziqishi (motivatsiyasi) qisman barbod qilinadi.

Yo'naltiruvchi matnlar yordami bilan mustaqil instruktaj imkoniyati paydo bo'ldi va har bir talaba aynan unga yangi ko'nikma uchun bilimlar kerak bo'lgan paytda shu bilimlarni olishi mumkin bo'ldi.

Eng birinchi yo'naltiruvchi matnlar - bu asli og'zaki ravishda o'tkaziladigan instruktajlarning yozma shakli edi. Lekin baribir barcha maxsus ma'lumotlar talabalarga iloji boricha og'zaki berilar edi.

Bugungi kunda esa yo'naltiruvchi matnlar shunday tuzilganki talabalar yo'naltiruvchi savollar yordamida o'zlari kerakli ma'lumotlarni (kitob, jadval, instruksiya, videokassetalar yoki kompyuter disklaridan olib) ishlab chiqarishni o'rganishadi.

Natijada hozir yangi bir o'rgatish usuli va yangi bir o'rganishni tashkillashtirish tarzi vujudga keldi. Uning asosiy belgisi - bu o'quvchi ko'prok mustaqil ravishda o'rganishidir; amaliyot o'qituvchisi esa zaifroq talabalar bilan ko'proq shug'ullanishi mumkin bo'lib qoldi. Talabalarning mustaqil ishlashi esa o'z navbatida qo'shimcha foyda keltirmoqda: yuqoriroq ko'nikma va qobiliyatlar sohasida ya'ni birgalikda muloqotda bo'lish, birgalikda reja tuzish, qaror qabul qilish hamda o'z ishini tekshirish kabi qobiliyatlar rivojlanadi.

Komandada (birgalikda) ishlash orqali muayan ijtimoiy kompetensiyalar rivoj topadi va ularga mo'ljallangan maqsadlar ham belgilanishi mumkin bo'ladi. Ko'rib turibmizki, vaqt o'tgan sari yo'naltiruvchi matn usuli qo'llanishining ma'nosi o'zgardi chunki bugungi kunga kelib bu usul aynan o'sha «poydevor kvalifikatsiyalar» deb atalgan qobiliyatlarni rivojlantirish maqsadida qo'llanadi. Bu tushunchani Germaniyada ta'limot munozarasiga mehnat bozori tadqiqotchisi D. Mertens kiritgan. U bu tushuncha bilan asosan uslubiy kompetensiyalarni (ya'ni fikrlash, tashkillashtirish va rejalashtirish usullarini) atagan.

Hozirgi kunda esa bu tushuncha bilan shunday qobiliyatlar ko'nikma va o'zini tutish tarzlari ataladiki, ular aynan shu kasb-hunarga oid kvalifikatsiyalardan tashqari va ularga qo'shimcha sifatida barcha boshqa kasb-hunarlarda kerak bo'ladigan hatti-harakatlarni bildiradi.

4 pog'ona usuli bilan solishtiradigan bo'lsak bu usulda amaliyot o'qituvchisining faoliyati ko'proq darsdan oldin va darsdan keyin qilinadigan ishlardan iborat. Lekin bevosita instruktaj jarayonida qilinadigan ishlar emas; o'quvchilar esa qaytaga barcha davrlarda (fazalarda) mustaqil ishlashadi.



III. NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: Innovasion ta'lim muhitining nazariy asoslari va Oliy ta'lim musiqa o'qituvchisining innovasion pedagogik faoliyati bosqichlari

Reja:

1. Texnologiyalar tarixi va pedagogik texnologiya ta'riflari
2. Pedagogik texnologiya tushunchasi.
3. O'quv ish jarayoni faoliyatini loyihalash.
4. Pedagogik texnologiyalarning asosiy jarayonlari.

Tayanch tushunchalar: Texnologiya, texnologik jarayon, ta'lim texnologiyasi, vositalar, ta'lim va tarbiya, tarbiyaviy vositalar, pedagogik jarayon, pedagogik mahorat.

1. Texnologiyalar tarixi va pedagogik texnologiya ta'riflari

Innovasion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan–kunga kuchayib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'qituvchi - o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari chiqarishlariga o'rgatadi.

Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'qituvchi - o'quvchilarni bilimli, etuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Innovasiya (inglizcha innovasion) – yangilik kiritish, yangilikdir.

Ta'limni texnologiyalashtirish g'oyasini bundan 400 yil avval chex pedagogi Yan Amos Komenskiy ilgari surgan. U ta'limni “texnikaviy” qilishga undagan, ya'ni hamma narsa, nimaga o'qitilsa, muvaffaqiyatga ega bo'lsin. Natijaga olib keluvchi, o'quv jarayonini, u “didaktik mashina” deb atagan.

Bunday didaktik mashina uchun: aniq qo'yilgan maqsadlar; bu maqsadlarga erishish uchun aniq moslashtirilgan vositalar; bu vositalardan foydalanish uchun qanday aniq qoidalarni topish muhimligini yozgan.

Ta'lim nazariyasi va amaliyotida o'quv jarayoniga texnologik xususiyatni berish uchun 50-yillarda birinchi urinishlar qilib ko'rilgan. Ular o'z ifodasini an'anaviy o'qitish uchun majmuali texnik vositalarni yaratishda topgan.

Hozirgi vaqtda pedagogik texnologiya «o'qitishning texnik vositalari yoki kompyuterlardan foydalanish sohasidagi tadqiqotlardek qaralmaydi, balki bu ta'lim



samaradorligini oshiruvchi omillarni tahlil qilish, ishlab chiqish, hamda usul va materiallarni qo'llash, shuningdek qo'llanilayotgan usullarni baholash yo'li orqali ta'lim jarayonining asoslari va uni maqbullashtirish yo'llarini ishlab chiqishni aniqlash maqsadidagi tadqiqotdir».

Barcha ta'lim va tarbiya ishlarini pedagogik texnologiya yo'liga o'tkazish, maktab amaliyoti pedagogik jarayonini ixtiyoriy qurish va uni amalga oshirishdan keskin burilishi quyidagilarni anglatadi:

- uning har bir qism va bosqichlarining izchil asoslanganligi (ta'lim jarayonini tartiblashtirish - batafsil aniqlangan va asoslangan, ishlarni ma'lum tartibidan tashkil topgan qismlar - muloqot, axborot va boshqaruvning yo'l va vositalarini bilish orqali mumkin qadar rasmiyatchilik nuqtai nazaridan rasmiylashtirilgan);

- yakuniy natijani haqqoniy tashxis qila olishga yo'naltirilganligini;

- *ta'lim jarayoniga* mavjud sharoit va belgilangan vaqt ichida qo'yilgan ta'limiy maqsad, hamda ijobiy natijaga erishishni ta'minlaydigan ishlab chiqarish;

- *texnologik jarayonining* mukammal, aniq yo'lga qo'yilgan, izchil, muvofiqlashgan xususiyatini berish;

- uning *samaradorligi* va inson imkoniyatlari (kuch, vaqt) ni maqbullashtirish maqsadi bilan butun ta'lim jarayonini boshqaruvchanligi. [G.N.Axunova, L.V.Golish, D.M.Fayzullayeva. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O'quv uslubiy qo'llanma / Zamonaviy ta'lim texnologiya seriyasi. – T.: 2009 y.]

XX asr 30 yillarning o'rtalarida AQShning Indiana universitetida o'quvchilarga eshitish va ko'rish (audiovizual) ta'limi bo'yicha ma'ruzalar o'qilgan, 1946 yil shu erning o'zida eshitish va ko'rish ta'limi bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash kursi: ishlab chiqarishni rejalashtirish, eshitish va ko'rish vositalarini ishlatish, ular sifatini baholash, hamda shu vositalarni qo'llab o'quv jarayonini boshqarish dasturlari kiritildi.

Bu jarayon "*Ta'limda texnologiyalar*" deb nomlandi.

1954 yilda professor B.F.Skinner tomonidan dasturlashtirilgan ta'lim modeli asoslab berildi. Bu operatsiyalar asosida o'qitish texnologiyasi bo'lib (mavzu – qadam - kadr), u har bir o'quv topshirig'ining to'g'ri bajarilganligini tezda baholash va xatolikka yo'l qo'ygan bo'lsa orqaga qaytish kabi qaytar aloqani nazarda tutadi.

1958 yilda N.Krauder tomonidan Dasturlashtirilgan ta'limning tarmoqlangan sxemasi taklif etildi. Bunda taklif qilingan bir qancha javoblardan birini tanlash va javoblarning to'g'ri - noto'g'riligidan kelib chiqib qaytar aloqa nazarda tutiladi.

Bu «O'rgatuvchi texnologiyalar» deb nom oldi.

Texnologiya tushunchasi 60 yillardagi Amerika va G'arbiy Evropada ta'limni isloh qilinishi bilan bog'liq ravishda kirib keldi. B.Blum, J.Koroll, P.Y.Galperin,



V.I.Davidov, N.A.Mechinskaya, Z.I.Kalmikova, L.I.Zankov texnologiyalari mashhur. O'qitishni tashkil qilishning texnologik yondashuvlari V.P.Bespalko, N.F.Talizina, L.M.Fridman, Y.N.Kulyutkina, G.S.Suxobskoy, T.V.Kudryavsev, A.M.Matyushkin, M.I.Maxmutov kabi aksariyat psixolog va didaktikachilarga taalluqlidir.

70 yillarda – *ta'lim texnologiyasining* ilmiy asosini informatika, telekommunikatsiya nazariyasi, pedagogik kvalimetriya, tizimli tahlil, bilish faoliyatini boshqarish nazariyasi, o'quv jarayonini qulaylashtirish, pedagogik mehnatni ilmiy tashkillashtirish kabilar tashkil qildi.

Ko'rish va eshitish vositalarining yangi turlari: videomagnitofon, aylanmali kadroproyektor, elektron va bloknotli yozuv taxtasi va boshqalar chiqara boshlandi.

Ta'lim texnologiyasi muammolari bo'yicha Xalqaro anjumanlar o'tkazildi. Bu "Ta'lim texnologiyalari" deb atala boshladi.

80 yillarda TTni – "ta'lim olish shakllarini maqbullashtirishni o'z vazifalari deb qo'yuvchi, butun ta'lim berish jarayonini, hamda bilimlarni texnikaviy va insoniy manbalarni hisobga olgan holda o'zlashtirish va ularning o'zaro harakatini yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli usuli" deb tan olingan (YuNESKO, 1986 y.).

«*Pedagogik texnologiya*» – atamasi pedagogika fanida vujudga keldi.

80 yillarning boshidan pedagogik texnologiya deb ta'limning kompyuterli va axborot texnologiyalarni yaratishga aytilgan.

Pedagogik texnologiya ta'riflari:

«Pedagogik texnologiya – barkamol insonni shakllantirish faoliyati».

Shu bilan birga, pedagogik texnologiyaning keng ko'lamli, serqirra tushuncha ekanligini hisobga olgan holda, uning quyidagi yana bir nechta ta'riflarini keltirishimiz mumkin:

Pedagogik texnologiya axborotlarini o'zlashtirish, ulardan amalda foydalanish, ulardagi yangi ma'no – mazmunlarni, hamda axborotlar orasidagi turli bog'liqliklarni ochish orqali yangi axborotlar yaratishga o'rgatish jarayonidan iborat.

Pedagogik texnologiya – ta'lim metodlari, usullari, yo'llari, hamda tarbiyaviy vositalar yig'indisi; u pedagogik jarayonning tashkiliy – uslubiy vositalari majmuidir.

Pedagogik texnologiya – bu o'z oldiga ta'lim shakllarini optimal-lashtirish vazifasini o'quvchi, butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini texnik resurslar va odamlarning o'zaro munosabatlarini hisobga olgan holda yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli metodidir.



Pedagogik texnologiya – ma'lumotlarni o'zlashtirish uchun qulay shakl va usulda uzatish hamda o'zlashtirish jarayonidan iborat.

Demak, *pedagogik texnologiya* insonga (ta'lim-tarbiya oluvchiga) oldindan belgilangan maqsad bo'yicha ta'sir o'tkazish faoliyatidan iborat.

Pedagogik texnologiya o'quvchini mustaqil o'qishga, bilim olishga, fikrlashga o'rgatishni kafolatlaydigan jarayondir.

Pedagogik texnologiya jarayonida o'qituvchi rahbarligida o'quvchi mustaqil ravishda bilim oladi, o'rganadi va o'zlashtiradi.

2. Pedagogik texnologiya tushunchasi.

Pedagogik texnologiya hozirda barcha pedagogik kasblar hamda ta'lim – tarbiya jarayonini tashkil qilish, boshqarish, nazorat qilish bilan bog'liq kasblarning asosini tashkil qiladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan barcha pedagoglar xabardor bo'lishlari zarur.

Texnologiya tushunchasi yunoncha (“texno”- “mahorat, “san’at”- logos– ta’limot” degan ma’noni anglatadi). (O‘zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi til va adabiyot instituti, T. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2008 yil)

“*Ta’lim - tarbiya* mazmuni, maqsad va vazifalari davrlar o’tishi bilan kengayib borishi natijasida uning shakl va usullari ham takomillashib bormoqda. Hozirda inson faoliyatining asosiy yo‘nalishlari shu faoliyatdan ko‘zda tutilgan maqsadlarni to‘liq amalga oshirish imkoniyatini beruvchi yaxlit tizimga, ya’ni texnologiyalarga aylanib bormoqda. Xuddi shu kabi ta’lim – tarbiya sohasida ham so‘ngi yillarda pedagogik texnologiya amal qila boshladi.

Pedagogik jarayonning mohiyati kam o‘rganilgan soha hisoblanadi. Pedagogik adabiyotda “ta’lim” va tarbiyaning turli tomonlariga ko‘proq e’tibor qaratilgan. Pedagogik jarayon yaxlit holda, to‘liq va asosli tadqiq etilmagan.

Pedagogik jarayon o‘quv muassasasining barcha sohasi - (tashkiliy, huquqiy, iqtisodiy, psixologik, pedagogik) bir butunlikda, o‘zaro uzviy bog‘liqlikda qamrab oladi. Pedagogik jarayonda butun jamoa yakdillik bilan ishlashi, o‘zaro hamkorlik yuksak darajada bo‘lishi muvaffaqiyatini ta’minlaydi.

Pedagogik jarayonda o‘qituvchi alohida o‘rin tutadi. O‘qituvchi o‘z sohasini puxta va asosli biladigan, ilm-fanga qiziqadigan, jamiyatda sodir bo‘layotgan ijtimoiy, iqtisodiy o‘zgarishlar mohiyatini tushunadigan, pedagogika, psixologiya, metodika, pedagogik texnologiya fanlarini o‘zlashtirgan va pedagoglik kasbini hurmat qiladigan shaxs bo‘lishi kerak.

Bunday talabga o‘quv yurtidagi barcha o‘qituvchilar to‘la javob beradigan bo‘lishi kerak.



Pedagogik bilim o'qituvchining talaba bilan ishlashni engillashtiradi va ta'lim-tarbiya ishlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Har bir pedagog psixika va ong haqida, shaxs, faoliyat, shaxslararo munosabat, komil inson, shaxsning shakllanishi, ehtiyoji, shaxs shakllanishida ta'lim va tarbiyaning roli, ta'limda o'quvchilarni faollashtirish, ta'lim samaradorligini oshirish, bilimga qiziqishni shakllantirish kabi bilimlarni puxta o'zlashtirishi zarur. Pedagogik amaliyot jarayonida mahorat shakllanib boradi.

Pedagogik mahorat kasbiy faoliyatni yuqori darajada bajarish imkoniyatini beradigan shahsiy sifatlar kompleksidir.

Bunday shahsiy sifatlarga quyidagilar kiradi:

- o'qituvchi shaxsini yo'nalishi;
- o'qituvchining kasbiy bilimlari;
- o'qituvchining pedagogik qobiliyati;
- o'qituvchining pedagogik texnikasi.

Pedagogik mahoratning shakllanishi o'qituvchi shaxsining yo'nalishi-o'quvchiga munosabat, ta'lim jarayoniga, ta'limning mazmuni va mohiyatiga munosabat, ta'lim va tarbiyaning jamiyat hayotidagi o'rini tushunish, ta'lim va tarbiyada mavjud imkoniyatlardan foydalanish muhim rol o'ynaydi.

O'qituvchi avvalo o'z kasbini sevishi o'quvchilar imkoniyatiga ishonishi, o'quvchilarni bilim olish, shaxs sifatida mukammalashga chin dildan harakat etadigan shaxs bo'lishi kerak.

Keyingi paytlarda o'qituvchi shaxsiga yuqori baho berilmoqdi. O'qituvchi shaxsi o'quvchiga ta'sir etadigan asosiy omil ekanligini ko'rsatib, tarbiyaning o'zi tarbiyalangan shaxs bo'lishi kerakligini ko'rsatdi. O'qituvchi milliy istiqlol g'oyasiga sodiq bo'lishi ta'lim va tarbiyani mukammal tashkil etishi, yoshlarni bozor iqtisodiyoti amalga oshirilayotgan sharoitda yashash va faoliyat ko'rsatishga o'rgatish talab etiladi.

O'qituvchi o'zi ta'lim berayotgan fanini chuqur va mukammal bilishi va o'quvchilar bilan muloqotda bo'lish ehtiyojiga ega bo'lishi kerak.

Har bir o'qituvchi o'zi o'qitayotgan fanning o'tmish tarixini hozirgi ahvolini va kelajagini mukammal bilishi kerak. Keng va asosli bilimga ega bo'lgan pedagog har bir darsini erkin o'tadi va qiynalmaydi. O'quvchilarning har bir savoliga javob bera oladi. Dars jarayonida kelib chiqqan muammoni o'quvchilar bilan erkin muhokama etadi, unga o'zining to'g'ri va aniq munosabatini bildiradi. O'z fanini mukammal bilgan o'qituvchi mukammal savollardan o'zini chetga olmaydi.

O'qituvchi butun faoliyati davomida o'z ustida ishlashni bilimini kengaytirishi talab etiladi. Pedagogning g'oyaviy-siyosiy bilimi, nazariy, pedagogik-psixologik, uslubiy va texnologik bilimi mukammal bo'lishi kerak.



Talaba kasbiy bilimlarni chuqur egallash bilan birga amaliy pedagogik faoliyati ham kengaytirishi kerak.

Pedagogik qobiliyat faoliyat davomida shakllanib, mukammalashib boradi.

Pedagogik qobiliyat o'qituvchining o'z faoliyatiga qanchalik yaroqlik ekanligini ko'rsatuvchi sifatlardir. Turli tadqiqotchilar pedagogik qobiliyat haqida o'z ijobiy fikrlarini bildirishgan.

Pedagogik texnika o'qituvchining o'zini boshqarishda va pedagogik muammolarni echishda tarbiyalanuvchilarga ta'sir etishda ifodalanadi. O'qituvchi o'zining hissiy (emotsional) holatini nutqini va o'z ko'rinishini (tanasini) boshqarishi, eng muhimi aloqaga kirisha olish texnikasidir.

Pedagogik texnika vaziyatni tushunish, uni hisobga olib maqsadni amalga oshirishni talab etadi. O'qituvchi butun faoliyati davomida pedagogik texnikani amalga oshirishiga to'g'ri keladi. Darsga yaxshi tayyorlanib kelgan o'qituvchi auditoriyada turli vaziyatlarga duch kelishi mumkin. Shu vaziyatda chiqishda pedagogik texnika namoyon bo'ladi.

Ko'rinib turibdiki, pedagogik mahorat ko'p qirrali murakkab jarayon hisoblanadi. Uni o'rganishga ko'p kuch sarflash, chidam bilan tayyorlanish zarur.

Turli usul va vositalardan foydalanib, uni o'quvchilarga etkazishga harakat qiladi. Ayrim o'quvchilardan bilim qanday o'zlashtirilganligi so'ralishi ham mumkin. Lekin o'qituvchi har bir darsdan so'ng natijani to'liq va aniq belgilashga intilmaydi. Bunday holatda samarali natijaga erishish qiyin bo'ladi. Talaba berilgan bilimni o'zlashtirgan deb hisoblanadi. Hozirgi kunda ta'lim jarayonini rejalashtirish, o'quvchilarga etkazish va natijasini aniqlashda talabaning faolligini ta'minlash, talaba bilan hamkorlikda ishlash va bilimlarning o'zlashtirilishiga to'liq erishish talabi ilgari surilmoqda.

Shuningdek ta'lim jarayonida talabani (o'quvchilarni) faol-lashtiradigan interaktiv metodlardan foydalanish, ta'lim jarayonida talaba (o'quvchi) bilan hamkorlikda ishlash, ta'lim jarayonida ma'lum bilimlar hajmini talabaga (o'quvchiga) bilan cheklanmay, talabani mustaqil bilim olishga da'vat etish g'oyasini ilgari surmoqda.

“Musiqqa madaniyati” darslarini o'tkazishda yangicha yondoshish, har bir mashg'ulotda o'quvchilarning izlanuvchanligini rag'batlantirish, mustaqil va erkin fikrlashga imkoniyat yaratish, ta'lim jarayonida munozara, tortishuv kabi fikrlarning turli-tumanligini qo'llab quvvatlash g'oyasi ilgari surilmoqda. Ta'lim shunday tashkil etilsa, talaba bilmaganini faqat eslab qolishga intilmay, fikrlashga ham o'rganadi.

3. O'quv ish jarayoni faoliyatini loyihalash.

Dars mashg'ulotlarini yuqori saviyada tashkil etish va uning samaradorligini oshirish maqsadida o'qituvchi dars uchun berilgan vaqtdan unumli foydalanish



uchun turli texnologiyalar, usul va metodlardan foydalanib dars o'tish, o'qituvchining bu tajribalarni puxta o'zlashtirishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ham o'qituvchi umuman musiqiy fanlarni o'qitishda zamonaviy yondashuvlar qilish va turli fanning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, innovatsiyalarni qo'llagan holda, o'qitish jarayonini tashkil etish talab etiladi. Innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llash uchun biz o'quv ish jarayoni faoliyatimizni loyihalashimiz lozim.

Loyihalash - bu oldindagi faoliyat modelini tuzish, mavjud sharoitlarda o'rnatilgan vaqt mobaynida yo'l va vositalarni tanlash uchun, maqsadga erishish bosqichlarini ajratish, ular uchun alohida vazifalarni shakllantirish, o'quv axboroti va qaytar aloqani etkazish vositasi, hamda yo'llarini aniqlashdir.

Rejalashtirish - oldindagi o'zaro bog'liq pedagogik va o'quv faoliyatining rejasini ishlab chiqishdan iborat bo'ladi. U texnologik xarita ko'rinishida rasmiylashtiriladi.

Maqsadni belgilash – texnologiyalashtirishning asosiy omili hisoblanib, pedagogik texnologiyani loyihalashtirish, o'quv jarayonini tuzish, hamda tashkillashtirish shundan boshlanadi.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon, hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar bu – “jamoaga bo'lib fikrlash” ma'nosini anglatadi. Uning o'ziga xosligi shundaki, o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- o'quvchining dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi;

- o'quvchilarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlashi;

- o'quvchining bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondoshgan holda kuchaytirishi;

- o'qituvchi va o'quvchining hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillashtirishi va ta'minlashi.

O'qituvchi va o'quvchining maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi - aniq natijaga erishishga qaratilgan, bunda o'qituvchi - o'quvchilarning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiyaning uslublari tanlanadi. Masalan, natijaga erishish uchun balkim film, tarqatma material, chizma plakatlar, turli adabiyotlar, axborot texnologiyalari kerak bo'ladi.



O'qituvchi tomonidan har bir darsni yaxlit holatda ko'ra bilish va uni tasavvur etish uchun bo'lajak dars jarayonini loyihalashtirib olishi lozim. Bunda o'qituvchi tomonidan bo'lajak darsni texnologik xaritasini tuzib olishi katta ahamiyatga egadir, chunki darsning texnologik xaritasi har bir mavzu, har bir dars uchun o'qitilayotgan predmet, fanning xususiyatidan va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi. Bunday texnologik xaritaning tuzish oson emas, chunki buning uchun o'qituvchi pedagogika, psixologiya, xususiy metodika va axborot texnologiyalari, interfaol uslublardan xabardor bo'lishi kerak bo'ladi. Har bir darsni rang-barang, qiziqarli bo'lishi, avvaldan puxta o'ylab tuzilgan darsning loyihalashtirilgan texnologik xaritasiga bog'liq.

Darsning texnologik xaritasini qay ko'rinishda yoki shaklda tuzish, bu o'qituvchining tajribasi, qo'ygan maqsadi, fantaziyasi va ixtiyoriga bog'liq. Texnologik harita qanday tuzilgan bo'lmasin, unda dars jarayoni yaxlit holda aks etgan bo'lishi, aniq belgilangan maqsad, vazifa va kafolatlangan natija, dars jarayonini tashkil etishning texnologiyasi to'liq o'z ifodasini topgan bo'lishi kerak. Texnologik xaritaning tuzilishi o'qituvchi tomonidan darsni kengaytirilgan konspektini yozishdan xalos etadi, chunki bunday haritada dars jarayonining barcha qirralari o'z aksini topadi.

O'qituvchi tomonidan o'zi o'qitayotgan fanning har bir mavzusi, har bir dars mashg'uloti bo'yicha tuzilgan yuqoridagi kabi, texnologik xarita unga fan, predmetni yaxlit holda, tasavvur etib yondoshishga, tushunishga (bir semestr, bir o'quv yili bo'yicha), yaxlit o'quv jarayonining boshlanishi, maqsadidan tortib, erishiladigan natijasini ko'ra olishiga yordam beradi.

O'quv mashg'ulotning texnologik xaritasi.

Texnologik xaritada ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyat (o'quv jarayon) i bosqichlarining ketma-ketligi va mazmuni, hamda ularda qo'llaniladigan vositalar tavsiflanadi. Texnologik xarita talabalarning mustaqil ishlashlarini nazorat qilishga yordam beradi.

Texnologik xaritaning tuzilishi va mazmuni.

1 - bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish.

Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar harakati.

- Ta'lim beruvchi mavzuning nomi, o'quv mashg'ulotining xususiyati bilan (ma'ruza, o'rgatuvchili o'yin va boshqalar.), mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarni; mustaqil ishlash uchun adabiyotlar ro'yxatini, o'quv mashg'ulotida o'quv ishlarni baholash mezonlari bilan tanishtiradi.

- Ta'lim oluvchilar tinglaydilar, aniqlashtiradilar, savollar beradilar, yozib oladilar.

2 - bosqich. Asosiy ma'lumot beruvchilik.

Talim beruvchi va ta'lim oluvchilar harakati.



- Ta'lim beruvchi o'quv mashg'ulotining rejasi tuzilishiga muvofiq tuzib chiqqan ta'lim modelini amalga oshiradi ko'zlanayotgan o'quv natijalariga erishish bo'yicha ta'lim oluvchilar o'quv faoliyatini boshqaradi.

- Ta'lim oluvchilar ko'zlanayotgan o'quv natijalariga erishish bo'yicha rejalashtirilgan o'quv harakatini bajaradilar.

3 - bosqich. Yakuniy – natija.

Talim beruvchi va ta'lim oluvchilar harakati.

- Ta'lim beruvchi mavzu bo'yicha yakun yasaydi, ta'lim oluvchilar e'tiborini asosiylarga qaratadi, bajarilgan ishlarni kelgusi kasbiy ish faoliyatidagi ahamiyatini ma'lum qiladi, guruhlar, alohida talabalar ishini baholaydi yoki o'zaro baholashning yakunini chiqaradi; o'quv mashg'uloti maqsadiga erishish darajasini baholaydi; mustaqil ish uchun topshiriq beradi.

- Ta'lim oluvchilar o'zaro baholashni o'tkazadilar, savol beradilar, topshiriqni yozadilar.

O'quv mashg'ulotni texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (daq)	1.1. Mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarni etkazadi. Mashg'ulot rejasi bilan tanishtiradi. 1.2. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarni mustaqil ishlash uchun adabiyotlar ro'yxatini aytadi. 1.3. O'quv mashg'ulotida o'quv ishlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi.	Tinglaydilar, yozib oladillar. Aniqlashtiradilar. Savollar beradilar.
2-bosqich Asosiy (daq.)	2.1. Tezkor - so'rov, savol – javob, aqliy hujum orqali bilimlarni faollashtiradi. 2.2. O'quv mashg'ulot mavzusining rejasi va tuzulishiga muvofiq ta'lim jarayonini tashkil etish bo'yicha harakatlar tartibini bayon etadi.	Javob beradilar. Yozadilar. Gruhlarda Ishlaydilar. Taqdimot qiladilar va boshq.
	3.1. Mavzu bo'yicha yakunlaydi, qilgan ishlarini kelgusida kasbiy faoliyatlarida ahamiyatga ega ekanligi muhimligiga o'quvchilar e'tiborini qaratadi.	O'z-o'zini, o'zaro baholashni o'tkazadilar. Savol beradilar.



	<p>3.2. Guruhlar ishini baholaydilar, o'quv mashg'ulotining maqsadga erishish darajasini tahlil qiladi.</p> <p>3.3. Mustaqil ish uchun topshiriq beradi va uning baholash mezonlarini etkazadi.</p>	Topshiriqni yozadilar.
--	---	------------------------

4. Pedagogik texnologiyalarning asosiy jarayonlari.

Pedagogik texnologiyalarning turlari ko'p bo'lib, yo'nalish va maqsadlarga asosiy e'tibor qaratilgani bilan farq qiladi.

Pedagogik texnologiya jarayonlarini o'rganishning soddalashtirilgan tartibini quyidagicha tushunish mumkin:

Tushuntirish – axborotning ma'no – mazmunini, undan foydalanish tartibini turli vosita va usullarni qo'llab, tushuntiruvchining o'zi tushungan darajada boshqalarga etkazish faoliyatidan iborat jarayon.

Tushunish - axborotning ma'no-mazmunini idrok qilish, undan ko'rsatilgan tartibda mustaqil foydalana olish.

O'rgatish - axborotdan foydalanish va turli harakatlarni bajarish ko'nikmalarini o'rgatuvchining o'zi o'rgangan darajada boshqalarning takrorlay olishini, turli vosita va usullarni qo'llab amalga oshirish faoliyatidan iborat jarayon.

O'rganish – axborotdan foydalanish va turli harakatlarni ko'rsatilgan tartibda mustaqil bajarish ko'nikmalarini egallash.

O'zlashtirish – tushunish, o'rganish orqali axborotning ma'no-mazmuni, undan foydalanish yoki harakatlarni bajarish tartibi to'g'risida bilim va ko'nikmalar hosil qilish.

O'zlashtirish shartli ravishda quyidagi uchta darajaga ajratiladi.

- 1) O'rgatilgan bilim, ko'nikmalarni to'g'ri takrorlash;
- 2) Ularni amalda, faoliyatda qo'llash, ulardan tegishli maqsadlarda foydalanish imkoniyatiga ega bo'lish;
- 3) Ularni ijodiy tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish, xulosalar chiqarish asosida takomillashtirish faoliyatini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lish

?	NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:
---	---

1. Ta'limni texnologiyalashtirish g'oyasi qachon va kim tomondan joriy etilgan?
2. Didaktik mashinaga nima muhimligi yozilgan?
3. Hozirgi vaqtda pedagogik texnologiya nima uchun qo'llaniladi?



4. Qanday jarayon “**Ta’limda texnologiyalar**” deb nomlandi?
5. 1958 yil – N.Krauder tomonidan qanday sxema taklif etildi?
6. Siz qanday pedagogik texnologiya ta’riflarini bilasiz?

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. G. K. Selevko. Sovremennye obrazovatelnye texnologii. M. 1998
2. Mallaev O. Yangi pedagogik texnologiyalar. T. 2000
3. O‘.Tolipov, M.Usmonboeva. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. T. 2005.
4. O‘zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». - T.:O‘zbekiston, 1997.
5. Azizxodjayeva N.N. Педагогические технологии и педагогическое мастерство. T.: TGPU im. Nizami, 2003.

2-mavzu: Musiqiy fanlarni o‘qitishning mohiyati, mazmuni, maqsadi va vazifalari.

Reja:

1. Musiqiy fanlarni o‘qitishning mohiyati, mazmuni, maqsadi va vazifalari va o‘quv-tarbiyaviy jarayonning tuzilishini umumlashtirish
2. O‘qitish faoliyatidagi metodlar.

Tayanch tushunchalar: usul, uslub, vositalar, metodika, metod, pedagogik faoliyat, shakl va yo‘llar, hikoya yoki suhbat yo‘li, ko‘rgazmalilik

1. Musiqiy fanlarni o‘qitishning mohiyati, mazmuni, maqsadi, vazifalari.

Hozirgi davrda musiqqa fanlarini o‘qitish juda dolzarb bo‘lib muhim ijtimoiy, tarbiyaviy va kasbiy ahamiyatga egadir. Musiqiy ta’lim yo‘nalishi talabalarini musiqqa madaniyati o‘qituvchisi amaliy faoliyatiga tayyorlaydi. Metodika ta’lim – tarbiya jarayonida o‘qituvchining o‘quvchilar bilan ishlash usullarining mazmunini anglatadi. Musiqqa o‘qitish metodikasi o‘qituvchisidan istedad, qobiliyatlar va ishtiyoqlar mavjud bo‘lishini talab etadi.

Musiqqa fanlari fantaziyani o‘stiradi, mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi. Musiqqa yana shuningdek inson shaxsining kamol topishida ham muhim rol o‘ynaydi.

Musiqiy fanlarni o‘qitishning mohiyati, musika kursi tinlov-chilarini musiqaviy amaliy faoliyatini yanada faollashtirishdan iboratir.

Bu maksad kuyidagi vazifalarni xal etishni ko‘zda tutadi:

-maktabda musika ta’limi va tarbiyasi mazmuni, tashkil kilinishi, turli shakllar va metodlari xakida asosiy ma’lumotlar berish.



-Maktabda musika ta'limi va tarbiyasi sohasidagi ilg'or tajribalarni umumlashtirish.

-Maktabda va sinfdan tashkari pedagogik amaliyot buyicha metodik adabiyotlarni o'rganishga tayyorlash.

-Musikiy asarlarning badiiy- pedagogik taxlili metodikasi asoslarini berish.

-Ilmiy tadqiqotchilik ishlari boshlang'ich malakalarini xamda bolalarni musiqqa san'ati vositasida o'qitish va tarbiyalash masalalariga to'g'ri yondashuvni shakllantirish.

Musikiy fanlarni ukitishda, o'rganishda pedagogika, psixologiya, musika o'quv rejasida ko'zda tutilgan boshqa fanlardan olingan bilimlar tarixiy – nazariy fanlar mazmunini o'zlashtirish o'qituvchilarga musikiy san'at xususiyatlarini bolalarga samarali etkazish yullarini topishga, ularga xayotning musikiy obrazlarda aks etishini, ifoda vositalarini tushuntira olishda yordam beradi.

Musiqqa o'qitish, asosiy yo'nalishlar uslub va janrlarning rivojlanishi, yirik kompozitorlarning o'ziga xos ijod yo'li xakidagi bilimlar maktab o'quvchilarning musiqiy didini tarbiyalash, ularning dunyokaroashini shakllantirishga yordam beradi.

Musiqqa fanlari kuylash, dirijyorlik, musika cholg'usi, maktab repertuari kabi fanlar orqali fakatgina ijrochi – musikachini tayyorlabgina kolmay, balki o'zbek xalq cholg'ulari, kuy va qo'shiqlari, jaxon musiqqa madaniyati durdonalari xaqida ma'lumot beradi. O'zbekistonimizga bag'ishlab yaratilgan yangi asarlar orqali yoshlarimizni milliy g'oya va milliy istiqlol ruhida tarbiyalashimizga xizmat qiladi. Vatan tuyg'usi qalbimizga singdirilib musiqqa xaqidagi bilimlarimizni olishga xizmat qiladi va pedagogik texnologik interfaol uslublar orqali, mohir pedagogni tarbiyalashga ko'maklashadi.

Psixologiya, pedagogika fanlari xozirgi paytda jamiyat oldida turgan vazifalar, umumta'lim maktablarni va o'qituvchilar oldiga quyilayotgan talablar, o'quv – tarbiyaviy jarayon **konuniyatlari va shakllari**, o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari, maktabda musikiy **tarbiyaning maksad va vazifalari**, uning tuzilishini aniklashga yordam beradi. Musika o'qitish metodikasi musika o'qituvchisining kasbiy musikiy pedagogik tayyorligini yakunlaydi.

Musiqqa fanlarining asosiy mazmunini tinglovchilar ma'ruzalar kursida o'zlashtiradi, muammoli, noan'anoviy darslarni tinglovchilarning ongi, ijodiy faolligini, diqqat va kizikishni rag'batlantiruvchi yangi shakllarni ko'llash tavsiya etiladi.

Ushbu sohada ham katta o'zgarishlar ro'y bermoqda. «Ta'lim to'g'risidagi» qonun qayta ishlanib takomillashtirildi. Respublikamizda ta'limni zamon talabiga ko'tarish ma'naviy boy, ahloqiy pok va jismonan baquvvat bo'lgan yoshlarni tarbiyalash amalga oshirila boshlandi va bu sohadagi amalga oshirilayotgan



islohotlar natijasida talaba - o'quvchilarning ta'lim va tarbiya olishlariga keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Ta'lim mazmuni fan va ishlab chiqarish talablariga mos kelishi zarurligini taqozo qiladi. Keyingi yillarda ta'lim va barcha sohalarni yuqori darajaga ko'tarish borasida ko'pgina qaror va farmoyishlar chiqarilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollari bag'ishlangan majlisidagi "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shahsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak", "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni, "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi kabi me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Unda ta'lim mazmunini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish, bir qancha fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish, fan va ishlab chiqarish talablariga mos kelishi jamiyat madaniy hayotining barqarorlashuvini ta'minlaydi, uning sara kadrlarga bo'lgan ehtiyojini qondiradi. Bularning barchasi pirovard natijada, jamiyatning asosiy muammolarini echishga ko'maklashadi. Davlat ta'lim standarti, o'quv dasturi, yangi avlod darsliklarini yaratilishi, hamda madaniy rivojlanishini yuqori bosqichlarga ko'tarish, jahon hamjamiyati safidan munosib o'rin egallashga yo'naltirilgan ezgu maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Oliy ta'lim muassasalarida musiqiy fanlarni o'qitishda qo'llaniladigan shakl, metod va vositalar.

O'quv-tarbiyaviy jarayonning tuzilishini umumlashtirish. Musiqa o'qitish metodikasi - bu pedagogikaning bir qismi hisoblanib, pedagogika fani sifatida tajribada sinalgan ishlarni nazariy qismlarini *-usul, uslub, vositalarini* umumlashtirib, amaliyotda samarali natijalar bergan o'qitish metodlarini taqdim etadi. Ushbu metodlar O'quv-tarbiyaviy jarayonning tuzilishini umumlashtirib, unga kiruvchi alohida va bir butun vazifalarni hal etish bilan shug'ullanadi.

Musiqa o'qitish metodlari - **maktab bolalarining bilim, mahorat va malakalarini egallashda, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda va dunyoqarashini tarkib toptirishda musiqa rahbarilarning qo'llagan ish usullari tushuniladi.**

Vosita-biror maqsadga erishish yoki biror ishni amalga oshirish uchun dastak bo'lib xizmat qiladigan va foydalaniladigan narsa. Axborot vositalari. Texnika vositalari. (O'zbek tilining izohli lug'ati. T.O'z. ilmiy ensiklopediyasi.2006)



"Metod" - yunon tilidan olingan bo'lib, "yo'l", "usul" degan ma'nolarni anglatadi. «Metodika» - so'zi grekcha so'z bo'lib, «tadqiqot yo'li», «bilish usuli» degan ma'noni anglatadi va ta'lim-tarbiyaning alohida qismlari bo'lib hisoblanadi ularning yig'indisi musiqqa o'qitish metodlari deyiladi

Shakl - ko'rinish rasm. Narsaning tashqi ko'rinishi. Sirtqi qiyofasi. ifodasi.

Metodika asosan, pedagogika, psixologiya, estetika va san'atshunoslikning tadqiqot natijalariga asoslanadi. U musiqqa o'qitishning qonun-qoidalarini ta'riflab beradi, kelajak yosh avlodni tarbiyalashda qo'llanadigan zamonaviy metodlarni belgilaydi. Metodika, ta'lim-tarbiya jarayonida musiqqa o'qituvchisini o'quvchilar bilan ishlash usullarining, mazmunini anglatadi. Musiqqa o'qitish metodikasi musiqqa o'qituvchisidan iste'dod, qobiliyatlar va ishtiyoqlar mavjud bo'lishini talab etadi, chunki, san'at pedagogikasi mashaqqatli va juda mas'uliyatli sohadir. Musiqqani o'qitish metodikasi, yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, musiqqa darslarining tashkil etish usullari va yo'llarini o'rgatadi.

Hozirgi kunda musiqqa o'qitish metodikasi birdaniga kelib shakllangan fan emas, balki bunga qadar mazkur fanni shakllanishi ijodiy va murakkab taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Respublikamizda musiqqa o'qitish metodikasini shakllantirishda mahalliy olimlar, metodistlar, tajribali musiqqa o'qituvchilarilarining qator izlanishlari, o'quv qo'llanmalarining ahamiyati katta bo'ladi. Pedagogikaning metodika sohasidagi so'nggi yutuqlari *talabalarni pedagogika faoliyatiga tayyorlash*, ularni metodik bilim va mahoratlar bilan qurollantirish, musiqqa o'qitish metodikasini bu maqsadga erishish uchun amaliy mashg'ulotlar mobaynida uzoq mehnat qilishni talab etadi.

Demak, musiqqa o'qitish metodikasi talabalarning musiqqa san'atiga o'rgatishning mazmuni, vazifalari, metodlarini o'rgatuvchi va o'quv jarayonlarini tashkil etuvchi shakl va yo'llarini tadbiiq etuvchi fandır. Musiqqa o'qitish metodikasi vazifalarini amalga oshirishda, musiqqa o'qitishning qator metodlari bilan birgalikda, pedagogikaning amaliy yo'nalishini unumli metodlar egallab, musiqqa mashg'ulotlarida qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

2. O'qitish faoliyatidagi metodlar.

Musiqqa o'qitish metodikasi vazifalarini amalga oshirishda, musiqqa mashg'ulotlarida o'qitishning unumli metodlaridan unumli foydalanishga bog'liq. Yetuk olimlarimizning tadqiqotlarida maktab musiqqa o'qituvchisining shaxsiyati va unga bo'lgan kasbiy talablar va o'quvchilar munosabatini, xususiy metodlardan



foydalanish jarayonida hal qilish lozimligini ilmiy asosda ta'riflab berganlar. Umumli metod - biror bir fanning amaliy va ijodiy ishlari mazmunini va mavzusini keng yoritib berish va mustahkamlashda, musiqa o'qituvchisi va o'quvchi faoliyatida o'zaro aloqadorligini va o'quvchilarni bilish jarayonida izlanishga undovchi metoddir. Umumli metodlar o'qitish faoliyati va maqsadiga qarab to'rtga bo'linadi:

1. Darslarning musiqiy umumlashtiruvchi metodi.
2. O'tilgan darslarni mustaxkamlash, yangi mavzuga bog'lab o'tish va ilgari o'tilganlarga qaytish metodi.
3. Darslar mazmunining emotsional dramaturgiyasi metodi.
4. Darslarning pedagogik jihatdan kuzatilishi va bilimlarning baholanishi metodi.

Endi har bir metodni alohida ko'rib chiqamiz.

1. Darslarni musiqiy umumlashtiruvchi metodi etakchi metodlardan biri bo'lib, bolalarni musiqa idroki, mantiqiy badiiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgandir:

a) Musiqa o'qituvchisi darslarda hal qilinishi lozim bo'lgan konkret vazifalarni vujudga keltiradi;

b) Musiqa o'qituvchisi va o'quvchi o'zaro hamkorlikda masalani echadi;

v) o'quvchilar tomonidan yakuniy xulosalar chiqariladi.

2. O'tilgan darslarni mustaxkamlash, yangi mavzuga bog'lab o'tish va ilgari o'tilganlarga qaytish metodi: ya'ni ilgari o'tilgan materialdan foydalanib, o'quvchilarni yangi material o'zlashtirishga tayyorligini sinab ko'rish va bunda oldin egallagan bilimlarga suyanish uchun foydalaniladi.

3. Emotsional dramaturgiya metodi bilan mashg'ulotlarning mantiqiy yaxlitligiga erishiladi.

Bunda chorak mavzusi asosida mashg'ulotlar rejasi uchun asarlar tanlanadi. Tanlangan mavzular ham maqsadga muvofiq bo'lib, boshlanishi va yakunlanishiga bog'liqdir. Musiqa o'qituvchisi darslarni ijrochilik mahorati, so'z ustaligi bilan qiziqarli qilib o'tishi kerak va bolalarni mashg'ulotlarga faol qiziqtirib, mashg'ulotlarning emotsional dramaturgiyasi, ya'ni avjiga erishishi lozim.

Musiqa madaniyati o'qituvchisi maktabda musiqa darslaridan tashqari konsertlar, badiiy kechalar, uchrashuvlar o'tkazishi talab etiladi.

Darslarni pedagogik kuzatilishi va bilimlarni baholash maqsadga qarab bir necha turlarga bo'linadi:

a) O'quvchilarni bilish faoliyatini tashkil etuvchi va amalga oshiruvchi turi.

b) Bilim faoliyatini rag'batlantirish va tanbehlash talablarini qo'yish.

v) O'qish, bilish faoliyatini samaradorligini boshqarish va nazorat qilish.

Baholashda shunday ehtiyotkor bo'lish kerakki, o'quvchilarning kayfiyati tushib



ketmasin, mashg'ulotlarga, qo'shiq kuylashga qiziqishi so'nmasin. Rag'batlantirishda esa aksincha. Musiqqa o'qituvchisi va o'quvchi munosabatlari me'yordan chiqib ketmasligi kerak. Balki, rag'batlantirish, guruhda boshqa o'quvchilarga namuna bo'lib xizmat qilsin va ular odobli, aqilli bo'lishga intilsinlar.

Shunday qilib, musiqqa o'qitishning xususiy metodlaridan tashqari boshqa turlari ham mavjud:

1. Musiqqa o'qitishning og'zaki metodlari.

2. Ko'rgazmali o'qitish metodlari.

3. Amaliy o'qitish metodlari.

4. O'yin metodlari.

5. Taqqoslash metodlari.

6. Musiqiy o'quvi, musiqiy eshitish qobiliyati bo'sh bo'lgan bolalar bilan ishlash metodlari.

1. Musiqqa o'qitishning og'zaki metodlari.

Musiqqa darslarida musiqqa o'qituvchisining so'z mahoratiga alohida talab qo'yiladi. Musiqqa o'qituvchisi o'zining asar haqidagi badiiy kirish so'zi bilan o'quvchilarni ajoyib va sehrli musiqqa olamiga olib kiradi hamda qiziqarli *hikoya yoki suhbat yo'li* bilan o'quvchilar diqqatini jalb qilib, musiqani badiiy idrok etishlariga erishadi.

Hikoya - bu musiqqa o'qituvchisining musiqqa asari haqida jonli, emotsional yorqin bayoni. Hikoya qisqa, obrazli, **jonli, qiziqarli bo'lib, uning maqsadi o'quvchilarni asarni badiiy idrok etishga o'rgatish.**

Suhbat - musiqqa o'qituvchilari va o'quvchilar orasidagi dialog shaklidagi faoliyatidan iborat bo'lib, bolalarni mustaqil fikr-lashga undaydi. Ularning nutqini o'stiradi, fikriy faoliyatini kuchaytiradi, bilish qobiliyatini faollashtiradi **hamda dunyoqara-shini kengaytiradi.**

Tushuntirish-ilmiy isbotlash metodi sifatida musiqqa mashg'ulotlarida qo'llaniladi. Bu asosan, musiqqa savodi faoliyatida qo'llaniladi.

2. Ko'rgazmali o'qitish metodlari.

Ma'lumki, musiqqa harakatlanuvchi kuy va garmonik tovushlaridan iborat bo'lgan san'atdir. Uni faqat eshitish organi orqali tinglab idrok etish mumkin. Ko'rgazmali o'qitishni esa, nota yozuvlarini, plakatlar, rasmlar, musiqqa rahbarining so'zi, dirijyorlik ifodalari, raqs harakatlari, bolalar cholg'u asboblari,



musiqani jonli va aniq ijrosi, texnik vositalaridan foydalaniladi. Demak, musiqaning jonli yangrashini mashg'ulotlarda asosiy ko'rgazma bo'lib xizmat qiladi. Musiqqa ta'limidagi *ko'rgazmalilik* turlari:

1. Tabiiy ko'rgazmalar (tabiatdan olingan).
2. Grafik ko'rgazmali qo'llanmalar (chizma, sxema, jadvallar).
3. Tasviriy ko'rgazmalar (suratlar, fotosurat, videofilmlar).
4. Muayyan belgilarni ifodalaydigan ramziy ko'rgazmalar.
5. Eshittirishga doir ko'rgazmalar (kompyuterning eshittirish moslamalari SD, VSD, DVD disklar va h.).

Musiqqa ta'limida illyustrasiya metodi asosan plakatlar, cholg'u asboblari, stend, chizmalar, kompozitorlarning suratlari, jadvallar kabilarni ko'rsatishni o'z ichiga olsa; namoyish etish metodlariga asl holiday tabiiy ob'ektlarni ko'rsatish, mashg'ulotlar jarayonida esa texnik namoyish, ya'ni zamonaviy kompyuter, axborot kommunikasiya tarmoqlari yordamida, kompakt disk elektron kitoblaridagi mavzularni ekranda yoritish, mavzuga oid kino va diafilmlar, audio va videomateriallar kiradi.

3. Amaliy o'qitish metodlari. Amaliy metodlar vositasida o'quvchilar vokal-xor malakalarini, musiqaning tuzilishi hamda ifoda vositalarini tahlil etish, uning janr va shakllarini aniqlash va nota yozuvini o'rganish malaka-ko'nikmalarining **shakllantirishi** uchun foydalaniladi. Amaliy metodlar, vokal-xor malakalarini rivojlantirishda muhim vosita bo'lib hisoblanadi.

4. O'yin metodi - asosan boshlang'ich guruhlarda ko'proq yaxshi natija beradi. Yangi dastur asosida yaratilayotgan qo'llanma va darsliklarda o'yin va uning elementlari keng joriy etiladi. Boshlang'ich guruh bolalari serharakat va o'yinga moyil bo'ladilar. Darslarda qo'llaniladigan musiqali o'yinlar o'quvchilarning musiqiy o'quvini o'stiradi, musiqiy qobiliyatini rivojlantiradi, xotirasini mustahkamlaydi va musiqqa mashg'ulotlariga qiziqish o'yg'otadi.

5. Taqqoslash metodi. Musiqqa mashg'ulotlari jarayonida taqqoslash metodi keng qo'llaniladi. U vokal-xor ishlarida musiqqa rahbari, bolalar va audioyozuvdagi ijrolarini taqqoslashda musiqqa asarining tahlili va janrlarini belgilashda keng qo'llaniladi. Masalan, raqs, marsh, janrlari-ning templarini, turli cholg'ulardagi ijrolar farqini aniqlashda foydalaniladi.

6. Musiqqa o'quvi, musiqiy eshitish qobiliyati bo'sh bo'lgan bolalar bilan ishlash metodi. Musiqqa o'quvi bo'sh bo'lgan o'quvchilar bilan mashg'ulotlar jarayonida differensial guruhlariga bo'lib va mashg'ulotlardan keyin vaqt ajratib, yakka (individual) tarzda ish olib boriladi. Differensial guruh -deganda bolalarning musiqiy qobiliyati, o'quvi va ovozigacha qarab tabaqalashtirish yoki guruhlariga bo'lish tushuniladi.



1-guruhga ovozi jarangli, yaxshi musiqiy qobiliyatga ega bo'lgan bolalar kiradi.

2-guruhga ovozi, musiqiy qobiliyati o'rtacha bo'lgan, ya'ni musiqqa rahbarining ovoziga ergashib, tayanib kuylaydigan bolalar kiradi.

3-guruhga esa ovozi uncha yaxshi bo'lmagan, musiqiy qobiliyati bo'sh bo'lgan bolalar kiradi

Musiqqa mashg'ulotlari jarayonida bu bolalarni quyidagi tartibda o'tkazish kerak: birinchi qatorga musiqqa o'qituvchisining ovoziga tayanib kuylaydiganlar, ikkinchi qatorga musiqiy o'quvi bo'sh, yaxshi musiqiy qobiliyatga ega bo'lmagan o'quvchilar, uchinchi qatorga qobiliyatli, ovozi jarangdor bo'lgan o'quvchilar o'tiradilar. Bunda ikkinchi qatordagi o'quvchilar musiqqa ohanglarini atrofdagilardan eshitib ularning ovozlari ergashib, chiroyli, to'g'ri kuylashga harakat qiladilar.

Shu uslub bilan o'quvchilarni musiqiy o'quvini o'stirish mumkin. Ba'zi musiqiy o'quvi bo'sh bo'lgan bolalar bilan, mashg'ulotlardan keyin alohida, yakka tartibda shug'ullanib, topshiriqlar beriladi va ovozlari sozlanib, qo'shiqlar alohida o'rgatiladi. Shu tariqa, o'quvchilarda musiqqa qiziqish, qo'shiq kuylash, musiqqa tinglash ishtiyoqi, musiqiy qobiliyat, musiqiy o'quv, qo'shiq kuylash malakalari hosil bo'ladi.

7. Musiqqa bilan ta'sir ko'rsatish metodi. Bu metod musiqqa tinglash faoliyatida qo'llaniladi. Bolalar musiqani turlicha tushunadilar. Masalan, P.I.Chaykovskiyning "Turg'ay" ko'yini tinglab, uni nomini bilmay turib, turlicha fikr yuritadilar. Ayrimlari tabiat manzarasiga, boshqalari qushni kuylashini, qolganlari esa boshqacha karakter his etib aytadilar. Yana boshqalarida esa yaxshi kayfiyat tug'iladi. Shuning uchun musiqqa o'qituvchisi o'quvchilarga asarni tushuntirib beradi. O'quvchilar diqqatini musiqaning *ifoda vositalariga* qaratadi.

Ular kuylovchi qush obrazini yaratadilar. Bu musiqqa bilan ta'sir qilish metodidir. Bolalarning musiqqa qiziqish, musiqqa tinglashda taqqoslashga o'rganish, kuylashda, raqsda, turli cholg'ular ijrosida o'rgatiladi. Musiqqa o'qituvchisi ushbu faoliyatlarni ketma-ket olib borganda aniq maqsadga erishiladi.

Musiqqa o'qitish metodikasi fanining maqsadi ta'lim maqsadidan kelib chiqib, musiqqa madaniyati o'qituvchisini dars (mashg'ulot) berish jarayoniga nazariy va amaliy tayyorlash. Bu maqsad quyidagi vazifalarni hal etishni ko'zda tutadi.



1. Maktabda musiqqa ta'limini va tarbiyasini mazmunini tashkil qilishning turli *shakl va metodlari* haqida asosiy ma'lumotlar berish.
2. Musiqqa ta'limi va tarbiyasi sohasidagi ilg'or tajribalarni umumlashtirish.
3. Musiqqa ta'limi va tarbiyasi jarayonida pedagogik amaliyot bo'yicha metodik adabiyotlarni mustaqil o'rganishga tayyorlash.
4. Musiqqa asoslarining badiiy pedagogik tahlili metodikasi asosini bilish.
5. Ilmiy tadqiqot ishlari masalalarini hamda o'quvchilarni musiqqa vositasida o'qitish va tarbiyalash masalalariga to'g'ri yondashuvni shakllantirish.

Musiqqa o'qitish metodikasi musiqqa o'qituvchisining musiqqa ta'limi kasbini mukammal bilguvchi musiqachi pedagogni tayyorlaydi. Musiqqa o'qitish metodikasini o'zlashtirishda pedagogika, psixologiya, musiqiy pedagogika tarixi, musiqiy ta'limda innovatsion texnologiyalar, musiqiy pedagogika va boshqa musiqiy, psixologik va pedagogik fanlarga asoslanadi.

Ajdodlarimiz barkamol insonni voyaga etkazishda badiiy estetik tarbiya vositalari, jumladan, musiqqa san'atining ahamiyatini chuqur anglab, yoshlarning ichki dunyosini boyitishga, ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish va kamol toptirishga uning ta'siri jihatlariga diqqat-e'tibor bilan qarashgan.

Aksariyat ko'pgina odamlar jiddiy musiqani tinglashmaydi chunki uni tushunishmaydi. Tushunish uchun esa tayyorgarlik talab etiladi. Agar tayyorgarlik ko'rilmasa bilim ham bo'lmaydi. Tinglashga o'rgatish qo'shiq ijro etishdan murakkabdir. (masalan: simfonik musiqalar, opera va boshqalar)

O'quvchilarni musiqadagi yuksak badiiyligini tanishtirish lozim. Bunday asarlar o'quvchilarni dunyoqarashini kengaytiradi va musiqiy didini tarbiyalaydi. Ko'p sonli savodhon tinglovchilarni tarbiyalash uchun musiqqa shaydolarini bolaligidan musiqani tushunishga va uni idrok qilishga o'rgatish lozimdir. **Musiqani idrok qilish – bu musiqani tinglash, tushunish, his etish, tahlil etish, bilish demakdir.**

Avalambor o'quvchilarni tinch va boshidan ohirigacha asarni tinglashga o'rgatishimiz kerak. O'qituvchi o'quvchilarga asarni tinglash jarayonida nimalarga etibor berish lozimligini aytib o'tish kerak. O'qituvchi tinglash davomida rahbarlik



qilishi lozimdir. Eng muhimi tinglanayotgan asar o'quvchilar yoshiga mos va esda qoladigan bo'lishi lozimdir.

O'qituvchi tinglanayotgan asar mazmuni orqali ahloqiy estetik tarbiya berishi lozim.

Musiqqa tinglashga o'rgatishda o'qituvchi oldiga qo'yiladigan vazifalar:

Vazifalar- musiqqa san'atiga havas uyg'otish, musiqqa tinglash va **amaliy vositalar** orqali qiziqtirish bolalarda musiqiy extiyojini kuchaytirish, o'quvchilarda badiiy taasurotlarni to'plab borish. (savol javob, suhbatlar orqali)

Buning uchun:

1. Tinglanayotgan asarni oddiy musiqiy pedagogik tahlil etish.
2. Tinglashda oddiy musiqqa terminlarini va atamalarini qo'llab borish.
3. Kuyning oddiy tuzilishi, uning ifoda vositalarini, ritmik tuzilishlariga qarab chapak chalish va kuylashga o'rgatish.
4. Musiqqa ijodkorlari, ijrochilar turlari cholg'u asboblari bilan tanishtirish.

Shuningdek:

1. Musiqiy janrlarini bilish (raqs, balet, opera va boshqalar)
2. Asarning tuzilishini bilish (bandli, 2 qismli yoki 3 qismli)
3. Kompozitorlarning hayoti va ijodini bilish.
4. Musiqiy nutqni elementlarini bilish (harakteri, tempi, dinamikasi, musiqiy ifoda vositalari va boshqalar)
5. Musiqiy estetik ma'lumotlarini bilish. (tinglash madaniyati)

O'quvchilar 1-sinfdanoq musiqada mazmun borligini u kishilarning hayotini aks ettirishini bilishlari lozim. Shuningek, musiqada **shakl borligini** bilishlari kerak. (mazmun - bu ifoda etish yoki tasvirlash, **shakl - bu kompozitorni asar mazmunini ifoda etishga bog'liq**).

O'quvchilarda musiqqa didini tarbiyalashda o'qituvchining mahorati muhim rol o'ynaydi.

Musiqqa tinglash 4 bosqichda olib boriladi.

1. Asarni tushunish uchun o'quvchilar diqqatini jamlash va asar xaqida o'qituvchining kirish so'zi.
2. O'qituvchi ijrosida yoki audio yozuvida musiqiy asarni tinglash.
3. Asarni suhbat yo'li bilan musiqiy badiiy jihatdan oddiy tahlil etish va chorak mavzusini yoritish.



4. Asarni to'liq qayta tinglash so'ng asar haqida bolalarning umumiy taasurotlari yuzasidan yakuniy suhbat o'tkazish.

Musiqiy fanlarni o'qitishda pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish.

“Pedagogik texnologiya” tushunchasi yunoncha “texnos” - hunar “logos”-fan degan so'zlardan tarkib topadi. Shuningdek “san'at”, “mahoratni” talab etadi.

“Axborot”- pedagogik jarayonni tashkil etish va boshqarishda, shuningdek mazkur jarayon subektlari hisoblangan professor –o'qituvchilar va o'quvchi talabalar faoliyatini tashkil etish va ularni muvofiqlashtirishda, pedagogik jarayonni ilmiy asosda tashkil etish hamda samaradorligini oshirishda o'ziga xos, turli xil yangilik larni o'z ichiga olgan ma'lumot va xabarlardan iborat bo'lib, yangi, ishonchli va zarur axborotlar pedagogik jarayon subektlari faoliyatini muvofiqlashtirishda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. (S.T.Turg'unov va b. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish texnologiyalari. “Sano-standart” n. T.2012),

NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETIDA TASHKIL ETILAYOTGAN TA'LIM – TARBIYA JARAYONIDA FOYDALANILAYOTGAN O'QITISH METODLARI

№	O'QITISH METODLARI GURUHI	№	MAZKUR GURUHGA MANSUB METODLAR
Reproduktiv metodlar			
		1.	Ma'ruza metodi
		2.	Hikoya metodi
		3.	Suhbat metodi
2.	Ko'rgazmali metod	4.	Ko'rgazmali –tushuntirish metodi
		5.	Ko'rgazmali –izlanish metodi
3.	Amaliy metod	6.	Amaliy xarakterdagi laboratoriya metodi
		7.	Izlanish xarakteridagi amaliy metod
		8.	Muammoli amaliy metod
Produktiv metodlar			
		9.	Muammoli ma'ruza metodi
		10.	Muammoli hikoya metodi
		11.	Muammoli suhbat metodi
4.	Muammoli metodlar	12.	Qisman-izlanishli muammoli metod



	13.	Ijodiy xarakterdagi muammoli metod
	14.	Aqliy hujum
	15.	Fikrlar to'qnashuvi
5.Munozara metodi	16.	O'quv bahsi metodi
	17.	O'quv munozaralari metodi
	18.	Davra suhbatlari
6.Mustaqil ishlash metodi	19.	Darslik ustida mustaqil ishlash metodi
	20.	Matn ustida mustaqil ishlash metodi
	21.	Qo'shimcha adabiyotlar ustida mustaqil ishlash metodi
	22.	Ko'rgazma vositalari yordamida ustida mustaqil ishlash metodi
7.Mantiqiy metodlar	23.	Tahlil metodi
	24.	Qiyoslash metodi
	25.	Sintezlash metodi
	26.	Umumlashtirish metodi
	27.	Induksiya metodi
	28.	Deduksiya metodi
	29.	Umumlashtirish metodi
	30.	Xulosalash metodi
8.Nazorat metodlari	31.	O'z-o'zini nazorat qilish metodi
	32.	Testlar vositasida nazorat qilish metodi
	33.	Atamalar varag'i vositasida nazorat qilish metodi
	34.	Kompyuterning nazorat dasturlari vositasida nazorat qilish metodi
	35.	Dasturlashtirilgan nazorat dasturlari vositasida nazorat qilish metodi



NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETIDA TASHKIL ETILAYOTGAN TA'LIM – TARBIYA
JARAYONIDA FOYDALANILAYOTGAN PEDAGOGIK
TEXNOLOGIYALAR

№	Lokal darajada qo'llanilayotgan pedagogik texnologiyalar	№	Xususiy metodik darajada qo'llanilayotgan pedagogik texnologiyalar
1	“Agar men ... bo'lsam”	Didaktik o'yin texnologiyasi	
2	“Aylanma xat”	1	Syujetli rolli o'yinlar
3	“Anjuman”	2	Ijodiy o'yin
4	“Burchaklar strategiyasi”	3	Konferensiya
5	“Ijodiy loyiha”	4	Matbuot konferensiyasi
6	“Pinbord”	5	Ishbilarmonlar o'yini
7	“3x4”	6	o'yin mashqlar
8	“6x6”	Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi	
9	Insert	7	Komandada o'qitish
10	Klaster	8	Kichik guruhlarda o'qitish
11	“Imitatsion o'yinlar”	9	“Zig-zag” yoki “arra”
12	“Akvarium”	10	“Arra-2”
13	“Aqliy hujum”	11	Kichik guruhlarda ijodiy izlanishlarni tashkil etish
14	“BBB”	Modulli ta'lim texnologiyasi	
15	“Bumerang”	12	Talabalarning individual ishlashiga mo'ljallangan modul dasturi
16	“Bir nuqta”	13	Ikki talaba hamkorlikda ishlashiga mo'ljallangan modul dasturi
17	“Birgalikda o'ynaymiz”	14	Talabalarning kichik guruhlarda ishlashiga mo'ljallangan modul dasturi
18	“Blis o'yini”	Loyihalash texnologiyasi	
19	“Venn diag-rammasi”	15	Tadqiqot xarakteridagi loyihalar
20	“Galeriya”	16	Ijodiy xarakterdagi loyihalar
21	“Debatlar”	17	Syujetli-rolli loyihalar
22	“Delfin”	18	Amaliy xarakterdagi loyihalar
23	“Elpig'ich”	19	Izlanish xarakteridagi loyihalar
24	“Zanjir”	20	Mo'ljal olishni tarkib toptiradigan loyihalar
25	“Atamalar zanjiri”	Muammoli ta'lim texnologiyasi	



26	“Konseptual xarita”	21	Muammoli ma’ruza
27	“Mozaika”	22	Muammoli konferensiya
28	“Muzyorar”	23	Muammoli davra suhbat
29	“Rezyume”	24	Erkin fikrlash
30	“Skarabey”	25	“Fikrlar to‘qnashuvi”
31	“Tarmoqlar”		
32	“Taqdimot”		
33	“FSMU”		
34	“Chorraha”		
35	“Fikrga qarshi-fikr”		

?

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Metod va musiqaning o‘qitish metodlari qanday tushuniladi?
2. Metodika, ta’lim-tarbiya jarayonida musiqqa o‘qituvchisini o‘quvchilar bilan ishlashning qanday mazmunini anglatadi?
3. Musiqqa o‘qitish metodining qanday turlarini bilasiz?
4. Musiqqa o‘qitishning og‘zaki metodlariga qanday shakldagi faoliyatlar kiradi?
5. Amaliy o‘qitish metodlari qanday ko‘nikmalarni shakllantiradi?
6. Respublikamizda musiqqa o‘qitish metodikasini shakllantirishda qanday izlanishlar ahamiyati bo‘ldi?

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bespalko V.P. Слагаемые педагогической технологии – М.: Педагогика, 1989.
2. Bogolyubov V.I. Эволюция педагогических технологий // Школьные технологии. 2004. № 4.С.12-21.
3. Golish L.V. Технологии обучения на лекциях и семинарах/Учебное пособие// Под общей редакцией академика С.С.Гулямова. - Т.: ТГЕУ, 2005.
4. Golish L.V. Что нужно знать обучающему о современных технологиях обучения? // Экспериментальное учебно-методическое пособие. Ташкент: ИРССПО, 2002.
5. Muslimov N.A., Qo‘ysinov O.A. Musiqqa ta’limi yo‘nalishi bakalavrlarini tayyorlashda mustaqil ta’limning ahamiyati // Maktab va hayot. –Toshkent, 2004. - № 1. -В. 18-20.



3-mavzu: Musiqqa fanlarni o'qitishda xorijiy mamlakatlar tajribalari

Reja:

1. Ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchilarda san'at orqali hayotni o'rganish.
2. AQShda musiqqa ta'lim tizimi.
3. Angliyada boshlang'ich maktab o'qituvchilarini tayyorlaydigan kollejlari.
4. Bolgariyadagi ommaviy havaskorlik jamoalari.
5. Rossiya, Estoniyada musiqqa talimi tizimi.

Tayanch tushunchalar: Relyativ tizimi, intellektual, korporatsiya, Tonik-solfa, tizimi, estetika, AQShda musiqqa ta'lim tizimi, Angliya musiqqa ta'lim tizimi, melodika, metallofonlar stolbnitsa.

1. Ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchilarda san'at orqali hayotni o'rganish.

Har bir mamlakatning musiqqa tarbiyasi g'oyaviy-siyosiy jihatdan xalqning ijtimoiy tuzumiga xizmat qiladi. Har bir xalqning ma'orifida musiqqa tarbiyasi metodikasi pedagogikaning didaktik qonuniyatlariga va shu millatning musiqqa madaniyati, tili va madaniy an'analariga asoslanadi. Shu bilan birga musiqqa tarbiyasining tuzilishi, tizimi va ilmiy-metodik yutuqlari boshqa millatning ma'rifiy madaniyatiga ham ijobiy ta'sir etadi.

Yagona o'quv reja va dasturga- **Xorijiy mamlakatlarda** amal qilinmaydi. **Davlat maktablari bilan birga shaxsiy maktablar, kollejlari va oliy ta'lim dargohlari mavjud bo'lib ularda turlicha darajada estetik tarbiyani amalga oshirishda o'qituvchiga keng ijodiy erkinlik berilgan.**

Xorijiy mamlakatlarda yagona o'quv reja va dasturga amal qilinmaydi. Davlat maktablari bilan birga shaxsiy maktablar, kollejlari va oliy ta'lim dargohlari mavjud bo'lib ularda turlicha darajada estetik tarbiyani amalga oshirishda o'qituvchiga keng ijodiy erkinlik berilgan. O'qituvchi o'z davlatining maktab sharoiti, imkoniyatlari va o'quvchilarning bilim darajasiga qarab dasturga o'zgartirishlar kiritishi mumkin.

Ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchilarda san'at orqali hayotni o'rganish va unga shaxsiy munosabat bildirish, ijodiy munosabatda bo'lish malakalarini rivojlantiradi. Musiqqa darslarida yuksak rivojlangan texnik vositalaridan keng foydalaniladi. O'quvchilar elektro rganlarda chalib kuylaydilar, turli faoliyatlarni (aytishuv, harakatlar, bir-biriga jo'rnavoqlik qilishlarni) bajaradilar. Bunda asosan o'quvchilarda ijodiy qobiliyatni ruyobga chiqarishdan iborat.

Yunesko qoshidagi musiqiy tarbiya xalqaro jamiyati o'z faoliyatini rivojlantirmoqda. Bu jamiyat o'z oldiga dolzarb va ezgu maqsadlarni qo'yib, butun jahonda bolalar va o'smirlarni musiqiy tarbiyalash, bu jarayonni yosh avlodni



axloqiy, intellektual va estetik jihatdan shakllantirishda qudratli vosita sifatida o'rganadi.

Bu tashkilot faoliyatining asosiy shakllaridan biri xalqaro miqyosida o'tkazilayotgan anjumanlar bo'lib, bularning ichida kompozitorlar, etakchi tashkilotlar, amaliyotchi-pedagoglar, bolalar xor jamoalarining rahbarlari ishtirok etadilar.

Anjumanlari ikki yilda bir marta o'tkazilib, jahonning turli mamlakatlaridagi musiqiy tarbiya tajribalari bilan turli mamlakatlardagi musiqiy tarbiya tajribalari bilan tula tanishish imkonini beradi.

Dunyoning juda ko'p mamlakatlarida bolalarga musiqiy tarbiyani berish, xor san'ati yordamida barkamol, mukammal rivojlangan shaxsni rivojlantirishida boy tajriba orttirilgan. Qator mamlakatlarda maktab hamda maktabdan tashqari tashkil topgan o'quv jarayoni, uning shakl va usullari shubhasiz katta qiziqish o'yg'otmoqda.

Jahonning ko'pgina mamlakatlarida yosh avlodga musiqiy tarbiya berish ishlari umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lib, shaxs shakllantirishning muhim vositasi hisoblanadi. Xor ijrochiligi elementlarini o'z ichiga olgan musiqiy tarbiyaning zamonaviy xorijiy uslublari orasida kuyida bayon etilgan yo'nalishlar butun dunyoda ommalashib ketgan.

Shuningdek, Tolbuxin shahri va Bolgariyadagi "Bodra Smyana", xor jamoalari, Berlindagi o'smirlar xor jamoasi, Polshadagi "Poznan bulbullari", Chexiyaning Borno shahri o'smirlar saroyi xor jamoalari va boshqa mashhur xor jamoalari qatoriga kiradi. Leypsigda XIII asrda tashkil topgan "Tomanerxor" jamoasida guruhli kuylashning ko'hna an'analari rivojlanmoqda. Jumladan, Z.Koday (Vengriya, solfedjio, musiqqa o'quvini rivojlantirish). L.Daniel va F.Lissek (Chexiya "tayanch" qo'shiqlari, solfedjio), B.Trichkov (Bolgariya, solfedjio), R.Myunnix (Germaniya, "yalen" tizimi, solfedjio, qo'shiqchilik), K.Orf (Germaniya - Avstriya, musiqali ijod, metroritmik o'quvini rivojlantirish), Ye.Jak-Dalkroz (Shvesariya, musiqali ijod), T.Sudzuki (Yaponiya skripka ijrochiligiga o'rgatish orqali musiqiy malakalarni rivojlantirish), Dj.Kerven (Angliya, "Tonik-sol-fa" tizimi, solfedjio), P.Van Xauve (Gollandiya, musiqali ijod), D.B.Kabalevskiy (Rossiya, musiqqa asarlarini idrok etish tajribasini rivojlantirish).

2. AQShda musiqqa ta'lim tizimi.

AQShda musiqqa ta'limi sohasi bo'yicha aniq bir tizim bo'lmaganligi, ta'lim muassasalarini turli xil shaxslar, kompaniyalar boshqarishi tufayli ta'lim tizimida noturg'unlik va nomutanosiblik mavjud.

Musiqqa mashg'ulotlarining o'tkaziladigan vaqti, shakli va mazmunini pedagoglar tomonidan belgilanadi. Mamlakatda mutaxassis o'qituvchilar



etishmasligi, musiqa mashg'ulotlariga maxsus ma'lumotga ega bo'lmagan, yosh kompozitor va ijrochilarni jalb etish ehtiyojini tug'diradi. Natijada, maktablarda yagona musiqiy ijro repertuari vujudga keladi.

Ixtisoslashgan musiqiy ta'lim kollejlardan boshlanadi. Kollejlarda o'qish muddati to'rt yil bo'lib, talabalar keyinchalik o'qishni davom ettirishlari va magistr unvonini olish uchun ikki yil. Doktorlik ilmiy darajasini olish uchun besh yil, jami etti yil o'qishlari kerak bo'ladi.

Musiqaga ixtisoslashgan kollejlarning uch xil yo'nalishi - ijrochilik, musiqashunoslik va pedagogik yo'nalishlarda musiqa o'qituvchilari tayyorlanadi.

Kollejdagi ta'limdan keyin talabalar o'qishni universitetlarda davom ettirishlari mumkin. AQShda XIX asrda konservatoriyalar tashkil etilgan bo'lib, hozirgi kunda ular universitetlarga qo'shib yuborilgan. Bundan asosiy ko'zlangan maqsad ta'lim sifatini yaxshilash, yoshlarga musiqiy ta'lim bilan birga adabiyot, san'atning boshqa turlaridan ham kerakli bilimlarni berish, ularning dunyoqarashlarini kengaytirishdir.

3. Angliyada boshlang'ich maktab o'qituvchilarini tayyorlaydigan kollejlari.

Angliya maktablarida burjua mamlakatlari jumladan, AQSh qatori, yagona dastur va uslubiyotning yo'qligi sababli mamlakatdagi musiqiy tarbiya ishlarining axvoli turli saviyadadir.

Ijobiy misol tariqasida 1969-1970 yillarda Britaniya radio korporatsiyasining radio orqali 6-7 yoshdagi bolalar uchun tashkil etilgan 10 minutlik musiqa eshittirishlarini keltirish mumkin.

Bu eshittirishlardan ko'zda tutilgan maqsad - bolalarning musiqa cholg'ulari ijrochiligiga xohishlarini o'yg'otish bo'lgan: bolalar radio eshittirish jarayonida musiqani ijro etishlari lozim bo'lgan. Keyinchalik bu dasturlar magnit tasmalariga yozilib, maktablarga, ulardagi "musiqqa burchak"lariga jo'natilgan.

Hozirgi kunda Angliya maktablarida ko'prok Dj. Kerven (1816-1880) tomonidan ishlab chiqilgan relyativ tizimiga asoslangan o'qitish usullari qo'llanilmoqda.

Angliyada boshlang'ich maktab o'qituvchilarini o'rta maxsus o'quv yurtlari - ikki yoki uch yillik kollejlari tayyorlaydi.

Milliy musiqa, qirollik musiqa kolleji va hatto Qirollik musiqa akademiyasini bitirgan musiqachilar uchun 1 yillik maxsus pedagogik kurslar tashkil etilgan. O'rta maktab musiqa o'qituvchilarini universitetlarning musiqa - pedagogika faqo'ltetlari tayyorlaydi. Ularda o'qish muddati 4 yilni tashkil etadi. Universitetlar o'rta maktab uchun universal musiqa o'qituvchisini tayyorlashni o'z oldilariga maqsad qilib qo'yganki, o'qituvchi nafaqat xor jamoasiga rahbarlik qilishi,



shuningdek orkestrni boshqarish, musiqa va cholg'u ansamblida mashg'ulot olib borish, bolalarni musiqiy cholg'uda ijro etishga o'rgata bilishi lozim².

Angliyada boshlang'ich sinflarda 5 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan bolalar o'qiydilar. Barcha o'quv fanlarini bitta o'qituvchi olib boradi. Boshlang'ich maktabni bitirgach, bolalar gumanitar yoki texnik yo'nalishga asoslangan o'rta maktablarga o'tadilar. Bularda musiqa ta'limiga ko'prok e'tibor beriladi.

4. Bolgariyadagi ommaviy havaskorlik jamoalari.

Bolgariyada musiqa darslari, o'quv rejasiga muvofiq, maktabni birinchi sinfidan to'qqizinchi sinfiga qadar o'tkaziladi, 10 - 12 sinflarda esa, ixtiyoriy mashg'ulotlar tarzida, haftada ikki soatdan olib boriladi. Birinchi sinfda musiqa darsiga 1 «shartli» soatdan iborat, chunki birinchi sinf tayyorlov sinfi bo'lib, unda musiqiy eshitib kuylaydilar va raqsga tushadilar. 2-4 sinflardan esa musiqa darslariga ikki soatdan ajratiladi.

2-sinfdan boshlab o'quvchilar darsda musiqa savodini va qo'shiq aytishni tizimli ravishda o'rgana boshlaydilar. Bolgariyadagi ommaviy musiqiy tarbiyaning asosi - bu xalq qo'shiqlaridir.

6-sinfdan boshlab o'quvchilar asosiy janrlar va Bolgariya musiqa madaniyati bilan tanisha boradilar. Bolgar xalq musiqasi o'ziga xos usul, ohang va boshqa xususiyatlarga ko'ra hozirgi zamon yoshlarining musiqa etiyojlarini qondira olish imkoniyatiga egadir. Bolgariyada asosan diqqat e'tibor ommaviy havaskorlik jamoalari - folklor ansambllariga qaratilgan. Ularning faoliyatida xalq ijodi namunalari milliy ijrochilik uslubiga yaqin ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Xalqchilik ruhida tarbiyalashga xizmat qilayotgan bolalar va yoshlarning qo'shiq va raqs xalq ansambllari ma'naviy-axloqiy tarbiyasi va badiiy-emotsional ta'sirning vositalaridir.

Bolgar xalq qo'shig'ining boyligini egallash, uning o'ziga xos ohang kuylarnini o'zlashtirish, bolalarda musiqiy tasavvur hamda ijro malakalarini egallashga ko'maklashadi, milliy hamda jahon mumtoz musiqa asarlarining go'zallik va boyliklarini baholashga imkon beradi. Bolgariya ommaviy musiqa ta'limining milliy uslubiyoti, uning bolalarda musiqaviy ijrochilik, ritmik qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan usullari, musiqiy tarbiyaning dastlabki bosqichida o'quvchining badiha va boshqa ijodiy harakatlarini rag'batlantiradi.

Bolgariya musiqa ta'limi tizimida notasiz kuylashdan, notaga qarab kuylash jarayoniga o'tishda

² *6 Music Education in England: A review by Darren Henley for the Department for Education and Department for Culture, Media and Sport, 7 February 2011.*



1923 yilda Boris Trichkov tomonidan ishlab chiqilgan "stolbitsa" (ustun) metodi keng tarqaldi. Oddiy, ommabop, qiziqarli bo'lgan "stolbitsa" usuli, ayniqsa, umumta'lim maktab bolalari bilan ishlashda katta yordam bermoqda. Bu uslub asosan musiqqa savodi jarayonida qo'l keladi

Biroq amaliyotda - qo'shiq kuylash, musiqqa tinglash jarayonlarida bu metoddan faqat do major miqyosidagina foydalanish mumkin. Boshlang'ich sinflarda musiqqa darsini barcha o'quv fanlaridan mashg'ulot olib boradigan pedagoglar o'tkazadilar.

Ular gimnaziyani bitirgach, muallimlar institutida ta'lim oladilar. Muallimlar institutida o'qish muddati uch yil.

5-8-sinflarda ashula darsini, ikki o'quv fani (masalan, til va ashula) bo'yicha pedagogika institutining maxsus faqultetida ta'lim olgan o'qituvchi o'tadi.

9-12-sinflarda esa, konservatoriyaning musiqiy pedagogika bo'limlarining bitiruvchilari olib boradilar. Ularning o'qish muddati 4 yil.

O'quv dasturlarida ko'rsatganidek, musiqqa darsini asosini guruhli kuylash va musiqqa cholg'ularida ijro etish tashkil etadi. Darslarda qo'llaniladigan musiqqa cholg'ulari turli-tumandir: urib chalinadigan cholg'ular - bolgar (milliy) va maktab o'quvchilari tomonidan yasalgan havaskorlik cholg'ulari; metallofonlar, milliy puflab chalinadigan (surnaycha, xushtak va hokazo), furuylar (venger xalq cholg'usi); "melodika" (akkordeonga o'xshash katta bo'lmagan cholg'u). Bu cholg'ularda ijro etish unchalik qiyinchilik tug'dirmaydi va bolalarni musiqqa darslariga faol jalb qiladi.

Ko'pchilik bolgar o'qituvchilari musiqiy cholg'ularni darslarda keng qo'llanishiga ehtiyotkoronalik bilan qarashmoqda. Ularning fikrlariga ko'ra mazkur cholg'ularni dars jarayoniga tatbiq etish boshqa faoliyat turlariga kam e'tibor berilishiga sabab bo'lmoqda. 1970-yillarda qabul qilingan dasturga ko'ra musiqqa tinglash jarayoniga juda kam soat ajratilgan bo'lib, musiqqa darslarining asosiy faoliyatlari - jamoa bo'lib kuylash va musiqiy cholg'ularda ijro etishdir. O'tgan yillar tajribasi shuni ko'rsatdiki, mazkur dastur o'zini oqlay oldi.

Maktabdagi o'quv jarayoni darsliklar va o'qituvchilarga mo'ljallangan uslubiy qo'llanmalar bilan ta'minlangan bo'lib, bu narsa, albatta, ommaviy musiqiy tarbiyani amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. 2-9-sinflar uchun yaratilgan darsliklar o'quvchi va o'qituvchilar uchun muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Bundan tashqari o'qituvchilar uchun chiqarilgan o'quv qo'llanmalar notaga qarab kuylash, metodika masalalari, vokal-xor malakalarini shakllantirishga qaratilgan bir qator muammolar echimiga qaratilgan.



Bolgariyada sinfdan tashqari ta'lim masalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, xor madaniyatini rivijlantirishga Sofiya o'smirlar saroyining - "Bodra smyana" bolalar xor jamoasi o'zining ulkan hissasini qo'shdi. Jamoa 1947 yilda tashkil topgan bo'lib, u ko'p yillar davomida bu jamoaga Bolgariya xalq artisti, professor Boncho Bochev rahbarlik qilgan edi. Xor jamoasi tarkibida 380 - a'zosi bo'lib, katta va kichik yoshdagi bolalar guruhlari, 100 kishilik konsert guruhidan iborat. Mazkur jamoa dasturiga murakkab ko'pvozli, turli janr va uslubdagi asarlar kirgan.

Bolalar va o'smirlar havaskor xor maktab - studiyasi bolalar xor jamoalarining zamonaviy ko'rinishi sifatida yosh ijrochilar uchun ma'lum kasbiy istiqbollari ochib beradi. Shunday jamoaning muntazam konsert faoliyati, havaskor xor jamoaning xor maktabiga aylanishidagi muhim shart -sharoitlaridan biridir.

Yuqorida tilga olingan jamoadan tashqari, Bolgariyada boshqa juda ko'p bolalar va o'smirlar xor maktablari mavjud. Ushbu maktablarda ta'lim olayotgan o'quvchilar kasbiy xor jamoalarining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday xor jamoalari negizida - turli xil repertuarga ega bo'lgan kamer, modregal, katta konsert jamoalari shakl topishi mumkin. B. Bochev "Bodra smyana" xor jamoasining ish tajribasini har bir bolalar xor jamoasiga tadbiiq etish mumkin.


Bolalar va o'smirlar havaskor xor maktablarini mustahkamlash zamon talablariga javob beradigan, mukammal tashkiliy - o'quv shakllarini vujudga keltirish mumkin.

5. Rossiya, Estoniya, musiqqa talimi tizimi.

Rossiyada musiqqa pedagogikasi katta muvaffaqiyatlarga erishdi va jahon musiqqa jamoatchiligining shrmat - e'tiboriga sazovor bo'ldi. Shu jumladan, taniqli kompozitor, pedagog, musiqqa va jamoat arbobi D.B.Kabalevskiy (1909-1982) hozirgi zamon musiqiy tarbiyasiga katta hissa qo'shdi.

D.B.Kabalevskiy ishlab chiqqan tarbiya tizimida ichki aloqalar birligi mezoni asosiy o'rin tutadi. Uning fikricha darsning tarkibiy mushtarakligi mashg'ulotlar izchilligining asosini tashkil etishi kerak. Birlik mezoni bilan bir qatorda, dasturda, umumlashtirish qoidasiga ham muhim o'rin ajratilgan. Ta'kidlash lozimki, bolalar bilim egallashida "xususiylikdan umumiylikka" formulasi "umumiylikdan xususiylikka" qoidasi bilan almashtirilgan.

D.B.Kabalevskiy tizimining asosida "uch kit" ya'ni qo'shiq, raqs, marsh turadi. Bu ishda oddiy janrlar bolalar uchun musiqqa haqida tushunchalarning shakllanishida birinchi kadamdir. musiqiy asar orqali ya'ni, qo'shiq, raqs, marsh janrida yozilgan asarlarni eshitib, ularni farqlash, aniqlash, tinglaganda fahmlay olishini maqsad qilib qo'ygan



Dmítriy Borísovich Kabalévskiy (1904-1987)-[kompozitor](#), [dirijyor](#) i [pianist](#), [pedagog](#). (1963). Mehnat qahramoni (1974).

Keyingi bosqichda ushbu tushunchalar chuqurlashtiriladi, ya'ni raqssimon, marshsimon, qo'shiqsimon asarlar bolalarga eshittirilib, ular haqida erkin fikr yuritish malakalari rivojlantirilishi maqsad qilib qo'yiladi.

D.B.Kabalevskiyning **ishlab chiqqan** musiqiy o'qitish tizimi, musiqiy asarlar **orqali hamma bilim va malakalarni bolalarga** taqdim etish **asosida tuzilgan**. Shu bilan birga **pedagogikaning muammoli o'qitish tizimi Kabalevskiyning tizimida asosiy vositalardan biri bo'lib qolgan**. Ya'ni bolalar **o'zlari fikr yuritib muhokama qilib, o'qituvchining rahbarligida ma'lum bir bilim va malakalarga ega bo'lishligi nazarda tutiladi**.

Estoniyada musiqqa ta'limi. Estoniyadagi musiqqa tarbiya tizimi qo'shiq bayramlarining ko'p yillik xalq an'analari asosida shakllandi, hamda eston xalqining yuksak xor san'atini saqlab qolishga intilgan musiqqa o'qituvchilarining, musiqachilarning ulkan tashabbuslari hisobiga rivojlanib bordi. Hozirgi zamon musiqiy tarbiyasining ildizlari XIX asrga qarab o'tilgan. Sankt-Peterburg konservatoriyasida musiqqa ta'limini olgan birinchi eston kompozitorlari bolalarga beradigan musiqiy tarbiyaning zarurligini angladilar va bolalar uchun xor pesalari hamda qo'shiqlarini shuningdek, maktablar uchun ko'plab to'plamlarni yaratishga e'tiborlarini qaratdilar.



Estoniya musiqqa hayotida qo'shiq bayramlarini o'tkazish katta voqeadir. Bu bayramlarni o'tkazishdan oldin har bir tumanda qo'shiq kunlari o'tadi. Birinchi ommaviy qo'shiqlar bayrami 1869-yili Tartu shahrida o'tkazilgan. Bunda hamma vohalardan erkaqlar xor jamoalari (sakkiz yuz kishidan iborat) ommaviy ravishda qatnashish uchun to'planadilar.

Ushbu bayram bugungi kunga etib kelgan an'analarga asos soldi. Bolalar xor jamoalari 1870-yildan boshlab (doimiy ravishda bo'lmasa ham) qo'shiqlar bayramida ishtirok etmoqdalar. Qo'shiqlar bayrami birinchi kundan boshlab, aholining hamma qatlamarini san'atga jalb etishga asoslangan edi.

1947-yildagi umumrespublika qo'shiq bayrami 25000dan oshiq qatnashchilarni yig'ini va umumxalq ommaviy bayramiga aylandi. 1947- yildan boshlab maktab xor jamoalari ham hamma qo'shiq bayramlarida ishtirok eta boshlaydilar. Dastlab, bayramlarda maktab bolalar xor jamoalari, aralash va ayollar xor jamoalari shunidek, damli cholg'ular jamoalari ishtirok etdilar. 1960-yildan boshlab o'g'il bolalar xor jamoalari ham ishtirok eta boshlaydilar. V.Laul boshchiligidagi o'g'il bolalar qo'shma xorini alohida ko'rsatish lozim.

1965-yili, birinchi marta respublika yosh skripkachilar ansambli ishtirok etib, qo'shiq bayramini an'anasiga yangilik kiritdi. Maktab xor jamoalari qatnashchilarining soni oshib borayotganligi, shu munosabat bilan qo'shiq bayramlarini tashkil etishda paydo bo'lgan qiyinchiliklarni hisobga olib, umumrespublika qo'shiqlar bayrami orasida maktab o'quvchilari xor jamoalarining ko'riklarini o'tkazishga qaror qilindi. Birinchi shunday bayram 1962-yilning yozida Tallin shahrida o'tkazildi. Qatnashchilarning umumiy soni 20000ga yaqin edi. Xor ishida eng muhim va qiziqarli shakllardan biri 1963-yildan boshlab o'tkazilayotgan yozgi qo'shiq oromgohlaridir.

Ikki soatlik qo'shiq mashg'ulotlari bolalarning kashfiyotlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, sport va boshqa o'yinlar esa kunning qolgan vaqtini to'ldiradi. Estoniyadagi qo'shiqlar bayramiga tayyorgarlik jarayonida seminar va yozgi yig'ilishlar o'tkaziladi. Seminarning alohida shakli-dirijyorlarning respublika qo'shma xori bo'lib uning tarkibiga 200dan ortiq musiqqa o'qituvchilari va xor dirijyorlari kiradi.

Bu xor jamoasini respublikaning eng yaxshi dirijyorlari, shu qatorda Gustav Emesaks, Yuriy Variste edi. Ularning xorni boshqarishi mamlakat xormeystrlarining malakasini oshishiga ta'sir ko'rsatadi. Bolalar va yoshlarning musiqqa madaniyatini rivojlanishiga maktabdan tashqari musiqiy tarbiya ham katta ahamiyatga ega.

1951-yili Yu.Variste rahbarligi ostida Tallindagi o'smirlar saroyi qoshida bolalar xor jamoasi tashkil qilindi. Bugungi kunga kelib bu jamoa xor maktabiga aylanib, hamma sinf o'quvchilarini qamrab olgan. Xor jamoasi bitta asosiy va



uchta tayyorlov xor jamoalaridan iborat. 1964-yildan boshlab xor maktabi o'quvchilari nota o'qishning yangi "Yo-LE-MI" tizimiga o'tdi, yangi repertuarni muvaffaqiyat bilan egallab, notani juda yaxshi o'qib, musiqa ohanglarini to'g'ri kuylamoq.

1964 yili respublikada bolalar musiqa maktablari o'quvchilaridan iborat yosh skripkachilar ansambli tashkil etildi.

Orkestr repertuarini bolalar o'zining turar joylarida o'rganadilar va har yili 3-4 marta konsertlar uchun repetitsiyaga yig'iladilar. Orkestr qatnashchilarining yoshi 7 dan 17 gachadir, ya'ni o'qishni boshlayotgan va uni tugatayotgan o'quvchilar bir jamoaga birlashgan. Orkestr konsertlari doimo muvaffaqiyat bilan o'tmokda.

O'sib kelayotgan yosh avlodga musiqa-xor tarbiyasi berish ishiga respublikadagi eng yaxshi bolalar xor jamoalaridan biri "Ellerxeyne"ning rahbari X.Kalyustening hissasi kattadir. Bu jamoadagi ijrochilik madaniyatining yuqori saviyada ekanligi - bolalar bilan yaxshi tashkil etilgan ishning bevosita natijasidir.

Xor jamoasidagi mashg'ulotlar natijalari faqat qo'shiq ijro etish bilan chegaralanib qolmagan. Xor jamoasida qo'shiq aytish bolalarning his-tuyg'ulari va salohiyatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi, ularning ma'naviy kamolotiga turtki bo'ladi. Musiqa bilan shug'ullanish bolalarning badiiy bilim darajasini kengaytiradi, ularning dunyoni tasavvur qilishlariga yordam beradi. Shaxsga beriladigan estetik tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan hisoblangan xor qo'shiqchiligini buyuk mazmuni ana shundadir.

Xorijdagi musiqiy tarbiya sohasidagi salbiy holatlar, ziddiyatlar, asosan, musiqa o'qituvchilarning tayyorlash jarayonida, shuningdek, umumta'lim maktablarda yagona o'quv rejalari va dasturlarining yo'qligida namoyon bo'lmoqda.

Jahon musiqiy tarbiya tizimi bugun izlanishlar bosqichidadir. Unda mavjud bo'lgan turli maqsad va vazifalariga qaramasdan musiqiy tarbiyaning umumiy tomonlarini ham ko'rsatish mumkinki - uning asosini ijodiy va asosan jamoaviy (ommaviy) musiqa ijrosi tashkil qilish kerak.

Bolalar musiqiy tarbiyaning eng yangi usullari bilan tanishish, tajriba almashish, uchrashuv, seminar, anjumanlar, bolalar xor jamoalari ko'riklarini o'tkazish va boshqa chora- tadbirlar bolalar musiqa ta'limi va tarbiyasi sohasida jadal rivojlanishga olib boradi.

Hozirda, konservatoriya va musiqa akademiyalarining Yevropa Assotsiatsiyasi va Umumjahon xor federatsiyasi tashkil qilingan. Ushbu xalqaro tashkilotlar faoliyatida qatnashish yurtimizning musiqa pedagogikasi, musiqiy tarbiya nazariyasi va amaliyotining bundan keyinga rivojlanishi va



mukammallashuvi uchun zarur bo'lgan ilg'or uslubiyotning egallashda muhim o'rin tutadi.

?	NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:
---	---

1. Angliyada bolalar musiqiy tarbiyasi tizimi qanday olib boriladi?
2. Bolgariyada musiqqa darslari qanday olib boriladi?
3. Rossiyada musiqqa talimi tizimi xaqida nimalar bilasiz?
4. Pedagog, musiqqa va jamoat arbobi D.B.Kabalevskiy (1909-1982) hozirgi zamon musiqiy tarbiyasida qanday tizim yaratadi?
- 5 Estoniyadagi bolalar musiqiy tarbiyasi tizimi qanday olib boriladi?
6. Xorijiy mamlakatlarda musiqqa dasturlari qanday tuziladi va estetik tarbiyani amalga oshirishda o'qituvchiga qanday erkinlik berilgan?

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Muslimov N.A., Qo'ysinov O.A. Musiqqa ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta'limni tashkil etish. Metodik qo'llanma. -T.: TDPU, 2006. - 46 b.
2. Muslimov N.A., Sharipov Sh.S., Qo'ysinov O.A. O'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim integratsiyasi. Metodik qo'llanma.-T.: Nizomiy nomidagi TDPU. 2006. -47b.
3. R.J. Ishmuhammedov Innovasion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari.T.2000 yil.
4. Yepisheva O.B. Основные параметры технологии обучения // Школьные технологии, 2004. № 4.
5. Kushnir A.M. Методический плюрализм // Школьные технологии, 2004. № 4. С.3-11.

4-mavzu: Musiqqa ta'limi fanlarini o'qitishda innovatsion texnologiyalar asosida ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlarini loyihalash

Reja:

1. Taqdimot materiallarni tayyorlash.
2. Elektron o'quv qo'llanmasidan foydalanish.

Tayanch tushunchalar: pedagogik faoliyat, loyihalash, ma'ruza, seminar, Power Point, Arial, Verdana, metodologik talab, mantiqiy yaxlitlik, amaliyotga bog'lash, tabaqalash, o'quvchilarning yoshiga xos xususiyatlari.



1. Taqdimot materiallarni tayyorlash.

Power Point ma'ruza taqdimotida Power Point ma'ruzani tetiklashtiruvchi juda samarali vosita bo'lishi mumkin. Grafikalar, fotosur'atlar, jadvallar, grafalar, audio va video kliplarni taqdim etish va veb saytlarni ko'rsatish osondir. To'g'ri foydalanilsa, bu qiziqishni paydo qilishi va boy va keng ma'lumot olishni ta'minlashi mumkin.

Baxtga qarshi, Power Point taqdimotlari ko'p hollarda bu xususiyatni jalb etmaydi va ma'ruzachi eski yo'llarda o'rganib qolgan ko'p sonli zerikarli slaydlarni varaqlash bilan tugaydi. Bu slaydlar hech qanday muammo bo'lmasligi kerak; bu fikrlar foydali boshlash nuqtasi bo'lishi mumkin, agarda qo'shimcha ma'lumot va illyustratsiyadan foydalanilgan bo'lsa. Asosiy fikrlar boshqa materiallar bilan boyitilgan slaydlar hayratlanardi darajada yaxshi ishlashi mumkin. Biroq faqat asosiy fikr ko'rsatilgan slaydlardan vaqtga mos kelmaydigan darajada ko'p miqdorda foydalanish, talaba qiziqishini sekinlashtiradi. Bu yanada kuchayadi, agar ma'ruzachi bu gaplarni o'qish uchun qo'shimcha vaqt sarflasa. Nima ma'ruzachiga talabalar o'zi o'qib olmasdan o'rganishiga yordam beradi? Bundan tashqari Sveller (2007) miya faoliyatida olib borgan izlanishlaridan shuni xulosa qildiki, taqdimotda ko'rsatilgan so'zlarni o'qib berish bilimni qabul qilish darajasini pasaytiradi. Shu sababli, u shunday deb aytgan (the Times? 18-aprel 2007 yil), PowerPoint bu halokatdir va ishdan chiqishi kerak. Biroq bu tanqid asosli bo'lardi, agar juda kam hollarda to'g'ri bo'lgan slayddagi matn shunchaki o'qib berilsa.

PowerPointdan ma'ruzada samarali foydalanish:

- Slaydlar sonini minimumga tushuring. Slaydlardan taqdimotni kuchaytirish va boyitish uchun foydalaning; agar slaydlar qo'shimcha hech narsa bermasa, uni qo'shmang;
- Diqqatni buzuvchi qiyinlashtirilgan orqa fondan foydalanmang. Matn va fon o'rtasidagi ranglar muvozanatini saqlang
 - Juda murakkab grafalardan foydalanmang
 - Arial va Verdana kabi senserif shriftlaridan foydalaning
 - Asosiy fikrni namoyon etish uchun faqat slaydli ma'ruzalardan qoching;
 - Agar yordam bersa, murakkab g'oyalarning grafik holda tushuntirishni qurish uchun PowerPointda animatsiyadan foydalanishni inobatga oling.
- Raqamlashgan sur'atlardan, ovoz yoki video materiallardan taqdimot ichida mos bo'lsa foydalaning va hisobga oling;
- Material bo'yicha o'rganishga imkon beruvchi aktiv tugmalar yoki giperssilikalardan foydalaning. Savol-javob slaydlari da birgina tugmani bosish



bilan boshqa slaydga etish va yana qaytib shu slaydga olib kelish uchun ayniqsa samaralidir.

Power Point va matnlar

Hozirda talabalar ma'ruzachilardan dars vaqtidagi taqdimot nusxasini mussasa veb sayti yoki VO'M (Vertual o'rganish muhiti orqali berishlarini so'rashadi. Bu holat ma'ruzachilar tomonidan talabalar qoralama matnlar yoki elektron tarzda kelmagan darslarining o'rnini to'ldirish uchun ishlatishadi deb tushuniladi. Haqiqat esa shundaki, agar ma'ruzaga qatnashish ularga PowerPoint usidan hech qanday qo'shimcha bermasa, haqiqatdan ham shunday deb o'ylashadi. Umumlashtirish va qiziqishni ko'tarish va talaba qatnashuvi kabi tomonlar ma'ruza sifatini oshiradi. Ma'ruzachi talabalarga shunchaki matnni olish ular bilim saviyasini oshirmasligini tushuntirishi va ularning ma'ruza o'qishga imkon berish juda muhimdir.

Yangi ma'ruzachi uchun har xil guruh talabalariga ma'ruza o'qish uchun juda muhim tajriba bo'lib hisoblanadi. Materialni shunchaki bilish etarli emas. Ma'ruzachi ma'ruzani qiziqarli va e'tiborni tortadigan qilib, yaxshi tayyorgarlik ko'rishi va mos va mavzuli misollardan foydalanib mavzuni tushuntira olishi zarur. Ma'ruzani to'g'ri o'tish mahorat va vaqt talab qiladi. Talaba va hamkasblardan ma'ruza to'g'risida fikrlarini so'rash ma'ruza o'qish sifatini ko'rsatish uchun muhim omil hisoblanadi va Siz o'z amaliyotingizni kuchaytirishni xohlashingiz mumkin³.

Ma'lumki, uzluksiz ta'lim tizimining barcha turlarida fundamental bilimlardan iborat bo'lgan umumta'lim fanlar bo'yicha o'quv adabiyotlari, asosan, an'anaviy bosma shaklda tayyorlanadi. Hozirgi zamonaviy o'quv darsliklari ularning elektron variantlari hamda zarur bo'lgan dasturlarning diskleri bilan ilova qilinmoqda. Bu esa, o'z navbatida mashg'ulotlarni zamonaviy elektron texnik vositalardan unumli foydalanib tashkil qilishga qulay bo'lmoqda.

Bugungi kunda elektron o'quv adabiyotlarining to'rtta ko'rinishi mavjud:

1. O'quv va ilmiy materiallar faqat verbal (matn) shaklida.
2. O'quv materiallari ikki o'lchamli grafik shaklida.
3. Multimedia (ko'p axborotli) qo'llanmalar, ya'ni uch o'lchamli grafik, ko'rinishda, ovozli, video, animatsiya va qisman verbal shaklida.
4. Taktil (his qilinuvchi, seziladigan) xususiyatli, o'quvchini «ekran olami» da stereo nusxasi tasvirlangan haqiqiy olamga kirishi va undagi ob'ektlarga nisbatan harakatlanish tasavvurini yaratadigan shaklda ifodalanadi [9].

³ A Handbook for Teaching and Learning in Higher Education, published 2009 by Routledge 270 Madison Ave, New York, NY 10016, chapter V: Lecturing to large groups, Ann Morton, 59-71p.



Bunday elektron o'quv adabiyotlarini yaratishdan asosiy maqsad quyidagilardan iborat:

1. Yangi axborot-ta'lim metodini shakllantirish, zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalarni qo'llash orqali ta'lim jarayonining samaradorligini, ya'ni sifati va unumdorligini oshirish;

2. Uzlüksiz ta'lim tizimida zamonaviy o'quv manbalari – elektron o'quv darsliklarini keng qo'llash va elektron kutubxonalarni tashkil etish, ta'limning masofadan o'qitish usullarni amalda joriy etish va umumjahon elektron o'quv tizimiga kirish.

Yuqoridagi fikrlar asosida oldingi paragraflarda qayd etilgan texnik chizmachilikfanidan qiyin o'zlashtiriladigan mavzularni kompyuter texnologiyalaridan foydalanib o'qitish bo'yicha elektron qo'llanma yaratish orqali tadqiqotimiz maqsadi amalga oshirildi. Elektron qo'llanmaning mazmuni mutaxassis olimlarning tadqiqotlari (A.Abduqodirov, U.Yuldashev, N.Tayloqov va boshqalar) natijalariga tayangan holda, chizmachilik ta'limi muammolari va uni bartaraf etish yo'llariga asoslanib ishlab chiqildi.

Elektron qo'llanma quyidagi talablarga rioya qilingan holda yaratildi:

Metodologik talab – qo'llanma matnidan uning illyustratsiyasigacha bo'lgan barcha o'quv materiallari fan mazmuniga muvofiq tuzildi.


Mantiqiy yaxlitlik – qo'llanmada mavzular mazmuni muayyan tizim shaklida tugallanib, har bir mavzu bitta mashg'ulot uchun mo'ljallandi.

Amaliyotga bog'lash – har bir tushuncha, qoida va chizmalar ilmiy va amaliy asoslanib, ularni amaliyotda qaysi sohalarda ko'proq qo'llanilishi haqida ma'lumotlar bilan boyitildi.

Tabaqalash – o'quvchilar salohiyatini va qiziqishdagi muqarrar tafovutlarni nazarda tutib, matnni bir necha darajada tabaqalab berildi. (Buning uchun mayda harf, quyuq va rangli yozuv singari usullar qo'llanilgan)

O'quvchilarning yoshiga xos xususiyatlarini nazarda tutish – matn ham, ko'rsatmalar ham o'quv faniga xos mazmunda bo'lib, ular o'quvchi tafakkurini zo'riqtirmasdan, pedagogik, psixologik va fiziologik me'yorlarga rioya qilingan holda tuzildi.

3-ko'rinishdagi elektron qo'llanmalar multimedia mahsuloti bo'lib, ularda grafik amallar videolavhalar va animatsiyalar yordamida namoyish etilishi bilan kasb-hunar ta'limida o'quvchilarning samarali bilim olishlarini ta'minlab, ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi (2.1-rasm).



Ma'ruzani faollashtirish, qiziqarli va samarali o'tkazish uchun Ta'lim berish vositalaridan foydalanish lozim.

- **Video**
- **Grafoproektor**
- **Flip-chart**
- **Didaktik talablarni bajarish**
 - -ma'ruzaning batafsil rejasini tuzish;
 - ta'lim oluvchilar uchun aniq tuzilmaga keltirilgan mashg'ulot (kirish, asosiy savollar, asosiy joylar, yakun va xulosalarni ajratib ko'rsatish);
 - -mustaqil o'qish uchun mavzu, maqsad, vazifa va ma'ruza rejasi, adabiyotlarni ma'lum qilish;
 - - rejaning har bir qismidan so'ng umumlashtiruvchi xulosalar qilish;
 - -ma'ruzaning bir qismidan boshqa qismiga o'tishda mantiqiy bog'liqlikni ta'minlash;
 - -yozish zarur bo'lgan joylarni: asosiy tushuncha, ifoda, vaqt, dalillar va boshq. aytib turish.
- **Faol ta'lim usullarini qo'llash**
- **-Muammoli ma'ruza**
- **-Anjuman-ma'ruza**



- -Konspektsiz ma'ruza –
- fikrni so'z bilan ifodalash
- -Mualliflik ma'ruzasi
- -Munozarali ma'ruza
- -Qaytar aloqadan foydalanilgan ma'ruza
- -Aniq vaziyatlarni ko'rib chiqish ma'ruzasi
- -Ma'ruza-suhbat
- *Pedagogik texnikani qo'llash*

Seminar - OO'Yuda ta'limni tashkil etish shakli

Seminar - ta'lim beruvchini ta'lim oluvchilar bilan faol suhbatga kirishishiga yo'naltirilgan, nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda amalga oshirish uchun sharoitni ta'minlovchi, mashg'ulotni o'qitish shakli

Seminar mashg'ulotining asosiy maqsadi

1. Nazariy materialni (bilimlarini) tartibga solish
2. Amaliy malaka va ko'nikmalarini hosil qilish
3. Bilimlarini nazorat qilish

Seminar turlari

1 Ta'limiy

Nazariy bilimlarni tartibga solish, faollashtirish, yoki ularni mustakil rivojlantirish

O'zlashtirilgan bilimlarni amaliy qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish

2 Rivojlantiruvchi

Ta'lim oluvchilarda muammoli qurish, taxliliy kobiliyatlar hamda bashorat qila olish ko'nikmalarini shakllantirish

Natijalari

Talabalarning nazariy bilimlarini tizimlashtirish va tarkib- lashtirish, mustahkamlash hamda kengaytirish.

Avval o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash, kengaytirish va tarkiblashtirish, mavzuning nazariy tushunchalarini ichki o'zaro bog'liqligini va mavzuni kursning boshqa mavzulari yoki boshqa fanlar bilan bog'liqligini anilash.



Seminarining samaradorligiga ta'sir
etuvchi omillar

Ta'lim beruvchining tayyorgarligi, bunda
savol-javob texnikasiga ega bo'lishi

Ta'lim oluvchilar guruxining xolati, uning
motivatsiyasi, faoliyatni tashkil etish
xususiyatlari

2. Elektron o'quv qo'llanmasidan foydalanish.

Biz elektron qo'llanmani yaratish texnologiyasini quyidagi bosqichlar orqali ifodaladik:

O'quv jarayonining texnik
jihozlanganligi

1. Elektron qo'llanmani ishlab chiqishning maqsad va vazifalarini belgilash. «Musiqqa ta'limi»ni o'qitish jarayonida o'quvchilarning o'zlashtirishi qiyin bo'lgan va o'qituvchidan ko'p mehnat va vaqt talab qiladigan mavzularni har tomonlama samarali o'zlashtirishga asoslangan elektron variantini yaratish, o'quvchilarning mustaqil bilim olishlarini yo'lga qo'yish hamda masofali o'qitishni amalga oshirish. Shu maqsadlardan kelib chiqib, elektron qo'llanma fanning ma'lum bir mavzularini oson, qulay va batafsil o'rganish uchun yaratildi.



2. Elektron qo'llanmaning tuzilishini asoslash. "Musiqqa ta'limi" fanidan o'ziga xos murakkabliklarga ega bo'lgan mavzular ajratib olindi va ushbu asosda elektron qo'llanma quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topdi (2.1-jadval):

2.1-jadval

Elektron qo'llanmaning tuzilishi

Menyu		
Mavzular		Intellectual o'yinlar
1. Tutashmalar		1.Rebus
2. Geometrik sirtlarning o'zaro kesishuvi		1. Krossvord 2. Charxpalak
3. Ko'rinishlar		4. Labirint
4. Qirqimlar		
5. Kesimlar		
6. Rezbali birikmalar		

3. Elektron qo'llanma uchun mavzularni ishlab chiqish:

- anketa so'rovnomalari asosida aniqlangan, o'rganilishi zarur bo'lgan mavzular davlat ta'lim standarti, namunaviy dastur va o'quv reja asosida tuzildi;
- muhandislik grafikasifani bo'yicha intellectual o'yinlar dasturlari uchun test savollari hamda amaliy topshiriqlar tizimi oddiydan murakkabga tamoyili asosida takomillashtirildi;
- mavzular bo'yicha amaliy mashg'ulotlar uchun topshiriq va vazifalar tuzildi.

4. Elektron qo'llanmaning ta'lim qoidalariga mos kelishi:

1. Ta'limning ilmiyligi. "Musiqqa ta'limida" har bir o'tiladigan mavzu DTS talabi darajasida va unda bajariladigan chizmalar KHYaT (konstruktorlik hujjatlarining yagona tizimi) tomonidan belgilangan tartib va qoidalarga muvofiq bajariladi. Shuningdek, o'quvchilarning o'quv materialidagi qonuniyatlarni to'liq aks ettirishi, tushunishi va o'zlashtirishi uchun to'g'ri sharoit yaratish maqsadida hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti darajasiga muvofiq keladigan ilmiy bilimlar bilan qurollantirib, yoshlarni ilmiy-tadqiqot usullari bilan ko'proq tanishtirib borishga qaratilgan.

2. Ta'limning tizimliliigi va izchilligi. Ta'limda izchillikka rioya qilib o'qitish deganda, bugun o'rganilgan bilimlar kecha o'rganilganini mustahkamlashi va ertaga o'tiladiganlarga zamin tayyorlashi zarurligi ko'zda tutiladi. Ta'limning tizimli uzviy bog'langan bo'lishi uning izchil bo'lishi bilan bog'liq. Bu tamoyil juda yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, o'quvchilar elektron qo'llanma uchun tanlangan mavzularni o'quvchilarga etkazishda, nota chiziq-lari va notalar yozilishiga e'tibor berildi.



3. Ta'lim va tarbiya birligi. Tanlangan mavzularning mazmuni ilmiy va g'oyaviy jihatdan to'g'ri tashkil qilinib, uning tarbiyaviy mohiyati hayotiy misollar yordamida ochib berildi. Bayon qilinayotgan ilmiy bilimlarning puxta va mustahkam o'zlashtirilishi uchun qiziqarli o'yin va kompyuter test nazoratlaridan foydalanildi. Bu o'z navbatida o'quvchilarning qiziqishlarini, faollik va tashabbuskorliklarini ta'minlab, ularda uyushqoqlik, intizomlilik, intiluvchanlik kabi majburiyat va fazilatlarni tarkib toptirishga xizmat qiladi.

4. Ta'limda nazariyani amaliyot bilan bog'lab o'qitish. O'quvchilar o'quv materialining tub mohiyatini, tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlarini ilmiy asosda atroflicha to'g'ri, chuqur tushunib olib, uni amaliy faoliyatlari davrida qo'llaydilar. Masalan, nota chiziqlari va notalardan foydalanib kuy, qo'shiqlar yozish mumkin. Bu kabi misollarni ko'plab keltirish mumkin.

5. Ta'limda onglilik, faollik va mustaqillik. Bunda o'quvchilarning yangi materialni idrok qilishda nafaqat ta'riflar va shartli belgilarni, balki ularning hayotiy hodisalar, jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan mazmunini ham tushunishini talab etadi. Onglilik va faollik notalarni yozishda o'quvchilarni mustaqil ishlashga qobiliyatlarini shakllantirishga undaydi. O'quvchilarda kuzatuvchanlik, xotira, diqqat, tasavvur va mantiqiy fikrlash kabi qobiliyatlarning rivojlantirishga xizmat qiluvchi o'yin dasturlari o'quvchilarning ongli ravishda mustaqil fikrlashga o'rgatadi.

6. Ta'limda ko'rsatmalilik. Ko'rsatmalilik ta'lim jarayonining sifatini orttiradi, o'quvchilarning bilim olishini osonlashtiradi. Elektron qo'llanmada mavzularning mazmuniga mos keladigan materiallardan unumli va to'g'ri foydalanish, o'quvchilarning o'tilayotgan materiallarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishini ta'minlaydi. Kompyuterda animatsion ko'rgazmali dars ishlanmalari o'quvchilarning yoshi, o'ziga xos xarakter xususiyatlarini inobatga olgan holda sodda, tushunarli tarzda ishlab chiqilgan bo'lib, o'quvchilarda fazoviy tasavvur va obrazli hamda mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi.

7. Ta'limning o'quvchilarga mos bo'lish. Moslik qoidasini ta'lim mazmunini bolalarning kuch-quvvatiga qarab «engillashtirish» emas, aksincha, o'quvchilarning saviyasiga muvofiq ravishda, asta-sekin chuqurroq va mukammal bilimlar berish tushuniladi, ya'ni bilish jarayoni: osondan qiyinga; soddadan murakkabga; ma'lumdan noma'lumga tamoyili asosida amalga oshadi.

O'yin dasturlarini tuzishda aynan moslik qoidasiga alohida e'tibor berildi.

8. Ta'limda bilim, ko'nikma va malakalarni puxta va mustahkam o'zlashtirish. Puxta o'zlashtirishning muvaffaqiyati ta'limni mustahkam uzoq vaqt esda saqlab qolish, takrorlash va mashq qilib borishga bevosita bog'liq. Ishimizda elektron qo'llanma dars o'tish hamda o'rgatuvchi dastur asosida ishlab chiqilgani



bois, o'quvchilar istagan paytida mavzularni takrorlashi, mustaqil ravishda o'rganishlari mumkin.

9. Ta'limda o'quvchilarga xos xususiyatlarni hisobga olib, qiziqtirish. Musiqa darslarida chizmalarni o'qituvchi tomonidan doskada emas, balki proektor ekranida kompyuterni boshqargan holda, musiqiy kuy va qo'shiqlarni ketma-ketligi asosida bajarilishi, unda har bir kuychan, sho'x, musiqiy ohanglarni tasvirlanishi va eng muhimi, qisqa vaqt ichida o'quvchilarning qiziqishini orttiradi.

Jadvalda ko'rsatilgan mazkur belgilar quyidagi vazifalarni ifodalaydi:

«-» ta'lim jarayonida ishtirok etmaslikni;

«+» ta'lim jarayonida ishtirok etishni;

«+!» ta'lim jarayonida faol ishtirok etishni.


Ko'rgazmali vositalarni kompyuter texnologiyalari yordamida takomillashtirish, o'quvchilar o'zlashtirishi zarur bo'lgan materialni kompyuter imkoniyatlaridan foydalangan holda turli shakl va usullarda ko'rsatish orqali tez, aniq va to'g'ri hamda zarur bo'lganda qayta tushuntirish imkonini beradi (2.2-rasm).

Musiqa fanini o'qitishda intellektual informatsion texnologiyalardan foydalanish o'qituvchining ma'ruzasi va tushuntirishini, musiqa kuylarini

2.2-jadval

Musiqa ta'limi elektron qo'llanmadan foydalanish jarayonida o'qituvchi, o'quvchi va elektron qo'llanma vazifalarining taqsimlanishi

№	Ta'lim jarayonini tashkil etish bosqichlari	O'qituvchi	Elektron qo'llanma	O'quvchi
1.	Ta'lim metodini tanlash	+	-	-
2.	O'quv materialini va topshiriqlarni saralash	+	-	-
3.	Mavzuni ko'rgazmali tushuntirish	+	+!	-
4.	Amaliy mashqlar bajarish	-	+!	+
5.	Dars davomida nazariy va amaliy yordam	+	+!	-
6.	Darsni mustahkamlash	+	+!	+
7.	Bilimlarni tekshirish va baholash	+	+!	-
8.	Natijani e'lon qilish	+	+!	-
9.	Vazifa berish	+	-	-



2.2-rasm. Musiqqa ta'limi darsida multimediali elektron qo'llanmadan foydalanishning afzalligi

Chunki o'quvchilar o'qituvchining ma'ruzasini tinglab, katta ekranda namoyish etiladigan musiqqa kuylarini animatsion tarzda ketma-ket bajarilishini ko'rgazmali ravishda qabul qilib (illyustrativ), uni topshiriq bajarish jarayonida mustahkamlaydilar (kognitiv). Kognitiv funksiyasining to'liq bajarilishi uchun o'quvchilar topshiriqlarni ham kompyuterdan foydalanib bajarishlari zarur.

Bu borada B.F.Lomovning fikrlarini keltirish maqsadga muvofiq: "Kompyuterlar tasavvur va fantaziyani rivojlantiruvchi kuchli vosita sifatida qo'llanilishi mumkin. Kompyuter ekrani insonning miyasida shakllanayotgan obrazni kompyuter displeyiga fikran ko'chirish imkonini beradi, shunda inson ichki emas, xuddi tashqi ob'ekt ustida ishlayotgandek bo'ladi. Bu degani, kompyuter tafakkur qilish jarayonida faol qatnashadi" [67].

Demak, elektron qo'llanmadan foydalanish nafaqat mavzuni ko'rgazmali tushuntirishda, balki o'quvchilarning bilimni tekshirish va baholash hamda uni e'lon qilishda, shuningdek, darsni mustahkamlashda o'qituvchi uchun «beminnat» yordamchi bo'ladi. Undan foydalanish jarayonida mavzularning qisqa va tushunarli bayoni, gipermurojaatlar, animatsiya va hajmli tasvirlarning mavjudligi hisobiga o'quvchilarning fazoviy obrazli tasavvuri rivojlanadi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, musiqqa ta'limida o'qitishni kompyuterlashtirish, ya'ni darsda zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli va o'rinli foydalanish natijasida:

- o'quvchilarning musiqiy savodxonligi ortadi, bu esa ularning kasbiy shakllanishida muhim ahamiyatga ega;
- o'qituvchilarni an'anaviy usuldan voz kechib, ularni ijodiy izlanishga undaydi.



Demak, musiqqa darslarida multimediali elektron qo'llanmadan foydalanib, bir vaqtning o'zida mavzuni tushuntirish va unga parallel ravishda musiqiy kuy-ohanglarni kompyuterda bajarilishini ko'rsatib borish hamda mustahkamlash tarzida topshiriq berib, uni amalda bajarib ko'rishlariga imkoniyat yaratish orqali o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini keskin oshirish mumkin bo'ladi.

Tizimli faoliyat yondashuvi asosidagi modulli o'qitish texnologiyasi.

Tizimli faoliyat yondashuvi mutaxassisning faoliyatini o'rganishi, ushbu faoliyatini amalga oshirish uchun o'rganish lozim bo'lgan o'quv fanlarni ro'yxatini, o'quv materiallarni mazmunini aniqlanishi, modullarni tuzilishi va o'quv jarayonini tashkil etilishi bilan xarakterlanadi.

Modulli texnologiyaga tizimli faoliyat yondashuvi, eng avvalo kasb-hunar ta'limida qo'llaniladi. Buning yorqin misoli bo'lib, YuNESKO ning xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan «Mehnat ko'nikmalari modullari (MKM) konsepsiyasi» hisoblanadi.

Konsepsiya, o'quv fanlariga bo'linmasdan, yaxlit o'qitishga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi.

Konsepsiyaning afzalliklari bo'lib, modullar texnologiyalarining loyihalash jarayonining aniq tarkiblashtirish va modulli variantdagi o'quv-dasturiy hujjatlar shaklini to'la shakllanganligi hisoblanadi.

MKM - o'qitishning modulli dasturi, mutaxassis faoliyatining tahlili, uning mazmuni va tarkibini o'rganish asosida tuziladi va modulli bloklar hamda o'rgatuvchi modullari yig'indisidan iborat bo'ladi.

Mutaxassisning ishlab chiqarish faoliyati, qator ishlab chiqarish topshiriqlar bajarilishini o'z ichiga oladi (4.5-rasm). Ular o'z navbatida belgilangan ketma-ketlikda bajariladigan ishlab chiqarish amallaridan (ishlar qadami) iborat bo'ladi. Ishlab chiqarish topshirig'i tarkibiga kiruvchi amallarni bajarish uchun, mutaxassis ma'lum darajadagi nazariy bilimlar va amaliy malakalarga ega bo'lishi kerak. Bunga ishlab chiqilgan o'rgatuvchi modullarni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi orqali erishiladi. MKM dasturlar kasb-hunar ta'limi tizimining muayyan ixtisosligi bo'yicha ishlab chiqiladi. Modulli o'qitishning mazkur konsepsiyasi kasb-hunar kollejarida, ixtisoslikka o'rgatish uchun juda ham mos keladi. Bu esa eng avvalo «Kasbiy ta'lim» olayotgan tahsil oluvchilarga tizimli faoliyat yondashuvi asosidagi modulli o'qitish texnologiyasini o'zlashtirishni taqozo etadi.

Mazkur dasturlarni, oliy o'quv yurtlarining «Musiqqa ta'limi» yo'nalishlari bo'yicha ta'lim olayotgan tahsil oluvchilarni ixtisoslikka o'rgatishda ham qo'llash mumkin bo'ladi. Oliy o'quv yurtlarda ixtisoslikka o'rgatish uchun «Kasb mahorati» fani o'quv rejalarga kiritilgan. Demak, mazkur fanni tizimli faoliyat



yondashuvi asosidagi modulli o'qitish texnologiyasi bo'yicha tahsil oluvchilar tomonidan o'zlashtirishini tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida ifoda etilganlarni hisobga olib, tizimli faoliyat asosidagi modulli o'qitish texnologiyasining quyidagi asosiy xususiyatlarini qayd etish mumkin:

- o'qitish mazmuni, mutaxassis faoliyatining tizimli tahlili asosida, shakllantiriladi;

- modulli dastur tarkibi mutaxassis faoliyati tarkibiga mos shakllantiriladi. O'qitish dasturi alohida elementlardan, modullardan, o'rgatuvchi modullardan, modulli bloklardan iborat bo'ladi. Modulli o'qitish dasturining tarkibiy qismi bo'lib, mutaxassis harakatining «boshlanishi va oxiri» aniq ko'rsatilgan tugallangan ish bo'lagidir.

- har qaysi modulni o'rganish «O'rgatuvchi modul» deb ataluvchi maxsus ishlangan uslubiy qo'llanmalar bo'yicha amalga oshiriladi. Unda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish uchun zaruriy axborotlar, nazorat testlari keltiriladi.

- zaruriyat tug'ilganida, har qaysi o'quvchi uchun individual o'qitish dasturlari tuziladi. Ular ta'lim buyurtmasi talablari va boshlang'ich tayyorgarlik darajasi asosida tayyorlanadi.

- o'rgatuvchi modul o'quvchiga, mustaqil ravishda o'quv materialini o'zlashtirishga imkoniyat beradi, Pedagog va o'quvchining o'zaro munosabati teng huquqlilik va bilvosita muloqoti va munosibatlari asosida kechadi.

Tizimli faoliyat asosidagi modulli o'qitish - loyihalash va ro'yobga chiqarish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Loyihalash jarayoni to'rt bosqichdan iborat bo'ladi.

Birinchi bosqich: kasbiy faoliyat mazmuni va tarkibiy tahlili.

Mazkur tahlil ishning tafsiloti, modulli bloklar ro'yxati va tafsilotini tuzish maqsadida o'tkaziladi. Ishning tafsiloti quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- kasbning va kasbiy sohaning nomlanishi;
- ish sohasi (faoliyatning aniqlangan turi);
- mazkur ixtisoslik bo'yicha mutaxassisni vazifalari tafsiloti;
- mutaxassis ma'suliyati va uning bevosita rahbari;
- ish sharoiti (o'rni);
- ixtisoslikni egallash uchun nomzodga qo'yiladigan talablar

Modulli bloklar ro'yxati va tafsiloti mazkur ixtisoslik doirasida bajariladigan ishlab chiqarish topshiriqlar majmuasi asosida tuziladi. Ishlatiladigan «modulli blok» atamasi, uning mantiqan tugallangan qismini o'zida mujassamlashgan ishlab chiqarish topshirig'ining mazmunini ifodalaydi.

Tahlil natijalari bo'lib, mutaxassisning ish o'rnidagi vazifasi, bu vazifalarni bajarishdagi tashkiliy tuzilmalar, mazkur ixtisoslikni egallashni istaganlarga



qo'yiladigan talablar, hamda mazkur ixtisoslik doirasida mutaxassis tomonidan bajariladigan barcha ishlab chiqarish topshiriqlari ro'yxati hisoblanadi.

Ikkinchi bosqich: Modulli bloklarning mazmuni va tarkibining tahlili.

Mazkur tahlilning maqsadi, modulli blok doirasidagi muayyan ishlab chiqarish topshirig'ini bajarish uchun zarur bo'lgan amallar (qadamlar) ketma-ketligini aniqlash hisoblanadi. Ishlab chiqarish faoliyati tahlilini bajarish uchun birinchi navbatda kasbiy soha va shu bilan bir qatorda tizimli tahlil bo'yicha yuqori malakali mutaxassis talab etiladi. Oliy o'quv yurtida yoki kasb-hunar kollejida bunday ishni faqat bu sohada malakaga ega bo'lgan pedagoglar bajarishi mumkin. Demak, ixtisoslik fanlari o'qituvchilari chuqur bilimlar bilan bir qatorda o'rgatiladigan ixtisoslik bo'yicha malakaga ham ega bo'lishi kerak.

Ishlab chiqarish faoliyati, modulli bloklar, qadamlarning tahlili, tegishli ishni bajarish uchun mutaxassis ega bo'lishi lozim bo'lgan nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar ro'yxatini aniqlash imkoniyatini beradi. Loyihalashning bu bosqichi natijalari «Modulli blok tahlili jadvali» ko'rinishida tizimlanadi. Bu jadvalda ish qadamlari va ularni bajarish uchun zaruriy amaliy malakalar va standartlar tafsilotlari lo'nda holda keltirilgan.

Uchinchi bosqich: har qaysi qadam bo'yicha malakalar tahlili va zaruriy o'rgatuvchi modullarni aniqlash.

Har qaysi qadamni bajarish uchun zarur bo'lgan malakalar tahlili, bu malakalarni shakllantirish uchun talab qilinadigan o'rgatuvchi modullarni tuzish maqsadida bajariladi. MKM da o'rgatuvchi modul – bu uslubiy qo'llanma, maxsus risola ko'rinishida bo'lib, quyidagi tuzilmaga ega bo'ladi:

- Muvofiqlashtiruvchi blok – o'quv maqsadlari zaruriy jihozlar va materiallar; qo'llanmalar va zarur bo'lgan boshqa yordamchi vositalar ko'rsatiladi.

- Axborot-yo'riqlar bloki - muayyan ishlab chiqarish amali (ishning qadami) ni o'rganish uchun zarur bo'lgan nazariy qoidalar, amaliy ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. U matn va ko'rgazmali materiallardan iborat bo'ladi. Matnlar lo'nda ifodalanishi, tushunarli tuzilishi va o'qilganda faqat bitta ma'no bildirishi lozim. Matn qator boshidan varaqning chap qismida abzas qoldirib, ma'lum interval (masofa) bilan yoziladi. Varaqning o'ng qismida ko'rgazmali material joylashtiriladi. Axborot-yo'riqlar blokini tuzishda, tushunarlilik, ko'rgazmalilik va ilmiylik prinsiplariga rioya etish lozim. Bu blok ham malakalarni amaliyotda mashq qilish topshiriqlarini o'z ichiga oladi.

- Nazorat bloki – o'rgatuvchi modulning o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun xizmat qiladi va nazorat topshiriqlari, savollar, testlarni o'z ichiga oladi. Ular nazorat blokida ko'rsatilgan, o'quv maqsadlariga muvofiq tuziladi.



O'zlashtirilgan bilimlar va malakalarni baholash quyidagicha amalga oshirilishi mumkin:

- agar o'rgatuvchi modul davlat ta'lim standarti va o'quv rejalar asosida tuzilgan bo'lsa va kasb-hunar kollejida o'rta maxsus kasbiy ma'lumotli mutaxassis tayyorlash uchun mo'ljallangan bo'lsa, o'qitish natijalarini baholash mazkur o'quv yurtida o'rnatilgan qoidalar bo'yicha amalga oshiriladi;

- agar faqat ishchi ixtisosligi bo'yicha tayyorlansa, baholash «Ha-yo'q» prinsipi asosida amalga oshiriladi. Ya'ni o'rganuvchi malakaga ega bo'lishi mumkin yoki yo'q.

Malakalar tahlili natijalari bo'yicha «Modulli blok - o'rgatuvchi modul» ma'lumot jadvali tuziladi. Jadvalda malakalar va ularni egallash uchun zaruriy o'rgatuvchi modullar guruhlanadi. Bunday jadvallar har bir modulli blok uchun tuziladi.

O'rgatuvchi modullar jadvalda oltita asosiy toifaga guruhlanadi:

01 - Umumiy texnika xavfsizligi.

02 - Kasbiy faoliyat turlari.

03 - Nazariya

04 - Grafik axborot (sxemalar)

05 - Texnik axborot: materiallar (ma'ruzalar matni), usullar

06 - Texnik axborot: asboblari (jihazlar), mashinalar.

To'rtinchi bosqich: MKM - o'qitish dasturlarini tuzish.

Modulli - o'qitish dasturlari jadval ko'rinishida tuziladi. Ularni tuzish uchun asos bo'lib, «Modulli blok – o'rgatuvchi modul» ma'lumot jadvali xizmat qiladi. Ushbu dastur mazkur ixtisoslik doirasida bajariladigan barcha modulli bloklarni va ularga tegishli o'rgatuvchi modullarni o'z ichiga oladi. Ushbu modulli o'qitish dasturining afzalliklari - o'zgaruvchanlik va moslanuvchanlik bo'lib, bozor iqtisodiyoti sharoitida muhim ahamiyatga egadir.

Mazkur dasturlar, keng ixtisosli kasblar uchun ham va alohida ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarish uchun ham tuzilishi mumkin. Birinchi holda dasturlar muayyan ixtisoslikka tegishli barcha o'rgatuvchi modullarni o'z ichiga oladi. Ikkinchi holda esa faqat muayyan faoliyatga tegishli modulli blok va o'rgatuvchi modullardan tashkil topadi. Ba'zi vaziyatlarda dastur faqat bitta modulli blokdan tuzilishi mumkin. Modulli o'qitish dasturi kasbiy faoliyatning turli sohalariga tegishli modulli bloklardan iborat bo'lishi mumkin, bu esa xizmat ko'rsatish sohasi uncha katta bo'lmagan korxonalar uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, modulli o'qitish dasturlarni muayyan vaziyat uchun ma'lum ish o'rini uchun zarur bo'lgan modulli blok va o'rgatuvchi modullardan tuzish



mumkin. Ushbu dasturni bu afzalligi o'rgatuvchi modullar pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida qo'llash imkoniyatini yaratadi.

Modulli o'qitish dasturlar yangi modulli bloklar va o'rgatuvchi modullar bilan to'ldirilishi mumkin, bu esa yangi texnologiyalarni o'zlashtirishda katta ahamiyatga ega bo'ladi. Mazkur dastur, o'zgaruvchan (harakatchan) o'quv dasturiy hujjat bo'lib, texnologiyalar, jihozlar, asboblardan va materiallar takomillashgani bilan uni yangilashga imkoniyat mavjud bo'ladi.

Modulli o'qitish dasturini amalga oshirish jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi:

- O'qitish individual modulli dastur, mustaqil, qadamba-qadam o'zlashtirish shaklida amalga oshirilganda. Bunda har bir tahsil oluvchi o'rgatuvchi modul bilan ta'minlanadi, nazariy bilim va amaliy malakalarga ega bo'lish uchun shart-sharoitlar yaratiladi.

- Bilimlar va malakalar shakllanishini qadamba-qadam nazorat qilish. O'rgatuvchi modullar har bir egallangan malaka uchun alohida tuziladi va shuning uchun bilim va malakalarni shakllanganligi har bir malaka bo'yicha uzluksiz nazorat asosida amalga oshiriladi, bunda nazorat topshiriqlari, savollar va testlardan foydalaniladi.

O'rgatuvchi modullar asosida o'qitishda, pedagogning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi: muvofiqlashtiruvchi, maslahatchi, nazoratchi.

Modulli o'qitish dasturlar, o'quvchining individual ehtiyojlariga osonlik bilan moslashadi va erkin vaqt omiliga ega bo'ladi, chunki bu erda individuallashtirilgan o'qitish jarayoni ustunlik qiladi. Modulli o'qitish dasturini o'zlashtirish uchun zaruriy vaqt tahsil oluvchining tabiiy qobiliyatlariga bog'liq bo'ladi.

?

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Elektron qo'llanmaning afzalliklari nimada?
2. Musiqqa ta'limi darsida multimedial elektron qo'llanmadan foydalanishning afzalligini va ahamiyati nimada?
3. Musiqqa ta'limida talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish qanday olib boriladi?
4. Elektron o'quv adabiyotlarning qanday ko'rinishlari mavjud?
5. Elektron qo'llanma uchun mavzular qanday ishlab chiqiladi?
6. Ko'rgazmali vositalarni kompyuter texnologiyalari yordamida takomillashtirish, o'quvchilarni materiallarni o'zlashtirishiga qanday imkon beradi?

Foydalanish uchun adabiyotlar:



1. Selevko G.K. Современные образовательные технологии / Учебное пособие. М.: Народное образование, 1998.
2. J.G' Yo'ldoshev, S.A.Usmonov. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. -Toshkent, O'qituvchi 2004 yil.
3. Farberman V.L. Передовые педагогические технологии – Т.: ФАН, 2000.
4. Гузеев В.В. Образовательная технология: от приема до философии. М.: Сентябрь, 1996.



IV. AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-amaliy mashg'ulot: Innovatsion ta'lim muhitining nazariy asoslari va Oliy ta'lim musiqqa o'qituvchisining innovatsion pedagogik faoliyati bosqichlari

(Musiqqa ta'limi fanlarini o'qitishda innovatsion texnologiyalar asosida ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlarini loyihalash)

Musiqqa fanlarni o'qitishda o'quvchilarni mavzularni o'rganishda, o'zlashtirishda, ularni musiqqa fanlar bo'yicha bilim, malakalarni egallashlariga erishish katta ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon o'quvchilarning musiqqa saviyasini oshirishdagi etakchi omillardandir.

Pedagoglarda musiqqa ta'lim faoliyatni tashkil etishga imkon beradigan malakalar guruhlari:

- 1) bilishga oid malakalar;
- 2) loyihalash malakalari;
- 3) ijodiy-amaliy malakalar;
- 4) tadqiqotchilik malakalari;
- 5) muloqotga kiruvchanlik (kommunikativ) malakalari;
- 6) tashkilotchilik malakalari;

Quyida ushbu malakalar orqali guruhlarining mohiyati yoritiladi:

Bilishga oid malakalar:

- ✓ talabalarning yosh va individual xususiyatlari, jamoaning
- ✓ ijtimoiy-psixologik o'ziga xosligini inobatga olgan holda o'quv-tarbiyaviy vazifalarni aniq belgilash;
- ✓ zamonaviy ta'lim talablaridan kelib chiqqan holda o'quv-tarbiya jarayonini didaktik, psixologik va metodik jihatdan rejalashtirish va tahlil qilish;
- ✓ ta'lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishning samarali shakl, metod va vositalarni asosli ravishda tanlay olish;
- ✓ talabalar tomonidan o'quv dasturi talablaridan kelib chiqqan holda materiallarni o'zlashtirganlik natijalarini, o'quvchilarning tarbiyalanganlik va rivojlanganlik darajasini aniqlay bilish;
- ✓ talabalarining bilishga bo'lgan qiziqish, ehtiyoj va faolliklarini rivojlantirish bo'yicha turli ko'rinishdagi ishlarni olib borish;
- ✓ darsda, darsdan tashqari sharoitlarda, to'garaklarda turli tarbiyaviy ishlarni olib borish;
- ✓ talabalar, ularning ota-onalari bilan individual ishlarni amalga oshirish;
- ✓ ta'lim jarayonida turli ko'rsatmali qurollar, zamonaviy texnik vositalar, axborot va ilg'or pedagogik texnologiyalaridan samarali foydalanish;



- ✓ didaktik material va ko'rsatmali qurollarni ishlab chiqish;
- ✓ o'z-o'zini tahlil qilish, o'z-o'zini baholash va shaxsiy faoliyatda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni tuzatish.

Loyihalash malakalari:

- ✓ dars yoki tarbiyaviy tadbirlarning loyihalarini yaratish;
 - ✓ dars yoki tarbiyaviy tadbirning texnologik xaritasini yaratish;
 - ✓ dars yoki tarbiyaviy tadbir mohiyatini bosqichma-bosqich yoritish;
 - ✓ ta'limiy yoki tarbiyaviy faoliyat maqsadini aniq belgilash;
 - ✓ maqsadga mos keladigan vazifalarni aniqlash;
 - ✓ o'quv materialining didaktik, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarini bayon etish;
 - ✓ o'quv yoki tarbiyaviy xarakterdagi material mazmunini shakllantirish;
 - ✓ o'quv yoki tarbiyaviy material mazmunini ochib beradigan bir qancha ma'lumotlar o'rtasidagi o'zaro izchillikni ta'minlash;
 - ✓ talabalarni mustaqil fikrlashga rag'batlantiruvchi savollar tizimini ishlab chiqish;
 - ✓ dars yoki tarbiyaviy tadbirning metodik tuzilishini asoslash;
 - ✓ dars yoki tarbiyaviy tadbir jarayonida bajariladigan pedagogik topshiriqlar tizimini aniqlash;
 - ✓ yangi materialni bayon etishda turli zamonaviy yondashuvlarni qo'llash;
 - ✓ muayyan izchillikka ega test topshiriqlarini ishlab chiqish;
 - ✓ talabalarning bilim darajasini tashxislash jarayonini asoslash;
 - ✓ talabalar jamoasi hamda alohida talabaning tarbiyalanganlik va rivojlanganlik darajasini baholash mexanizmini yaratish.
- Ijodiy-amaliy (konstruktiv) malakalar:
- ✓ alohida-alohida ma'lumotlardan foydalangan holda yaxlit o'quv va tarbiyaviy xarakterdagi materialni shakllantirish;
 - ✓ o'quv materialini turli rasm, surat, jadval, diagramma, model va boshqalar bilan boyitish;
 - ✓ o'ziga xos, original o'quv materialini tayyorlash;
 - ✓ mustaqil ravishda yangi metodni asoslash;
 - ✓ o'quv mashg'uloti (dars) va tarbiya tadbir uchun ko'rsatmali qurollar to'plamini yaratish;
 - ✓ dars yoki tarbiyaviy tadbirning texnologik pasporti, xaritasini yaratish;
 - ✓ dars yoki tarbiyaviy tadbirda foydalanish uchun multimediya materiallarini yaratish;
 - ✓ o'quv materialining taqdimot variantini tayyorlash;
 - ✓ turli mavzulardagi tarbiyaviy tadbirlar uchun talabalarning faol ishtirokida video roliklar yaratish;



- ✓ dars konspektini tayyorlash;
 - ✓ turli shakl va metodlarga asoslangan sinov topshiriqlari (savol, topshiriq, masala, misol, mashq, test), baholash mezonlarini ishlab chiqish;
 - ✓ nazorat ishlarini tashkil etishga ijodiy yondashish.
- Tadqiqotchilik malakalari:
- ✓ ilmiy izlanish olib borish metod va vositalarini tanlash;
 - ✓ manbalar bilan ishlash (nazariy tahlil, muhim ma'lumotni topish, tezis, konspekt, referat, kartoteka bilan ishlash, adabiyotlar ro'yxatini tuzish);
 - ✓ nashr manbalari va axborot texnologiyalari (Internet) materiallari bilan tanishish;
 - ✓ anketa so'rovini tashkil etish;
 - ✓ zamonaviy pedagogik muammolarni aniqlash, dolzarbligini asoslash;
 - ✓ mavjud manbalar asosida muammoning ishlanganlik darajasini o'rganish;
 - ✓ pedagogik tajriba olib borish metodikasini ishlab chiqish;
 - ✓ uch (yoki to'rt) bosqichli pedagogik tajribani ilmiy-metodik tashkil etish;
 - ✓ ilmiy maqola, axborot va hisobot tayyorlash;
 - ✓ ilmiy maqolalarni nashrga tayyorlash;
 - ✓ pedagogik tajriba natijalarini umumlashtirish va tahlil qilish;
 - ✓ tahlil natijalarini matematik-statistik tahlil qilish;
 - ✓ statistik tahlil natijalariga ko'ra xulosa chiqarish va ilmiy-tavsiyalarni ilgari surish;
 - ✓ pedagogik tajriba natijalarini muhokama qilish (savollar qo'yish, shaxsiy fikrni bildirish, tanqidiy fikrlarni ayta olish, amaliy takliflar berish).
- Tashkilotchilik malakalari:
- ✓ talabalarning o'quv-bilish faoliyatini boshqarish;
 - ✓ talabalarda ilmiy bilimlarni o'zlashtirish ko'nikma, malakalarini shakllantirish;
 - ✓ dars jarayonida vaqtni to'g'ri taqsimlash va rejani samarali bajarish;
 - ✓ talabalar bilan individual ishlarni tashkil etish;
 - ✓ guruh jamoasi bilan jamoaviy yoki guruhli ishlarni olib borish;
 - ✓ talabalarda ta'lim muassasasi ichki tartib-qoidalariga rioya etish ko'nikmalarini shakllantirish;
 - ✓ talabalarga o'quv va ijtimoiy topshiriqlarni berish;
 - ✓ o'quvchilarning diqqatini boshqarish;
 - ✓ talabalar o'rtasida bahs-munozara tashkil etish va uni boshqarish;
 - ✓ darslarda o'yin texnologiyalaridan foydalanish;
 - ✓ talabalarning o'quv faolliklarini oshirish, ularning mustaqilligini ta'minlash;



- ✓ kichik guruhlarni shakllantirish asosida topshiriqlar bajarilishini ta'minlash;
- ✓ talabalar bilan hamkorlikda tarbiyaviy ishlar ro'yxatini ishlab chiqish.
Muloqotga kiruvchanlik (kommunikativ) malakalari:
- ✓ talabalar, ota-onalar, ta'lim muassasasi rahbariyati, hamkasblar bilan muloqotda turli shakl, metodlardan foydalanish;
- ✓ pedagogik amaliyotning barcha ishtirokchilari bilan amaliy, ishchanlik yoki shaxsiy munosabat o'rnatish;
- ✓ talabalarga ma'lumotlarni etkazishning samarali yo'l va vositalarini topish;
- ✓ topshiriqlar yuzasidan talabaning javobi yoki shaxsiy fikrlarini tinglay bilish;
- ✓ pedagogik jarayonlarda yuzaga keladigan nizolarning oldini olish, bartaraf etish yoki rivojlantirish;
- ✓ jamoa va turli bosqichdagi talabalar o'rtasida o'zaro munosabatlarni mustahkamlash;
- ✓ jamoada sog'lom raqobatga asoslangan muhitni qaror toptirish;
- ✓ talabalarning faoliyatlarini rag'batlantirish;
- ✓ talaba javobidagi xato yoki xatti-harakatidagi kamchiliklarga munosabat bildirish;
- ✓ talabalar bilan ta'limiy hamkorlikka erishish.

Izchillikni ta'minlovchi (protsessual) malakalar:

- ✓ o'quv materialini mazmunini bayon qilishda nutqiy izchillikni ta'minlash;
- ✓ og'zaki va yozma nutqni bayon qilishda o'zaro izchillikni qaror toptirish;
- ✓ talabalarning mavjud bilimlari bilan yangi o'zlashtiriladigan bilimlar o'rtasida muayyan izchillikni yuzaga keltirish;
- ✓ talabalarning mavjud hayotiy qarashlarini yangi g'oyalar bilan boyitish;
- ✓ darsda va darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarda talabalarni faol faoliyatga undovchi metodlardan foydalanishda muayyan izchillikka erishish;
- ✓ talabalar BKM darajasining DTS talablariga muvofiq kelishida ma'lum izchillikka erishish; guruh jamoasining ijtimoiy-psixologik holatini o'rganish metodlaridan foydalanishda
- ✓ pedagogik faoliyat izchilligini ta'minlash; talabalarning tarbiyalanganlik va rivojlanganlik darajasini baholashda doimiy izchillikka erishish.
- Texnik-texnologik malakalar:
 - ✓ ta'lim jarayoniga zamonaviy texnik vositalarini tatbiq etish;
 - ✓ dars jarayoni mazmunini texnologik pasport va texnologiya xarita yordamida yoritish;



- ✓ o'quv materiali mazmunini yorituvchi slaydlarni tayyorlash;
- ✓ o'quv mashg'ulotlarini axborot texnologiyalari, interfaol metodlar yordamida tashkil etish;
- ✓ ixtisoslik fani xususiyatidan kelib chiqqan holda turli texnik vositalardan foydalanish;
- ✓ darslarda proektorni qo'llay olish;
- ✓ o'quv materiallarini audio va video yozuvlari, taqdimot asosida bayon qilish;
- ✓ talabalarda o'quv materialini mustahkamlash va o'quv topshiriqlarini berishda axborot texnologiyalarini qo'llash;
- ✓ kompyuter imkoniyatlaridan foydalanishga doir o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish;
- ✓ talabalarning BKMni baholashni kompyuter asosida tashkil etish;
- ✓ talabalarning bilim olganlik va tarbiyalanganlik darajalarini tashxis qilishda kompyuter yordamiga tayanish va b.sh.

Musiqqa darslarida «Bumerang» texnologiyasini qo'llash.

«Bumerang» texnologiyasi.

«Bumerang» texnologiya bir mashg'ulot davomida o'quv materialini chuqur va yaxlit holatda o'rganish, ijodiy tushunib etish, erkin egallashga yo'naltirilgan. U turli mazmun va harakterga (mommoli, muozarali, turli mazmunli) ega bo'lgan mavzularni o'rganishga yaroqli bo'lib o'z ichiga og'zaki va yozma ish shakillarini qamirab oladi hamda bir mashg'ulot davomida har bir ishtirokchining turli topshiriqlarini bajarishini, navbat bilan o'quvchi yoki o'qituvchi rovida bo'lishi kerakli ballni to'plashga imkoniyat beradi.

«Bumerang» texnologiyasi tanqidiy fikrlash mantiqni shakillantirishga imkoniyat yaratadi; xotirani, g'oyalarni fikrlarni, dalillarni yozma va og'zaki shakillarda bayon qilish ko'niqmalarni rivojlantiradi.

- jamoa bilan ishlash mahorati;
- muomilalik;
- hushfellik;
- ko'nikuvchanlik;
- o'zgalar fikriga hurmat;
- faollik;
- rahbarlik sifatlarini shakillantirish;
- ishga ijodiy yondoshish;
- o'z faoliyatining samarali bo'lishiga qiziqish;
- o'zini holis baholash.






1-topshiriq. Ushbu rasmda berilgan Yakkanovozni, jo'navozni va jo'rsozni toping. (1-rasm)

Mashg'ulotning borishi:

1. Yakkanovozlik, jo'navozlik va jo'rsozliklarni yutuq va kamchiliklarni ifodalang.
2. Musiqa tinglashni qoidagalarini ifodalang.

1-Topshiriq. Yakkanovozlik, jo'navozlik va jo'rsozliklarni yutuq va kamchiliklarni ifodalang.

<p>Yakka navoz</p>	
<p>Jo'r navoz</p>	
<p>Jo'rsoz</p>	

1-rasm

2-rasm

Tanlangan javobni kartochkalarda tasvirlangan rasm yonidagi bo'sh katakchaga joylashtiring. (2-rasm)

To'ldirilgan kartochkalar doskaga ilinib qo'yiladi.

Har bir guruhdan vakil chiqib mavzuni tushuntirib beradi.

Har bir kartochkalardagi guruh javoblari tahlil qilinadi va xulosa keltiriladi.

1-Topshiriq. Musiqa tinglashni qoidagalarini ifodalang.

Tinglash madaniyati:

Siz hayotda juda ko'p musiqa tinglaysiz:

Radio - televidenie orqali. teatr va konsertlarda. kino lavhalarida, maktabda va uyda. Musiqa yangraydi. Xalq o'z hayotini qo'shiqda, musiqiy ohangda, raqsda ifoda etadi. Ko'p musiqalarni kompozitorlar yaratadilar.

Ular qo'shiklar, kuylar, opera, baletlar, xor va orkestr uchun asarlardadir.



Musiqqa tinglashni bilish zarurdir. Buning uchun quyidagi qoidagalarga rioya etish juda zarurdir.

1. Musiqani diqqat bilan tinchlikda tingla.

2. To'g'ri va qulay o'tir.

3. Shovqin qilmang, gaplashmang, do'stlaringgizga musiqqa tinglashga xalaqit bermang.

4. Musiqqa to'xtaganida qalbingdagi musiqani tinglab va o'ylab ko'ring.

Musiqqa sizda qanday taasurot qoldirdi?

Musiqqa tinglaganda ko'z oldingizga nima keldi?

Kompozitor ushbu musiqqa orqali nima demoqchi?

Musiqqa qanday o'zgardi?

Kim uni ijro etdi? (yakkaovozmi? jo'rnavoz-likmi? Jo'rsozlikmi? orkestrmi? va boshqalar.)

5. Diqqat bilan o'qituvchini savolini eshit, o'z taasurotlaring xaqida gapirib ber, musiqqa haqida fikr yurit, asar xaqidagi suhbatda qatnash.

6. Uyda musiqqa tinglang.

2-amaliy mashg'ulot: Musiqiy fanlarni o'qitishning mohiyati, mazmuni, maqsadi va vazifalari.

1-topshiriq. Musiqqa ta'lim jarayonining qonuniyatlarini izohlab bering.

2-topshiriq. Kasbiy ta'limning tashkil etish shakl, metod va vositalarini toifalash jadvalida izohlang.

TOIFALASH JADVALI

Toifa-xususiyat va munosabatlarni muhimligini namoyon qiluvchi (umumiy) alomat.

Ajratilgan alomatlar asosida olingan ma'lumotlarni birlashtirishni ta'minlaydi.

Tizimli fikrlash, ma'lumotlarni tuzilmaga keltirish, tizimlashtirish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Shakllar	Metodlar	Vositalar

2-amaliy mashg'ulot

«Skarabey» texnologiyasiga misol (3-sinfda musiqqa darslari)

Dars ishlanmasi «Skarabey» metodi misolida)



Darsning mavzu: 1. Musiqaning ifoda vositalari.

2. Musiqadagi dinamik belgilar.

Darsning maqsadi: O'quvchilarni mustaqil fikrlash, erkin so'zlash, o'zining mehnati bilan ko'proq natijaga erishishga o'rgatish.

Darsni jihozlash: Reja konspekt, 3- sinf uchun darsligi, mavzuga mos rasmlar, tarqatma kartochkalar, mavzu yuzasidan savollar.

Darsning turi: No'anaviy.

Darsning borishi:

Tashkiliy qism:

1. O'quvchilar davomatini aniqlash, tashqi ko'rinishlarini, ish qurollarini tashkil etishni tekshirish.

2. O'tgan dars mavzusini va yangi mavzu uchun zaruriy materiallarni takrorlash.

O'tgan dars yuzasidan savol-javob o'tkazish, yangi pedagogik texnologiyalarini qo'llagan holda o'quvchilar bilimini nazorat qilish.

3. Yangi mavzu yuzasidan yo'l-yo'riqlar ko'rsatish.

A) O'quvchilarda yangi mavzularni tushuntirishdan avval o'tilgan mavzular mustahkamlanadi va darsda yangi mavzu oldingi mavzularga bog'lab o'tiladi, ushbu darsda «**Skarabey**» texnologiyasi qo'llaniladi.

Musiqaning mazmunini yoritishda turli ifoda vositalaridan foydalaniladi. Ifoda vositalariga sur'at, usul, tovush kabilar kiradi. Quyidagi uch misolda musiqaning ifoda vositalaridan biri bo'lgan sur'atning kuy kayfiyatiga qanday ta'sir etishini kuzating.

Quvnoq, o'rtacha va og'ir sur'atdagi asar parchalaridan o'quvchilarga tinglash uchun berilib o'qituvchi tomonidan tushuntiriladi.

Musiqaning dinamik belgilari.

Kompozitorlar biron – bir musiqqa asarini yaratganlarida ularning ma'lum qismlarini kuchli yoki kuchsiz ijro qilinishini maxsus belgilar bilan ko'rsatadilar. Bu belgilar asarni yoqimli, jiloli eshitilishiga yordam beradi. Musiqada bu belgilar «Dinamik belgilar», deb ataladi.

F - (forte) – kuchli

MF – (mezzo forte) – kuchliroq

P – (piano) - kuchsiz

MP – (mezzo piano) – kuchsizroq

So'ngra tarqatma materiallar orqali yangi mavzu mustahkamlanadi. Sinf o'quvchilari 3 ta guruhga bo'linadilar. Guruhlarga kartochkalar aralashtirilib tarqatiladi va topshiriq tushuntiriladi.

Guruhdagi o'quvchilarning vazifasi:



1) Sur'ati, tovush jo'shqinligi, tovush jarangdorliklarini quyidagi rasmda ko'rsatilgandek mustaqil joylashtirish.

2) O'quvchilarga o'qituvchi tomonidan musiqiy asarlar (quvnoq, nafis, kuychang) tinglash uchun beriladi (audioyozuvda yoki ijro etiladi). Guruhlar shu musiqqa mazmuniga mos ertak so'zlab berishlari kerak.

Sur'ati

Tez

O'rtacha

Og'ir

Tovush jo'shqin.

Quvnoq

**Engil yorqin
yorqin nafis**

Kuychang

Tovush jarangdorligi

f

mp

p

Har bir guruhning joylashtirgan kartochkalari doskaga skoch yordamida ilib qo'yiladi. Har bir guruhdan vakil chiqib, mavzuni va guruhlarining musiqaga mos ertak mazmunini tushuntirib beradilar. Guruh javoblari tahlil qilinib xulosa keltiriladi.


3-amaliy mashg'ulot: Musiqqa fanlarini o'qitishda xorijiy mamlakatlar tajribalari

1-amaliy mashg'ulot. Kasbiy ta'lim bo'yicha rivojlangan mamlakatlardagi ilg'or tajribalar. (4 soat)

1-topshiriq.

1. Musiqqa ta'lim yo'nalishi bo'yicha AQSh va Angliya ta'lim tizimini "Venn" diagrammasida ifodalang.

2. Kasbiy ta'lim yo'nalishi bo'yicha Fransiya va Korea ta'lim tizimini "Venn" diagrammasida ifodalang.



2-topshiriq.



1. Musiqqa ta'lim bo'yicha rivojlangan Norvegiya, Turkiya va Daniya mamlakatlardagi ilg'or tajribalarni tahlil qiling va T-jadvalida izohlang.

Asosiy farqlar	
Ijobiy	Salbiy

2-amaliy mashg'ulot

«TARMOQLAR» metodi (Klaster)

(misol) “Balet haqida tushuncha”

O'qituvchi: Bolalar! Balet haqida qani, kim gapirib beradi?

O'quvchilar:

O'qituvchi: Raqs tushishda u oddiy raqsdan nimasi bilan farq qiladi?

O'quvchilar:

O'qituvchi: Baletda raqsdan tashqari qanday muhim element bor?

O'quvchilar:


O'qituvchi: Uning musiqasini kuylab bera olasizlarmi?

O'qituvchi: Endi birgalikda tinglaymiz. Bu asarning kuyini P.I Chaykovskiy yozgan. Baletning nomi «Oqqush ko'li».

Balet – musiqqa va raqs harakatlari orqali obrazlar, voqealar yaratish san'atidir. Balet asarini dramatik mavzu, raqs, imo-ishora, nafis harakatlar, musiqqa, sahna bezaklari va kiyim-kechaklar tashkil qiladi. Butun dunyoga mashhur bo'lib ketgan «Oqqush ko'li», «Qarsildoq» va «Uyqudagi go'zal» baletlarini XIX asrda yashagan rus kompozitori Petr Ilich Chaykovskiy yaratgan.




Rus kompozitori P.I.Chaykovskiyning mashhur balet asarlari



Bu baletlarni bizning xalqimiz ham yaxshi biladi, sevib tomosha qiladi. Yana XX asrda yaratilgan «Gayane», «Spartak» (A. Xachaturyan), «Bog'chasaroy fontani» (B.Asafev), «Romeo va Juletta» (S.Prokofev) baletlarini ham ko'pchilik biladi.

O'qituvchi: Balet san'ati O'zbekistonda ham rivoj topgan. XX asrning 30-yillaridan boshlab «Paxta» (Roslavets), «Orzu» (I.Akbarov), «Sevgi tumori» (M.Ashrafiy), «Tanovar» (A.Kozlovskiy) kabi baletlar yaratildi. 80-yillarda o'zbek bastakori Ulug'bek Musaev tomonidan yaratilgan «Hind dostoni» va «To'maris», Avaz Mansurovning bir pardali «Sharq afsonasi» baletlari, 90-yillarda esa Mustafu Bafoev «Ulug'bek burji» va «Nodira» milliy raqs uslubidagi baletlar yaratilgan.



4-amaliy mashg'ulot: Musiqqa ta'limi fanlarni o'qitishda innovatsion texnologiyalarga asoslangan ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini loyihalash.

NAZARIY DARS VA AMALIY MASHG'ULOTLARNI REJALASHTIRISH BOSQICHLARI

Musiqqa ta'limi fanida nazariy dars- rejali tashkillashtirilgan, aniq maqsadga qaratilgan va ta'lim beruvchi tomonidan boshqarib turiladigan ta'lim va tarbiya jarayonidir. Bu jarayonda ma'lum bir maxsus soha bo'yicha nazariy bilimlar tizimli ravishda ta'lim oluvchilarga etkaziladi. Bu jarayonda ta'lim beruvchi nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash yo'llari bilan tanishtiradi.

Nazariy dars asosan maxsus jihozlangan sinfxonalarda o'tkaziladi. Bu sinfxonalarda turli texnik vositalar ishlatilishi mumkin.

Amaliy mashg'ulot - aniq maqsadga qaratilgan va ta'lim beruvchi tomonidan boshqarib turiladigan, aniq bir topshiriqni bajarish uchun kerakli nazariy darsda olingan maxsus bilimlar asosida malaka va ko'nikmalar shakllantirish maqsadida olib boriladigan rejali didaktik harakatga aytiladi.

Amaliy mashg'ulot kasb-hunar ta'limining tarkibiy qismi bo'lib, o'quv ustaxonalarida, laboratoriyalarda, o'quv poligonlarida ish o'rnida joylashgan real vositalardan foydalanilgan holda o'tkaziladi.

Kasb-hunar ta'limi tizimining xususiyati shuki, nazariya va amaliyot bir biridan alohida, ya'ni nazariy ta'lim o'quv auditoriyada, amaliy mashg'ulotlar ustaxona va laboratoriyalarda amalga oshiriladi. Nazariy darsda kerakli maxsus bilimlar amaliy darsga nisbatan ilgariroq berilishi ta'minlanishi kerak. Amaliy



mashg'ulotlarda ta'lim beruvchi ish o'rnida faqat ish topshiriqlariga tegishli qo'shimcha bilimlarni berishi kerak. Agarda amaliy mashg'ulotlarda ta'lim beruvchita'lim oluvchilarning dastlabki bilimlarida kamchiliklar borligini aniqlasa, u kerakli nazariy bilimlarni beradi.

Darsni rejalashtirish - kutilayotgan o'quv natijalariga erishish maqsadida o'quv jarayoniga tayyorgarlik ko'rish: ta'lim metodlarini tanlash, tarqatma materiallar va o'quv-didaktik vositalar tayyorlash.

Barcha imkoniyatlarni inobatga olgan holda, bir marta tuzilgan rejada o'zgarishlar bo'lmasligiga harakat qilish kerak. Ta'lim beruvchi uchun rejalashtirish o'quv jarayonini boshqarishda xatolarga yo'l qo'ymaslik deganidir. Ta'lim oluvchi uchun rejalashtirish, u bo'lajak o'quv jarayoni to'g'risida va ta'limdan nimalarni kutishi mumkinligi haqidagi aniq tasavvurga ega bo'lishi deganidir.

Nazariy dars va amaliy mashg'ulotlarni rejalashtirish quyidagi darajalarda amalga oshirilishi mumkin:

- Butun ta'lim davri darajasida;
- Bir o'quv yili darajasida;
- bir semestr darajasida;
- bir oy darajasida;
- bir hafta darajasida;
- bir kun darajasida;
- nazariy darsning bir soati darajasida.

Ko'pincha har xil vaqt darajalari uchun mo'ljallangan rejalar bir vaqtning o'zida qo'llanadi.


Maqsadlar va mazmunlarni rejalashtirish odatda maxsus bir soha bo'yicha bo'ladi va uni ta'lim beruvchining o'zi tuzadi. Buning uchun tanlangan maxsus soha bir necha mavzularga yoki material sohalariga bo'linadi. So'ng metodlar va sharoitlar rejalashtiriladi.



Bu munosabatda e'tiboringizni «Ta'lim beruvchining didaktik hatti-harakatlari» modeliga qaratmoqchimiz(1.1-chizma).

1.1-chizma. Ta'lim beruvchining didaktik hatti-harakatlari

Yuqorida tasvirlangan ta'lim beruvchining didaktik hatti-harakatlari modeli



bir maxsus sohani rejalashtirish maqsadida qo'llanishi mumkin.

Nazariy dars va amaliy mashg'ulotlarni to'g'ri rejalashtirish uchun, ta'lim beruvchi o'zining vaziyatidan boshlashi lozim, ya'ni «Mavzuni ilm-fanning eng so'nggi zamonaviy talablariga muvofiq o'rgata olamanmi yoki buning uchun men yana alohida tayyorlanishim kerakmi?» hamda «Biror ishlab chiqarilgan nazariy dars rejasi yoki amaliy mashg'ulotlarning rejasi bormi?» degan savolga javob berishi kerak.

Bundan keyin, ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarning dastlabki bilim va ko'nikmalarini aniqlab olishi lozim.

Buning uchun quyidagi asosiy savollar qo'yilishi lozim:

- Nazariy dars yoki amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish uchun ta'lim oluvchilarning dastlabki bilimlari qay darajada?
- Nazariy dars va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish uchun qanday shart-sharoitlar mavjud?
- Qanday o'quv mazmunlar o'rgatilishi ko'zda tutilmoqda?

Rejalashtirish uchun yuqoridagi savollarni o'rganib chiqish – nazariy dars va amaliy mashg'ulotning boshqa barcha tayyorlash harakatlariga asosdir. Bu tushunchalar va savollar o'rtasidagi bog'liqlikni quyida ko'rsatilgan omillar aniq ko'rsatadi.

Maqsadlar: Nima uchun ?



Har bir nazariy dars va har bir amaliy mashg'ulot oldindan belgilangan maqsadlarga rioya qilishi lozim. Odatda o'quv dasturi asosida belgilashimiz mumkin bo'lgan aniq bir maqsadga erishilishi lozim. Maqsadlar yozma ravishda nazariy dars rejasiga kiritiladi va maqsad erishilgan-erishilmaganligi test va topshiriqlar yordamida tekshiriladi va mustahkamlanadi.

Mazmunlar: Nima ?

Belgilangan o'quv maqsadlarga muvofiq ravishda bilimlar sohaning mazmuni (shu jumladan ko'nikmalar va o'zini tutish tarzlari) belgilanadi. Bu mazmunlar bir tomondan kerakli dastlabki bilimlarni (nazariy dars mazmunini) va boshqa tomondan topshiriqlarni bajarish uchun kerakli maxsus bilimlarni (amaliy mashg'ulot mazmunini) inobatga olishi kerak.

Metod: Qay tarzda ?

Agar maqsadlar va mazmunlar aniq bo'lsa, aynan shunday metodlar tanlab olinishi keraki, ular shu maqsad va mazmunlarni o'lchanadigan natijalarga aylantira olishlari lozim. Bu munosabatda "an'anaviy" va "interfaolmetodlar" deb atalgan metodlar ta'lim beruvchi tomonidan tanlab olinadi va qo'llanadi.

Sharoitlar: Nimalar yordamida ?

Sharoitlar deganda, birinchi navbatda moddiy-texnikshart-sharoitlar tushuniladi. Bir tomondan, moddiy-texnik sharoitlar, ya'ni binolar, sinfxonalar, o'quv ustaxonalar, laboratoriyalar, ularning jihozlanganlik darajasi, instrumentlar, chiqim materiallarning umumiy holati va hokazo, chunki ular ma'lum sifat standartlariga javob berishi kerak.

Boshqa tomondan esa, o'quv vositalari tushuniladi, chunki ular o'quv jarayondagi bilimlarni o'zlashtirilishiga yordam beradi. O'quv maqsadlariga mo'ljallangan ko'plab o'quv vositalari mavjud. Lekin gap vositalarning ko'pligida emas, balki muayan o'quv maqsadiga erishish uchun ma'qul keladigan vositalarni tanlab olishdadir.

Tashkillashtirish: Bu qanday amalga oshiriladi?

Yuqorida aytilgan hamma narsalar vaqt omilini inobatga olgan holda tashkil qilinishi kerak. Chunki har bir nazariy dars va har bir amaliy mashg'ulot uchun aniq vaqt me'yorlari bor va aynan shu vaqt doirasida o'quv maqsadlarga erishish lozim. Buning uchun nafaqat puxta reja, balki unumli tashkillashtirish ham kerak. Vaqt davri, vaqt davomi va o'quv joyi – tashkillashtirish jarayonida belgilanadi. O'rgatish va o'rganishni tashkil qilishning xilma-xil imkoniyatlari mavjud.


Natijalar: Maqsadga erishildimi?

Nazariy dars yoki amaliy mashg'ulotning oxirida maqsadlarga erishilgan-erishilmaganligi tekshirilishi kerak. Buning uchun baholash vositalari, metodlari va mezonlari belgilanishi lozim. Buning imkoniyatlari – mashqlar, og'zaki va yozma



testlar hamda imtihonlar. Ular ta'lim oluvchilarning qobiliyatlari, bilim, ko'nikma va malakalarini baholash imkoniyatini yaratadi.

O'qitish va o'qish sikli- nazariy dars va amaliy mashg'ulotlarni rejalashtirish omillariga asoslangan bo'lib, nazariy dars va amaliy mashg'ulotlar rejalashtirish, amalga oshirish hamda xulosa chiqarish bosqichlariga taalluqli didaktik hatti-harakatlarni tushuntiradi (1.2-chizma).



1.2-chizma. O'qitish va o'qish sikli

Bu siklda nazariy dars va amaliy mashg'ulot bir-biridan ajratilmaydi.

1-bosqich:

Nazariy dars va amaliy mashg'ulotga nisbatan inobatga olinishi kerak bo'lgan mavjud vaziyat va dastlabki shart-sharoitlarni o'rganish. Shu o'rinda 3 xil tahlil, ya'ni adresatlar (ta'lim oluvchilar) tahlili, shart-sharoitlar tahlili va maxsus soha (mazmun) tahlili amalga oshirilishi lozim. Bu tahlillar odatda ta'limning boshlanishida, natijalari esa keyinroq kerak bo'ladi.

2-bosqich:

O'quv dasturi asosida o'quv maqsadlarini belgilash yoki aniqlash. Nazariy dars va amaliy mashg'ulot uchun maxsus o'quv maqsadlar belgilab olinadi.



3-bosqich:

Nazariy dars yoki amaliy mashg'ulot rejasini tuzish. Bu rejada barcha mazmunlar, mavzular, rejalashtirilgan metodlar, tanlab olingan o'quv-didaktik materiallarga muvofiqholda o'quv vositalar hamda umumiy vaqt taqsimoti aks etadi.

Bu rejada nafaqat ta'lim beruvchining hatti-harakatlari, balki ta'lim oluvchilarning rejalashtirilgan hatti-harakatlari ham ko'rsatilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

4-bosqich:

O'quv-didaktik materiallarni tayyorlash, chunki ular amalga oshirish bosqichining asosiy dastlabki shartlaridan biridir. Agar tayyor materiallar bor bo'lsa, ularning orasidan to'g'ri keladiganlari tanlab olinadi. Agar tayyor o'quv-didaktik materiallar yoki o'quv vositalar bo'lmasa, ular ishlab chikarilishi kerak. Odatda bosma o'quv vositalar, masalan tarqatma materiallar, slaydlar va topshiriq varaqalari kerak bo'ladi, ularga qo'shimcha ravishda esa matnli o'quv adabiyotlari ishlatiladi. Xuddi shunga o'xshab darsdan oldin plakat loyihalari va plakatlarning o'zi ishlab chiqiladi.

5-bosqich:

Rejalashtirish va tashkillashtirish asosida nazariy dars va amaliy mashg'ulotni amalga oshirish (o'tkazish). Bu degani, barcha o'quv vositalari bilan jihozlangan sinfxona hamda, kerak bo'lsa, ustaxonada joylashgan o'quv burchagi va vaqt etarlicha bo'lishi kerak.

6-bosqich:

Nazariy dars va amaliy mashg'ulot davomida o'zlashtirilgan nazariy bilimlarni baholash. Bir tomondan, bu – ta'lim oluvchilar kerakli bilimlarni o'zlashtirib olganliklarining nazorati. Ya'ni «Ta'lim oluvchilar maqsadga erishishdimi?» degan savolga javob berilishi kerak. Boshqa tomondan esa, ta'lim beruvchi uchun o'z-o'zini hamda ishining sifati qanday bo'lganligi tekshirish. Ya'ni «Men oldimga qo'ygan maqsadlarimga erishdimmi?» degan savolga javob berilishi kerak. Ikkala holda ham o'lchanadigan natijalar bo'lishi muhimdir

5-amaliy mashg'ulot: Iqtidorli talabalarni qidirib topish.tanlash va ular bilan maqsadli ishlash metodlari.

Iqtidorli talabalar bilan ishlash Uzbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta ta'lim vazirligining 10 iyul 1998 yil 185-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Iqtidorli talabalarni izlash, aniqlash va ularni maqsadli tayyorlash to'g'risida Nizom"da belgilangan vazifalar



asosida amalga oshiriladi. Toshkent Davlat pedagogika instituti ham ushbu yuqorida ko'rsatilgan qonun xujjatlari asosida «Iktidorli talabalar bilan ishlash bo'limi» Nizomini tasdiklagan. Iktidorli yoshlar - O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va iqtisodiy tarakkiyotini xamda uning jaxon xamjamiyatida munosib o'rin egallashini ta'minlovchi muxim omil va millat ziynati xisoblanadi. Iktidorli talabalar bilan ishlash tizimi quyidagi ko'rinishga ega:

1. Iktidorli talabalar Oliy o'kuv yurtlarida psixologik-pedagogik testlar o'tkazish orkali tanlab olinadi;

2. Aniklangan iqtidorli talabani maqsadli tayyorlash chuqurlash-tirilgan dastur bo'yicha o'qitish va maqsadli dastur bo'yicha yakka tartibda o'qitish kabi o'quv-ijodiy, tarbiyaviy yo'nalishlarda olib boriladi. Vazirlikning 237- buyrug'iga asosan iqtidorli talabalarga mutaxassislik kafedralari olimlari nomzodlik dissertatsiya mavzusi beriladi (2-bosqichdan), dissertatsiya mundariyasi, kalendar rejasi ilmiy raxbari tasdiqlanadi. "Ustoz -shogird" tizimi asosida faoliyat yo'lga qo'yiladi (misol keltiramiz).

1-rasmda iqtidorli talaba bilan ishlash tizimi, 2-rasmda tayanch OTM va turdosh OTM bilan kadrlar tayyorlash tizimi keltirilgan.

3. Iktidorli talabalarga dars berishga ilmiy darajali va talabani maqsadli tayyorlash dasturi bo'yicha etarli bilimga ega bo'lgan professor-o'qituvchilar jalb etiladi. Ilmiy rahbar sifatida esa ijodi va uslubiy ishlash tajribasiga ega bo'lgan o'kuv-uslubiy va ilmiy faoliyati bo'yicha reytingi yuqori bo'lgan professor va dotsentlar tayinlanadi;

5. Iktidorli talabalar bilan ishlash o'kitishning individual-lashtirish, talabalarning intellektual salohiyati va qobiliyat imkoniyat-larini bilim olishga yo'naltirish hamda maksimal shart-sharoitlar yaratish kabi shakl va uslublarda tashkil etiladi.

Iktidorli talabalar bilan ishlash bo'limining vazifalari: iktidorli talabalarini izlash va anikdashni tashkil etish; talim olayotgan iktidorli talabalarning intellektual salohiyotini muntazam ravishda aniklab borish; iktidorli talabalarning moyilligiga karab, maqsadli tayyorlashni uyushtirish; chet tili va kompyuterni mukammal egallash maqsadida mashg'ulotlarni tashkil etish; fundamental ilmiy-tadqiqot ishlariga, ilmiy to'garaklarga va mualliflik jamoalariga jalb qilishni uyushtirish; iktidorli talabalarning ilmiy makalalarini chop etishiga hamda ularning ilmiy ishlari va ilmiy ishlanmalarini amaliyotga joriy etishda ko'maklashish; iktidorli talabalarning respublika va xalqaro miqyosda o'tkaziladigan ilmiy anjumanlarda ishtirok etishini hamda xorijiy davlatlarga o'qish va stajirovkaga yuborishni tashkil etish; iqtidorli talabalar safidan O'zbekiston Respublikasi davlat stipendiyalariga nomzodlarni maxsus tayyorlash; iktidorli talabalar o'rtasida muntazam ravishda sotsiologik tadqiqotlarni o'tkazib turish; marketing



tadqiqotlari, buyurtmachilar talabalarini chuqur o'rganish va tashkil etilayotgan talim xizmatlari banki asosida iqtidorli talabalarga bozor konyukturasini belgilovchi fanlarni tanlashda yordam kursatish; iqtidorli talabalarninig dolzarb mavzular asosida ilmiy maqolalari va ilmiy izlanishlarini Ommaviy axborot vositalari bilan xamkorlikda yoritib borish.

Asosidagi, 237- buyruq asosida iqtidorli talabalarni nomzodlik ITilari bo'yicha tegishli monitoring olib boriladi.

Iqtidorli talabalar bilan ishlashning shakl va uslublari.

Quyidagilar kiradi:

-o'kitishni individuallashtirish; talabalarning intellektual salohiyoti va qobiliyatlarini, imkoniyatlarini bilim olishga yunaltirish;

-talabalar qobiliyatini rivojlantirish uchun maksimal shart-sharoitlarni yaratish; ilmiy raxbar va maslaxatlarni belgilash.

-Iqtidorli talabalar bilan ishlashni sifatli tashkil etish maksadida institut, fakultet va kafedralarda kuyidagi ish kog'ozlarini yuritish tavsiya etiladi; iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'limining Nizomi; iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'limining ish rejasi; yillik hisobotlar; talabalarga oid rektorning buyruklari; fakultet, kafedralar bo'yicha iqtidorli talabalar ro'yxati; murabbiylarning iqtidorli talabalar buyicha bergan tavsiyalari va unta ilova etilgan xujjatlar va fotosuratlar; konferensiya, olimpiada, tanlov, viktorina o'tkazilishiga oid hujjatlar; iqtidorli talabalarni izlash va ularni maksadli tayyorlashga tegishli O'zbekiston Respublikasi Prizedenti Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, Oliy va o'rta maxsus talim vazirligining buyruqlari va Hayat qarorlari; xat va arizalarni qayd etish;

Maksadli tayyorlashning o'quv-ijodiy va tarbiyaviy dasturi iqtidorli talaba tomonidan tanlanadi va uning bajarilish bo'yicha nazorat muddatlari ko'rsatilgan shaxsiy o'quv reja va ilmiy-ijodiy ishlar rejasi tuziladi xamda fakultet ilmiy kengashi tavsiyasiga binoan oliy o'quv yurtining farmoyishi bilan tasdiklanadi.(asosan 237- buyruq asosida)

Ilmiy rahbar iqtidorli talaba va chuqurlashtirilgan holda o'rgani-lishi nazarda tutilgan fan o'qituvchilari bilan hamkorlikda ko'shimcha ishchi dastur va tematik - kalendar rejasi tuziladi. (asosan "Ustoz-shogird" tizimiga tayanib).

Xar o'kuv yilining yakunida iqtidorli talabaning qobiliyati, o'quv-ilmiy va sifatlarning reytingi aniqlanadi xamda uning shaxsiy ishiga tikiladi.

Iqtidorli talabalar bilan ishlash va aniqlashni tashkil etish; ta'lim olayotgan iqtidorli talabalarning intellektual salohiyatini muntazam ravishda aniqlab borish; iqtidorli talabalarning moyilligiga karab, ularning maqsadli tayyorlashni uyushtirish; chet tili va kompyuterni mukammal egallash maqsadida mashg'ulotlarni amalga -oshirish; fundamental ilmiy-tadqiqot ishlariga, ilmiy



to'garaklarga va mualliflik jamoalariga jalb qilishni uyushtirish; iqtidorli talabalarni ilmiy maqolalarni chop etishga hamda ularning ilmiy ishlari va ilmiy ishlanmalarini amaliyotga joriy etishga ko'maklashish; iqtidorli talabalarni respublika va xalqaro miqiyosda o'tkaziladigan ilmiy anjumanlarda ishtirok etishini ta'minlash hamda xorijiy davlatlarga o'qishga va stajirovkaga yuborishni tashkil etish; iqtidorli talabalar safidan O'zbekiston Respublikasi Davlat stipendiyalariga nomzodlarni maxsus tayyorlash; iqtidorli talabalarni ilm va fan arboblari, ishlab chiqarish korxonalarining raxbarlari va yirik mutaxassislari bilan uchrashuvlarni tashkil etish; iqtidorli talabalar uchun ixtisoslik bo'yicha kasb o'yinlarini tashkil etish; iqtidorli talabalar o'rtasida muntazam ravishda sotsiologik tadqiqotlarni o'tkazib turish; marketing tadqiqotlari, buyurtmachilar talabalarini chuqur o'rganish va tashkil qilayotgan ta'lim xizmatlarin banki asosida iqtidorli talabalarga bozor kon'yukturasini belgilovchi fanlarni tanlashda yordam ko'rsatish; zamonaviy axborot tizimidan foydalanishga shart-sharoitlar yaratish.

Oliy o'quv yurtlarida "Iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'limi" tashkil etiladi va uning rahbarlarini ilmiy daraja va univonga bo'lgan psixolog yoki pedpoglar safidan tayinlanadi.

3. Talabalar olimpiadasi

Talabalar olimpiadasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining buyrug'iga ilova sifatida tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlari talabalar olimpiadasi NIZOMi asosida o'tkaziladi. Respublika talabalar olimpiadasi talabalarining oliy ta'lim dasturidagi fanlardan olgan bilim ko'nikmalarni bo'lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini oshirish, iqtidorli va istedadli yoshlarni kadrlar tayyolash milliy dasturida ko'rsatilgan vazifalar asosida maqsadli tayyorlash bo'yicha ommaviy ravishda o'tkaziladigan intellektual musobaqalardir. Respublika olimpiadasi "Musiqqa nazariyasi va tarixi"dan iborat: Kasbiy fan tanlovi- kelajakdagi kasb faoliyati uchun zarur bo'lgan bilim, malaka, va ko'nikmalarlar tizimini shakllantiruvchi ixtisoslik fanlar majmuasini o'rgangan yuqori kurs talabalarining musobaqalaridir. Respublika talabalar olimpiadasi tashkil etish va o'tkazishda birinchi bosqich OO'Yulariga uslubiy yordamni mutasaddi OO'Yulari ta'minlaydi. Birinchi bosqich o'tkazish uchun ushbu nizom asosida xar bir o'quv yurtida tashkiliy ko'mita tuziladi va uning raxbari etib oliy o'quv yurti rektori tayinlanadi. Tashkiliy ko'mita oliy o'quv yurti beradigan bilimlarga asoslanib, olimpiada ni o'tkazish muddatlarini belgilaydi, topshiriqlarni tayyorlashni va baholashni nazorat qiladi. 2-bosqich OO'MTV tomonidan tasdiklangan mutasaddi oliy o'quv yurtlarida o'tkaziladi. Ularni samarali o'tkazish maqsadida mutasaddi oliy o'quv yurti rektori raxbarligida tashkiliy ko'mita tuziladi. Uning tarkibiga hakamlar, Adolat Xayati va Fanlar komissiyasi kiradi.



Respublika talablar olimpiadasi joriy yil davomida ikki bosqichda o'tkaziladi. Birinchi bosqich xar bir OO'Yularida fevral oyida o'tkaziladi. 2-boskich mutasaddi OO'Yularida apreldan-5may kunlarida o'tkaziladi.

Birinchi bosqich o'tgandan so'ng oliy o'quv yurti Tashkiliy qo'mitasi hisobot tayyorlaydi. Ushbu hisobotda ikkinchi bosqichda ishtirok etuvchi talabalar ro'yhati f.i;o., kursi ko'rsatilgan holda Nizomning 2,3-illovalari buyicha 20 martgacha Oliy va O'rta maxsus maktab muammolari institutiga takdim qilinishi shart. Birinchi boskich g'oliblari ro'yxati - Oliy va o'rta maxsus makgab muammolari institutining "iqtidorli talabalar" ma'lumotlar bankida umumlashtiriladi. Ushbu ma'lumotlar asosida monitoring olib borilib, talabalarning ikkinchi turga katnashishi rasmiylashtiriladi. Birinchi boskdch ma'lumotlarini muddatda etkazmagan oliy o'quv yurtining talabalar i ikkinchi boskichda katnashimdan mahrum qilinadi. Birinchi boskichda 1,2,3-o'rinlarni egallagan talabalar olimpiadaning ikkinchi boskichida ishtirok etish xuquqini oladilar.Ular ishtirokida tashkil etilgan komandalar - ikkinchi boskichda katnashadilar. Ikkinchi bosqichni o'tkazish tadbirlari mutasaddi oliy o'quv yurtlarida tuzilgan tashkiliy qo'mitalar tomonidan amalga oshiriladi.

4. Fan ilmiy to'garaklari

Iqtidorli talabalar bilan ishlashni sifatli tashkil etish makadida institut, fakultet va kafedralarda kuyidagi ish qog'ozlarini yuritish tavsiya etiladi; iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'limining Nizomi; iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'limining ish rejasi; yillik hisobotlar; talabalarga oid rektorning buyruqlari; fakultet, kafedralar bo'yicha iqtidorli talabalar ruyxati; murabbiylarning iqtidorli talabalar buyicha bergan tavsiyalari va unta ilova etilgan xujjatlar va fotosuratlar; konferensiya, olimpiada, tanlov, viktorina o'tkazilishiga oid xujjatlar; iqtidorli talabalarni izlash va ularni maksadli tayyorlashga tegishli O'zbekiston Respublikasi Prezident Farmonlari, Vazirlar Maxkamasining qarorlari, Oliy va o'rta maxsus talim vazirligining buyruqlari va Xayat qarorlari; xat va arizalarni kayd etish.

Har bir fan va ijodiy to'garak ichki nizomi ishlab chiqiladi, yillik ish rejalari tuziladi va faoliyati davriy ravishda nazorat qilinadi.

5.Talabalar ITllariga rahbarlik qilish

Iqtidorli talabalar kafedralar, dekanatlar tomonidan takdim etilgan ro'yxat asosida ular bilan individual suxbat o'tkazish orkali belgilanadi. Talabalarning kelajakda xar tomonlama etuk inson va malakali mutaxassis bulib shakllanishiga intilishlari, etuk siyosiy bilimga va dunyokarashga, mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, chet tillarini va kompyuter texnologiyasini o'zlashtirganligi, intiluvchanligi va kelajakda ilmiy ish qilishga moyilligi inobatga olinadi. *

Oliy o'quv, yurtlarida iqtidorli talabalarni izlash o'qishning dastlabki kunlaridan va kasbga yo'naltirish ishlarini olib borish jarayonida amalga oshiriladi.



Iktidorli talabalar, boshlang'ich bilimlar hisobga olgan holda, psixologik va pedagogik testlar o'tkazish orqali qobiliyatning rivojlanganlik darajasiga qarab aniqlanadi. Aniklangan iktidorli talabani maqsadli tayyorlash quyidagi o'quv-ijodiy, tarbiyaviy masalalar va yo'nalishlardan iborat: - kengaytirilgan o'quv rejasi bo'yicha o'qish va qo'shimcha malakaga ega bo'lish (tanlangan yo'nalish bo'yicha: chet tilidan tarjimon, maqsadli dastur bo'yicha yakka tartibda (individual) o'qitish; - chuqurlashtirilgan dastur bo'yicha o'qitish.

Raxbarlik "Ustoz shogird" tizimi orqali amalga oshiriladi.

6. Xulosa

Iktidorli talabalar bilan ishlash har bir professor – o'qituvchi faoliyatini asosiy qismi hisoblanishi shart.

1-Topshiriq.

1. Savollarga qisqa javob bering.

1. Ta'lim-tarbiyaning uzviyligi-
2. Ta'lim-tarbiyaning uzluksizligi –
3. talabalar mustaqil ta'limini –
4. Musiqqa ta'limda mustaqil ta'limini tashkil etish shakli –

2-Topshiriq

1- O'qitish jarayonida ta'lim-tarbiyaning uzviyligi va uzluksizligini izohlab bering.

2- Kasbiy ta'limda talabalarng mustaqil ta'limini tashkil etish jarayonini ifodalang.



V. KEYSLAR BANKI

1-keys. Pedagogika bo'yicha yaratilgan adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatdiki, ularda "Ta'lim jarayoni" tushunchasining mohiyati turlicha yoritilgan.

Ta'lim jarayoni – bu:

1. O'quvchilarga bilimlarni berib, ularda ko'nikma, malakalarni berish orqali u yoki bu darajada ularning o'zlashtirilishini ta'minlash (o'qitish)ga qaratilgan faoliyat.

2. O'quvchilar tomonidan BKMning o'zlashtirilishi (o'qishi)ni ta'minlovchi jarayonini boshqarishga yo'naltirilgan o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati (chunki o'qitish va o'qitish – ta'limning o'zaro aloqador va o'zaro shartlangan tomonlaridir).

3. O'qituvchining o'quvchilar tomonidan BKMni ongli va puxta o'zlashtirilishiga yo'naltirilib, bu jarayonda bilimlarning mustahkamlanishi, aqliy va jismoniy mehnat madaniyati elementlarini o'zlashtirish, dunyoqarashni boyitish va o'quvchilar xulq-atvorining shakllanishini ta'minlovchi rahbarligi va harakatlarining izchilligi.

4. O'quvchilarning o'qituvchi rahbarligida BKMni o'zlashtirish, qobiliyatlarini rivojlantirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga qaratilgan faol bilish faoliyati.

Savollar:

1. Ulardan qaysi biri ta'lim jarayonining mohiyatini to'la yoritadi?

2. Fikringizni qanday asoslaysiz?

Tinglovchilarga tavsiya etiladigan manbalar:

"Pedagogika" faniga oid bir necha manbalar.

Tinglovchilar uchun ko'rsatmalar:

1. Keys mohiyatini etarlicha anglab oling.

2. Berilgan manbalarga tayangan holda muammoning echimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlang.

3. Aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko'proq dahldor bo'lgan omil (yoki ikkita omil)ni ajrating.

4. Ana shu omillar asosida echimni asoslang.

5. Yechimni bayon eting.

Keysni echish jarayoni:

1. Talabalar keys mohiyatini u bilan ikki-uch marta tanishish orqali, sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoadada) bilan muhokama qilgan holda etarlicha anglab oladi.



2. Talaba sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoad) bilan muhokama qilgan holda muammoning echimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlaydi.

3. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko'proq dahldor bo'lgan omil (yoki ikkita omil)ni ajratib oladi.

4. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) echimni ajratib olingan omil (ikkita omil) asosida bayon etadi.

5. Yechim individual, kichik guruhlar yoki jamoa ishtirokida muhokama qilinadi.

O'qituvchining echimi

1. Mazmuniga ko'ra barcha ta'riflar ham ta'lim jarayonining mohiyatini yoritishga xizmat qiladi. Biroq, muayyan fan har bir kategoriya bo'yicha o'zining aniq terminologiyasiga ega bo'lishi, tushunchalar voqea, hodisa yoki jarayonning umumiy tavsifini, ob'ekt va predmetlarga xos muhim belgilarni yoritishga xizmat qilishi zarur.

2. Keltirilgan ta'riflar asosida tegishli jarayonga xos umumiy tavsiflar negizida tushunchani quyidagicha sharhlash maqsadga muvofiq: ta'lim jarayoni – o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida tashkil etilgan holda ilmiy bilim, ularni amaliyotda qo'llash ko'nikma, malakalarini o'zlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

2-keys. Birinchi sinfda o'qiyotgan Dilshod she'rni ifodali o'qib bergani uchun "besh" baho oldi. O'qituvchi uni buning uchun maqtadi. Dilshod uyga qaytgach, shoshganicha, bu xabarni oyisiga aytdi. U, hatto, o'zi yod olgan she'rni oyisiga ham o'qib bermoqchi bo'ldi. Ammo, oyisi Dilshodning xabarini sovuqqonlik bilan tingladi va o'g'liga qayrilab ham qaramasdan dedi:

- Besh oldingmi? Juda soz, barakalla, - endi ovqat tayyorlashimga xalaqit bermagin-da, o'ynab kel!

Dilshod tushlik ham qilmay ko'chaga chiqib ketdi.

Savollar:

1. Vaziyatni qanday baholaysiz?
2. Dilshodning onasi tarbiyaning qaysi tamoyillariga zid ish qildi?
3. Shu kabi vaziyatlar Dilshodning tarbiyasiga qanday ta'sir o'tkazadi.

Tinglovchilarga tavsiya etiladigan manbalar:

"Pedagogika" va "Psixologiya"ga oid adabiyotlar.

Tinglovchilar uchun ko'rsatmalar:

1. Keys mohiyatini etarlicha anglab oling.



2. Berilgan manbalarga tayangan holda muammoning echimini topishga xizmat qiluvchi tarbiya tamoyillarini aniqlang.

3. Aniqlangan tarbiya tamoyillari orasidan muammoga barchasidan ko'proq dahldor bo'lgan, eng muhim tamoyil (yoki ikkita tamoyil)ni ajrating.

4. Ana shu tamoyil (tamoyillar) asosida echimni asoslashga uring.

5. Yechimni bayon eting.

Keysni echish jarayoni:

1. Talabalar keys mohiyatini u bilan ikki-uch marta tanishish orqali, sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoadada) bilan muhokama qilgan holda etarlicha anglab oladi.

2. Talaba sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoadada) bilan muhokama qilgan holda muammoning echimini topishga xizmat qiluvchi tarbiya tamoyillarini aniqlaydi.

3. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) aniqlangan tarbiya tamoyillari orasidan muammoga barchasidan eng muhim tamoyil (yoki ikkita tamoyil)ni ajratib oladi.

4. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) echimni ajratib olingan tarbiya tamoyili (ikkita tamoyil) asosida bayon etadi.

5. Yechim individual, kichik guruhlar yoki jamoa ishtirokida muhokama qilinadi.

O'qituvchining echimi

1. Nihoyatda yoqimsiz vaziyat. Onasi Dilshodning maktabga qanday borib kelganligi bilan ham qiziqmadi.

2. Dilshodning onasi tarbiyada bolaning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish, tarbiya jarayonida rag'batlantirish tamoyillariga zid ish qildi.

3. Shu kabi vaziyatlar Dilshodning tarbiyasiga salbiy ta'sir o'tkazadi, asta-sekin unda qo'rslik, befarqlik, o'z-o'zini past baholash, o'ziga va atrofdagilarga ishonmaslik kabi xislatlar shakllanadi.

3-keys.1.Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari asosida talabalar ma'naviyatini yuksaltirishda samarali bo'lgan shakllarni aniqlash.

2. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari asosida talabalar ma'naviyatini yuksaltirishda samarali metodlarni tanlash.

3. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari asosida talabalar ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qiluvchi tarbiya vositalari belgilash.

Tinglovchilar uchun metodik ko'rsatmalar

1. Tegishli adabiyotlardan shakl, metod va vosita tushunchalari qanday ma'no anglatishini yodga oling.



2. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari va shaxs ma'naviyatini shakllantirish jarayonlarining mohiyatini chuqur o'rganing.

3. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari asosida talabalar ma'naviyatini yuksaltirishda samarali bo'lgan shakl, metod va vositalar aniqlang.

4. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari asosida talabalar ma'naviyatini yuksaltirishda samarali bo'lgan shakl, metod va vositalarini tizimlashtiring.

5. "Ko'zgzama" metodi yordamida oila tarbiyasining talabalar ma'naviyatini yuksaltirishdagi samarali shakl, metod va vositalari asosida plakat ishlang.

Keysni echish jarayoni:

1. Talabalar keys mohiyatini u bilan ikki-uch marta tanishish orqali, sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda etarlicha anglab oladi.

2. Talaba sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda muammoning echimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlaydi.


3. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko'proq dahldor bo'lgan omil (yoki ikkita omil)ni ajratib oladi.

4. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) echimni ajratib olingan omil (ikkita omil) asosida bayon etadi.

5. Yechim individual, kichik guruhlar yoki jamoa ishtirokida muhokama qilinadi. O'qituvchining echimi




1-topshiriq bo'yicha






2-topshiriq bo'yicha



3-topshiriq bo'yicha





VI. GLOSSARIY

Termin	O'zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
Dolzarblik	nimaningdir hozirgi vaziyat uchun muhimligi, ahamiyatligi, zamonaviyligi	the importance, the significance of anything to date, modern, topical.
Tahlil	analiz, ob'ektni elementlarga (xayolan yoki real) bo'laklash	the dismemberment of (mental or actual) object to the elements
Ancaml	1) birgalikda chiqish qiladigan ijrochilar guruhi; 2) birgalikdagi ijroning go'zalligi, ravonligi	1) a group of singers, speakers together, and 2) Slim, well-coordinated joint performance.
Accotsiatsiya	taassurot, ikki yoki ortiq psixik tuzilma o'rtacida ma'lum sharoitlarda yuzaga keladigan aloqadorlik	the connection that occurs under certain conditions, between two or more mental formations
Tarbiya	shaxsni ijtimoiy va madaniy faoliyatga tayyorlash maqsadida uning ma'naviy va jismoniy rivojlanishiga tizimli va maqsadli ta'sir ko'rsatish jarayoni	the process of systematic and deliberate action on the spiritual and physical development of the individual in order to prepare it for the social and cultural activities.
Faraz	gipoteza (lot.), hodicalarning qvonuniyatli aloqadorligi haqida taxminiy fikr	(from the Greek. Hypothesis - base assumption), a speculative judgment about the legitimate (reason) respect the phenomena.
Faoliyat	atrof olamga o'ziga xos insoniy munosabat shakli	the specific form of human relationship to the world
Didaktika	pedagogikaning ta'lim va o'qitish nazariyasi bayon	the section of pedagogy, a theory of education and



	etilgan qismi	training
Dirijer	musiqachi-ijrochi, orkestr, xor, ansambl, opera truppasi va sh.k. rahbari	musician, bandleader, choir, ensemble, opera company, etc.
Differensiatsiya	farqlash, butunni turli qism, shakl va darajalarga bo'laklash	the division, a division of the various parts, the form and degree
Bilim	voqelikni o'rganish (bilish)ning amaliyotda tekshirilgan natijasi, uning inson ongida to'g'ri aks ettirilishi	the result of proven practices of knowledge, reality, or rather its reflection in the mind of man
Improvizatsiya	tarixan tobora qadimiy musiqalash tipi, bunda musiqa yaratish uni ijro etish vaqtida ro'y beradi	historically the most ancient type of music-making, in which the process of composing music occurs during its execution
Individuallik	qandaydir hodisa, alohida mavjudot, insonning betakror o'ziga xosligi	the unique identity k.-l. phenomenon, an individual creature, man
Innovatsion texnologiyalar	tizimda izchil, biri biridan kelib chiqadigan, ijobiy yakuniy natijaga erishishga qaratilgan harakatlar algoritmi	the algorithm of successive actions in the system under one of the other, aimed at obtaining a positive outcome
Can'at	1) badiiy ijod, umuman – adabiyot, me'morchilik, haykaltaroshlik, rangtacvir, grafika, dekorativ-amaliy san'at, musiqa, raqs, teatr, kino va inson faoliyatining boshqa turlari; 2) faoliyatning ictalga turida yuqori darajadagi malaka, mahorat	1) creativity in general - literature, architecture, sculpture, painting, drawing, arts and crafts, music, dance, theater, cinema and other kinds of human activity, and 2) a high degree of skill, skill in any sphere of activity.
Malaka	mehnatning ma'lum turiga tayyorgarlik darajaci,	the level of preparedness, the degree of fitness for



	yaroqlilik darajaci	k.-n. type of work
Konsepsiya	qandaydir hodisani tushunish, talqin qilishning ma'lum usuli, ularni yoritishda asosiy nuqtai nazar, rahbar g'oya; faoliyat turlarida etakchi g'oya, konstruktiv tamoyil	a certain way of understanding, interpretation k.-l. Phenomena, the basic point of view, the guiding idea for lighting, a leading design, construction principle of the various activities
Mezon	kritiyeriy, nimanidir baholash, belgilash yoki tacniflash uchun asos bo'ladigan belgi	a sign, which is based on the assessment, definition or classification of something
Madaniyat	etishtirish, tarbiyalash, rivojlantirish	the cultivation, education, training, development, devotion
Metod	qandaydir maqsadga erishish, muayyan vazifani hal qilish usuli	a method of achieving k.-l. The goals address a particular problem
Musiqiy ta'lim	musiqi san'ati (ijod, ijodkorlik) va musiqi faniga professional o'rgatish, shuningdek, bu kabi o'qitish natijasida egalangan bilimlar tizimi, yig'indisi	a systematic purposeful development of musical culture and musical abilities of man, brought up in it responsive to the music, a deep and holistic understanding of the experience of its content, the transfer of socio-historical experience of the new generation of music



Tafakkur	inconnig bilish, ob'ektiv voqelikni aks ettirish jarayonining oliy shakli	the highest stage of human cognition, the process of reflection of objective reality
Ma'lumot	tizimlangan bilim, malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayoni va natijasi	learning process and the result of systematic knowledge and skills
Partitura	ko'p ovozli asarni ikkitadan ortiq, bir-biri bilan ustma-ust joylashgan va takt chiziqlari bilan ajratilgan nota tashuvchida yozish usuli	a way of notation of polyphonic works by more than two notonostsah arranged one above the other and separated by barlines
Pedagogik texnologiya	o'z oldiga ta'lim shakllarini optimizatsiyalash vazifasini qo'ygan, bilimlarni texnik va insoniy resurslar hamda ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda o'qitish va o'rganish jarayonini yaratish, qo'llash va belgilashga tizimli yondashuv (YUNECKO).	conceived in every detail model of educational activities for designing, organizing and conducting the training process is certain to ensure a comfortable environment for students and teachers. (V.M.Monahov)
Muammo	keng ma'noda – o'rganish, hal qilish talab etiladigan murakkab nazariy yoki amaliy masala	in the broadest sense - a complex theoretical or practical issue that requires study permit
Kacb	ma'lum tayyorgarlikni talab qiladigan va odatda, mavjudlik manbasi sanaladigan mehnat faoliyati turi	kind of work that requires some training and is the usual source of livelihood
Jarayon	1) nimaningdir rivojida hodisa, holatlarning izchil almashinishi; 2) qandaydir natijaga erishish uchun izchil harakatlar yig'indisi	1) a succession of events, states in the development of something 2) The set of sequential actions to achieve any result



Tizim	bir-biri bilan munosabati va aloqadorlikda bo'lgan, ma'lum yaxlitlik, butunlik hosil qiladigan elementlar ko'pligi	a set of elements that are in relationships and connections with each other, forming a certain integrity, unity
Mutaxaccilik	bitta kasb doirasida mashg'ulot turi	kind of classes within the same profession
O'zigaxoclik	spesifika, faqat shu predmet, hodisaga xos bo'lgan farqli, xarakterli xususiyatlar	the distinguishing characteristic features unique to the subject, phenomenon
Qobiliyat	faoliyatning ma'lum turini muvaffaqiyatli amalga oshirishning sub'ektiv sharti sanalgan shaxsning individual xususiyatlari	individual personality traits, which are subjective conditions for the successful implementation of a certain kind of activity
Ctruktura	tuzilma, ob'ektning yaxlitligi va o'z-o'ziga o'xshashligini ta'minlaydigan barqaror aloqalari yoig'indisi, ya'ni turlicha tashqi va ichki o'zgarishlar sharoitida asosiy xossalarning saqlanib qolishi	a set of stable relations of the object to ensure its integrity and identity of self, that is, preservation of the basic properties at various external and internal changes
Ijod	sifat jihatidan yangi, betakrorligi, originalligi va noyobligi bilan ajralib turadigan nimadir fratish jarayoni	the activity that generates something qualitatively new and different uniqueness, originality and uniqueness
Temp	sur'at, muciqada harakat tezligi	the speed of movement in music
Texnologiya	aynan, mahorat haqidagi fan	literally - the science of excellence
Tonallik	ladning yuqori holati	tall fret position
An'ana	ijtimoiy va madaniy merosning avloddan	the elements of social and cultural heritage,



	avlodga o'tib keladigan va ma'lum hamjamiyatlarda, sinflarda va ijtimoiy guruhlarda uzoq vaqt mobaynida saqlanib keladigan elementlari	transmitted from generation to generation and preserved in certain societies, classes and social groups for a long time
O'qituvchi	ta'lim muassasasida o'sib kelayotgan avlodni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishni amalga oshirib keladigan mutaxassis	Specialist carrying out education, training and education of the younger generation in schools
Omil	faktor, qandaydir jarayon, hodisaning sababi, harakatlantiruvchi kuchi, uning xarakteri yoki alohida qirralarini belgilaydi	the reason, the driving force k.-l. Process, a phenomenon that defines its character or its individual features
Faktura	musiqiy to'qimani muayyan rasmiylashtirish, bezash	the specific design of the musical fabric
Tavcif(noma)	xarakteristika, kimningdir yoki nimaningdir xarakterli, farqli jihatlari, sifatlari, qirralarini tavsiflash	a description of specific, distinctive qualities, characteristics, properties, something or someone
Maqcad	faoliyat natijasini ideal, xayolan oldindan qurish	perfect, anticipating the result of mental activity
Shtrix	musiqiy cholg'uda ifodali mazmunga ega bo'lgan tovush hosil qilish usuli	welcome zvkoizvlecheniya a musical instrument that has an expressive value.
Ekperiment	tajriba, bilish ob'ektini qayta yaratish, farazlarni tekshirish va sh.k	experience, playing the object of knowledge, testing hypotheses, etc.
Empirizm	hissiy tajribani ishonchli bilimlarning yagona manbasi deb tan oladigan falsafiy oqim	the philosophical direction of recognizing the sensual experience only source of reliable knowledge



Ectetika	estetik sohani inson va tabiat o'rtasidagi qadriyatli munosabatlarning o'ziga xos namoyon bo'lishi sifatida o'rganadigan falsafiy fan va insonlarning badiiy faoliyat sohasi	a philosophical science that studies the aesthetic sphere as a specific manifestation of the value relationship between man and the world of art and the area of human activity
-----------------	--	---



VII. ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016.
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
4. Karimov.I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. T.: O'zbekiston, 2008

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Qarorlari

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947- sonli Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabrdagi “2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida” Farmoni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyuldagi “Oliy va o'rta maxsus ta'lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5763-son Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgustdagi “Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida”gi PF- 5789sonli Farmoni.

III. Maxsus adabiyotlar

10. Azizxodjayeva N.N. Педагогические технологии и педагогическое мастерство. Т.: ТГПУ им. Низами, 2003.
11. Bespalko V.P. Слагаемые педагогической технологии – М.: Педагогика, 1989.
12. Bogolyubov V.I. Эволюция педагогических технологий // Школьные технологии. 2004. № 4.С.12-21.
13. Golish L.V. Технологии обучения на лекциях и семинарах/Учебное пособие// Под общей редакцией академика С.С.Гулямова. - Т.:ТГЕУ, 2005.



14. Golish L.V. Что нужно знать обучающему о современных технологиях обучения? // Экспериментальное учебно-методическое пособие. Ташкент: ИРССПО, 2002.

15. Muslimov N.A., Qo'ysinov O.A. Musiqqa ta'limi yo'nalishi bakalavrlarini tayyorlashda mustaqil ta'limning ahamiyati // Maktab va hayot. –Toshkent, 2004. - № 1. -B. 18-20.

16. Muslimov N.A., Qo'ysinov O.A. Musiqqa ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta'limni tashkil etish. Metodik qo'llanma. -T.: TDPU, 2006. - 46 b.

17. Muslimov N.A., Sharipov Sh.S., Qo'ysinov O.A. O'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim integratsiyasi. Metodik qo'llanma.-T.:Nizomiy nomidagi TDPU. 2006. -47b.

18. R.J.Ishmuhammedov. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari.T.2000 yil.

19. R.Ishmuhammedov,M.Yuldashev. Ta'lim va tarbitada innovatsion pedagogic texnologiyalar. O'quv qo'llanma.T. «ZIYO PRESS» 1917 yil

20. Yepisheva O.B. Основные параметры технологии обучения // Школьные технологии, 2004. № 4.

21. Klarin M.V. Pedagogicheskaya texnologiya v uchebnom protsesse. Analiz zarubejnogo opyta // M.: Znanie, 1989 / Новое в жизни, науке, технике. Ser. «Pedagogika i psixologiya». № 6.

22. Kushnir A.M. Metodicheskiy plyuralizm // Школьные технологии, 2004. № 4. S.3-11.

23. Selevko G.K. Современные образовательные технологии / Учебное пособие. M.: Narodnoe obrazovanie, 1998.

24. J.G' Yo'ldoshev, S.A.Usmonov. Pedagogik texnologiyalarning tadbiiy asoslari. -Toshkent, O'qituvchi 2004 yil.

25. Farberman B.L. Передовые педагогические технологии – T.: ФАН, 2000.

26. Butz M., Faltus R., Soxen E. Работа в группах / Сборник статей. Варшава: Фонд образования для демократии, 1994.

27. Guzeev V.V. Образовательная технология: от приема до философии. M.: Сентябрь, 1996.

28. Djo'rayev A.. OTM professor-o'qituvchilarining ilmiy salohiyatlari bo'yicha malakasini oshirish uchun ma'ruzalar matni(1-bosqich uchun) Toshkent 2009.

29. Karimova D A.Musiqiy pedagogik mahorat asoslari -T. Moliya-Iqtisod. 2008

30. Sharipova G.Musiqqa o'qitish metodikasi -T. Turon –Istiqbol 2008.



31. Soipova D Musiqqa o'qitish nazariyasi va metodikasi -T.2009 O'zDK
32. Karimova D.A. Musiqqa o'qitish texnologiyalari va loyihalash-T
".LESSON PTESS" MChJ nashriyoti 2021yil

IV. Internet saytlar

33. <http://edu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.
34. <http://lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
35. <http://bimm.uz> – Oliy ta'lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi.
36. <http://ziyonet.uz> – Ta'lim portali Ziyonet
37. <http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi.